



T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston Pedagogika
fanlari ilmiy tadqiqot instituti

UZLUKSIZ TA'LIM



ILMIY-USLUBIY JURNAL

2022, № 2

DJURAYEV Risbay
Bosh muharrir

Jurnal 2001 yildan nashr qilina
boshlangan.

O'z MAA'dan 2007 yil 3-yanvar-
da № 0101-tartib raqami bilan
qayta po'yxatdan o'tgan.

Jurnalda e'lon qilingan
maqolalardan iqtibos keltiril-
ganda «Uzluksiz ta'lim»
jurnalidan olinganligi ko'rsa-
tilishi lozim.

Tahrir hay'ati:

Abdug'appon QIRQIZBOYEV
Uzoqboy BEGIMQULOV
Nargiza RAXMANQULOVA
Xolboy IBRAGIMOV
Laylo AXMEDOVA
Roxatoy SAFAROVA
Leyla DJURAYEVA
Dono G'ANIYEVA
Lobar QARAXANOVA
Dusmurod DJURAYEV
Baxodir AKBAROV

Tahririyat manzili:

100027, Toshkent sh.,
Furqat ko'chasi,
174-uy.

O'zPFITI

Tel.: (71)-245-92-34

(93)-503-52-07

e-mail: uzluksiztalim_jurnal@mail.ru
liya_2305@mail.ru

TA'LIM MAZMUNI UZLUKSIZLIGI

- 3 **X.I.Ibraimov**
Interfaol ta'lim modeli asosida malaka oshirish jarayonida o'qituvchilarning pedagogik qobiliyatini rivojlantirish asoslari
- 8 **D.R.Babayeva, Z.X.Sodiqova**
Maktab va maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirish yo'llari
- 13 **M.J.Shodiyeva**
Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish komponentlari va pedagogik-psixologik xususiyatlari
- 18 **R.O.Ashurbayeva**
Uzluksiz ta'lim tizimida interaktiv ta'limni rivojlantirishga qaratilgan islohotlar
- 23 **A.D.Askarov**
Ta'lim sifati monitoringining tashkiliy jarayonlari va funksiyalari
- 27 **A.Mamadaliyev**
Chang cholg'usida ijrochlik uslublarini bosqichma-bosqich o'zlashtirish
- 32 **Sh.U.Usmonkulov**
Sport maktab o'quvchilari va oliy ta'lim talabalari futbol o'yinida harakatlanish texnikasi va jismoniy holatini monitoring qilish metodikasi
- 36 **V.N.Sattorov**
O'qituvchilarni pedagogik faoliyatga tayyorlashda ijtimoiy sherikchilik
- 40 **D.U.Djurayev**
Uzluksiz ta'lim tizimida geografik atamalar o'rganilishida ko'p tilli elektron lug'at yaratishning amaliy xususiyatlari
- 45 **P.X.Jasurayev, F.P.Bakueva**
Проблемы компетентного подхода к формированию профессиональной компетентности в системе высшего образования
- 50 **H.H.Djamiylova**
Особенности формирования организаторских качеств у обучаемых
- 55 **A.A.Nurmatov**
O'quv – tarbiya jarayonida pedagogik madaniyatning ayrim ko'rinishlari
- 58 **D.H.Marasylova**
Современные технологии в дошкольных образовательных организациях

UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA MEDIATA'LIM: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

- 63 **M.P.Djumaniyazova**
Biologiya darslarida zamonaviy elektron ta'lim vositasidan foydalanishning fan mazmuniga samarali ta'siri
- 68 **I.B.Ashurov**
Telekommunikatsiya yo'nalishida rahbar kadrlarning uzluksiz kasbiy rivojlantirish jarayonini xorijiy tajribasi

MA'NAVIY TARBIYA

- 73 **M.E.Inoyatova**
Uzluksiz ta'lim jarayonida ta'lim oluvchilarda ijtimoiy-ma'naviy madaniyatni shakllantirish
- 77 **N.A.Nasriddinova**
Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni darsdan va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda badiiy adabiyotga qiziqtirish
- 81 **B.O.Temirbekov, A.B.Turemuratova**
Mustahkam oilani shakllantirishda yoshlarda naql-maqollardan foydalanishning tarbiyaviy-psixologik ahamiyati
- 85 **D.I.Xodjakulova**
Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish jarayonida treninglarni tashkil qilish va uning ahamiyati
- 89 **R.K.Azizov**
Barkamol avlodni tarbiyalashda o'zbek milliy estrada qo'shiqchilik san'atining o'rni

KASBGA YO'NALTIRISH VA PSIXOLOGIK XIZMAT

- 93 **Sh.T.Ergashev**
Yuqori sinf o'quvchilarini kasbga yo'naltirishning pedagogik-psixologik sharoitlarini yaratish
- 98 **Sh.P.Po'latov, Z.Sh.Asqarova**
Kasbiy o'zini-o'zi rivojlantirish jarayonida innovatsion faoliyatning o'rni va ahamiyati
- 103 **Y.T.Murzakarimov**
Подготовка к обучению в школе и исследовательской деятельности

ХОРИЖИЙ ТИЛЛАРНИ ЎҚИТИШ ТИЗИМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ – ДАВР ТАЛАБИ

- 107 **З.Каримова**
Знание иностранного языка – залог профессионализма



INTERFAOL TA'LIM MODELI ASOSIDA MALAKA OSHIRISH JARAYONIDA O'QITUVCHILARNING PEDAGOGIK QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH ASOSLARI

X.I.IBRAIMOV,

O'zPFITI direktori, pedagogika fanlari doktori, professor

Mazkur maqolada malaka oshirish jarayonida o'qituvchilarning pedagogik qobiliyatini interfaol ta'lim modeli asosida rivojlantirish haqida so'z boradi. Ta'lim turlari va bu jarayonda o'qituvchining pozitsiyasi, o'quv jarayonidagi ta'lim berish turlari, ta'lim jarayonida o'qituvchi va tinglovchilar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik masalalariga alohida e'tibor qaratiladi.

Kalit so'zlar: interfaol ta'lim, tinglovchilar, malaka oshirish, dasturiy (loyihali) ta'lim, izlanuvchan (evristik) ta'lim, muammoli ta'lim, ijodiy (kreativ) ta'lim, axborot texnologiyalari, o'yinli texnologiyalar.

В данной статье рассматривается развитие педагогического мастерства учителей в процессе повышения квалификации на основе интерактивной модели обучения. Особое внимание уделяется видам обучения и роли учителя в этом процессе, взаимодействию учителя и слушателей в процессе обучения.

Ключевые слова: интерактивное обучение, слушатели, развитие навыков, программное (проектное) обучение, исследовательское (эвристическое) обучение, проблемное обучение, творческое обучение, информационные технологии, игровые технологии.

This article discusses the development of teachers' pedagogical skills in the process of professional development based on an interactive learning model. Particular attention is paid to the types of training and the role of the teacher in this process, the interaction between the teacher and students in the learning process.

Key words: interactive learning, students, skills development, program (project) learning, exploratory (heuristic) learning, problem-based learning, creative learning, information technology, game technology.

Zamon shiddat bilan rivojlanib, axborotlar oqimi ko'payib borgan sari ta'lim-tarbiya berish jarayonining an'anaviy tashkillashtirilishi ulkan yo'qotishlarga sabab bo'lishi barchaga ayon. Zero, malaka oshirish jarayonida tinglovchilarga axborotlarni etarlicha etkazishda o'quv jarayoniga ijodiy yondashish o'qituvchidan doimiy ravishda izlanishni, o'z ustida ishlashni talab etadi. Buning uchun u, eng avvalo, har bir mashg'ulotni o'ziga xos, alohida xususiyatlarga ega holda tashkil etish ehtiyojiga ega bo'lishi lozim. Ehtiyojning yuzaga kelishi uchun o'qituvchi o'z-o'ziga "Mashg'ulot o'tishdan maqsadim nima?", "Agar bunchalik zerikarli bo'lsa, nima uchun o'qituvchilikni kasb sifatida tanladim?", "Nahotki, to nafaqaga chiqqunimga qadar mashg'ulotni tashkil etishga, o'quvchilarning taqdiriga nisbatan shunday befarq bo'lsam?", "Bunday holga barham berishning iloji yo'qmi?", "Axir,



kasbiy faoliyatim hayotimning muhim qismi-ku, uni shunday mazmunsiz, ma'nosiz o'tishga yo'l qo'yishim kerakmi?" kabi savollarni berishi va ularga javob topishga urinishi zarur. Savollarga javob topish jarayonida esa, o'zining bu tarzda xatti-harakati noto'g'ri, o'ziga va o'quvchilarga nisbatan adolatsizlik ekanligini tushunib etadi. Natijada o'z ustida ishlash, ijodiy izlanish olib borishga qaror qiladi.

A.B.Borisova[1], K.Zaripov[2], Sh.K. Mardonov [3] va boshqa tadqiqotchilarning fikricha, malaka oshirish jarayonini ijodiy yondashuv asosida tashkil etishda interfaol ta'lim va interfaol metodlarning o'rni va roli beqiyosdir. Zero, ular o'z mohiyatiga ko'ra tinglovchilarni faollikka undash, malaka oshirish jarayonida qizg'in bahs-munozarlarni yuzaga keltirish imkoniyatiga ega.

O'qituvchining pedagogik qobiliyatini rivojlantirishga uning pedagogik mahoratini yuksalishiga sabab bo'ladigan asosiy omil sifatida qaraladi. Pedagogik mahorat jamiyatning madaniy-tarixiy taraqqiyoti tufayli pedagogik nazariya va amaliyot sintezini, o'qituvchilar pedagogik faoliyatining sifat jihatdan muayyanligini jamlaydigan ijtimoiy-pedagogik hodisadir. Ma'lumki, pedagogik mahoratning mazmuni ijtimoiy buyurtma, jamiyat va davlatning o'qituvchi shaxsiga va faoliyatiga bo'lgan talablari bilan belgilanadi. Ijtimoiy-pedagogik amaliyot shuni ko'rsatadiki, mahoratli pedagog darajasiga erishish o'qituvchining tabiiy shaxsiy intilishi va xohishi bo'libgina qolmay, balki uning kasbiy burchi va ijtimoiy mas'uliyati hisoblanadi. Zero, o'qituvchining mahoratini uning pedagogik qobiliyatini yaxlit shaklda muayyan ta'lim tizimining talablari majmui sifatida rivojlantirish hamda ta'lim samaradorligiga erishish maqsadida o'qituvchining uzluksiz ravishda o'zining malaka oshirib borishida sharoitlar yaratish, shuningdek, mazkur vazifalarni amalga oshirishda rag'batlantiruvchi usullardan foydalanish zarurati maqsadga muvofiqdir.

Oliy ta'lim muassasalari o'qituvchilarining malakasini uzluksiz oshirish jarayonini tashkil etishda yuqori samarali zamonaviy ta'lim va innovatsion texnologiyalar, ilg'or xorijiy tajribani keng joriy foydalanish, butun jahon Internet axborot tarmog'i, multimedia tizimlari va masofadan o'qitish usullaridan foydalangan holda, ilg'or pedagogik, axborot-kommunikatsiya va innovatsion texnologiyalarni egallash, ularni o'quv jarayoniga faol tatbiq etish ko'nikmalarini rivojlantirish, ularning ilmiy va ilmiy-pedagogik faoliyati natijadorligini inobatga yondashish lozimligi belgilab qo'yilgan.

Ijtimoiy va tabiiy jarayonlar muayyan qonuniyatga ega bo'lganligi, har bir ijtimoiy voqelik va tabiiy hodisalar ma'lum tartib asosida kechganidek, interfaol ta'lim va interfaol metodlardan foydalanishda ham bir qator qoidalariga amal qilish ularning samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi. Chunonchi, oliy ta'lim o'qituvchilarining pedagogik qobiliyat va mahoratini rivojlantirib borishi, o'qitishning ilg'or usullari va ularga zamonaviy yondashuv asosida ijobiy munosabat bildirishi interfaol ta'lim jarayonlarida o'quvchilar bilan o'zaro hamkorlikka qurilgan natijadorlikning yaqqol namunasi sifatida e'tirof etiladi.

Malaka oshirishni tashkil jarayonida uning qanday shaklda amalga oshirilishi bilan muhim ahamiyatga ega. Oliy ta'lim o'qituvchilarining kasbiy rivojlanishi hamda uzluksiz malaka oshirishi andragogik talablar asosida o'ziga


xoslikni talab etadi. Bunda o'qituvchilarni ehtiyojlari va ta'limiy maqsadlarini ko'zda tutuvchi, tabaqalashtirilgan, individual, malaka oshirishga jarayoniga tayyorgarligi, imkoniyatlari, shart-sharoitlari, erishilgan yutuqlari, ilmiy-pedagogik natijalari, o'z-o'zini kasbiy rivojlantirish shaxsiy rejasida ko'zda tutilgan asosiy vazifalari, axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish darajalarini inobatga olgan holda amalga oshirish samarali natija beradi.

Biroq, malaka oshirish jarayonini to'g'ri tashkil etishga erishishning o'zi etarli emas. Tashkiliy jihatdan to'g'ri tashkil etilgan ta'lim jarayonining muvaffaqiyatini o'qituvchi tomonidan qo'llaniladigan metodlar (ta'lim metodlari) ham ta'minlaydi.

Ta'lim metodlarini tanlash ixtiyoriy xarakterga ega bo'lmaydi. Chetdan qaraganda mashg'ulotda o'qituvchi o'ziga yoqqan metodni tanlagandek va ulardan foydalanayotgandek ko'rinishi mumkin. Aslida esa, o'qituvchi maqsadga erishish yo'lini tanlashda juda ham mulohaza yuritadi. Obyektiv va subyektiv sabablar, mavjud imkoniyatlar, shuningdek, yuzaga kelish ehtimoli bo'lgan tasodiflar tanlov diapazonini toraytiradi va o'qituvchi ixtiyorida samarali ishlashning sanoqli usullarini qoldiradi.


O'qituvchi har safar ta'lim metodini tanlashda ko'pgina bog'liqliklarni hisobga olishi dardkor. Eng avvalo, mashg'ulot jarayonida o'z echimini topishi zarur bo'lgan asosiy (bosh) maqsad va aniq pedagogik vazifalar aniqlab olinadi va ularga muvofiq umumiy jihatdan ko'zlangan asosiy, shuningdek, oraliq (xususiy) maqsadlarga erishishni kafolatlovchi bir guruh metodlar ko'rib chiqiladi.

So'ngra ta'lim jarayonini yuqori darajada tashkil etish imkoniyatini beradigan va maqsadga yo'naltirilgan optimal yo'llar tanlab olinadi (1-rasmga qarang).



1.1-rasm. Ta'lim jarayonining soddalashtirilgan modeli

Mohiyatiga ko'ra maqsadga yo'naltirilgan ta'limning turli yo'llaridan kelib chiqqan holda, tinglovchilarning malakasini oshirish jarayonida ta'lim berish turlarini tanlab oladi (1.2-rasmga qarang).





Bu esa o'qituvchi va tinglovchining pozitsiyasini o'zgarishiga o'z ta'sirini o'tkazadi: tayyor o'quv ma'lumotlarini oluvchi subyektdan o'zi mustaqil izlanuvchi va o'z faoliyatini loyihalovchi shaxsga aylanadi. O'z navbatida o'qituvchining ham pozitsiyasi boshqaruvchi, ekspert, yo'naltiruvchi, maslahatchi (yordamchi), tashkilotchi – etkazib beruvchi, kuzatuvchi kabi rollarni bajaruvchiga aylanadi (1- jadvalga qarang).

1-jadval.

Ta'lim turlari va bu jarayonda o'qituvchining pozitsiyasi

Ta'lim turi	Mohiyati	O'qituvchining pozitsiyasi
Dasturiy (loyihali) ta'lim	O'qituvchi yoki o'qituvchi va tinglovchilar bilan birgalikda ishlab chiqilgan, algoritmlangan, muayyan ketma-ketlikda kechadigan jarayon.	Bu jarayonda o'qituvchi boshqaruvchi vazifasini bajaradi.
Izlanuvchan (evristik) ta'lim	O'qituvchi o'zi tomonidan berilgan vazifaga aniq echim qo'ymaydi, chunki tinglovchilar qo'yilgan muammoni o'z imkoniyatlari, fikrlash qobiliyatlariga tayangan holda echadilar. Bunda yangi g'oyalarning tug'ilishi echimlarning topilishi va xatto, kashfiyotlarning yaratilishi nazarda tutiladi.	Ushbu jarayonda o'qituvchining asosiy vazifasi ekspertlikdir.
Muammoli ta'lim	O'qituvchi, tinglovchi yoki o'qituvchi va tinglovchi hamkorligida muammoli vaziyat yaratiladi va aniq ta'limiy maqsad qo'yiladi. Tinglovchilar bu muammoni o'zlari hal qilsalar-da, biroq o'qituvchi ularni maqsad sari yo'naltiradi.	Demak, bu o'rinda o'qituvchi yo'naltiruvchi vazifasini bajaradi.
Ijodiy (kreativ) ta'lim	Tinglovchilarda ijodkorlik va tadqiqotchilikni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim jarayoni bo'lib qo'yilayotgan muayyan muammoning echimini topishda bir necha usullardan foydalaniladi.	Bu o'rinda o'qituvchi, asosan, maslahatchi (yordamchi) rolini o'ynaydi.
Axborot texnologiyalari	Axborot texnologiyalari yordamida mavzuga oid turli jadval, kinofilm, surat hamda hokazolarni olish va ulardan foydalanish imkoniyatini yaratuvchi ta'lim jarayoni.	O'qituvchining vazifasi tashkilotchi, ma'lumotlarni etkazib berishdir.
O'yinli texnologiyalar	Mashg'ulot mavzusiga ko'ra turli ta'limiy o'yinlar yordamida tashkil etiluvchi bu jarayon belgilangan ma'lum vaqt ichida kechadi.	Bunda o'qituvchi kuzatuvchi vazifasini bajaradi.

Malaka oshirish jarayonida tinglovchilarni materiallarni faol o'zlashtirishga yo'naltirishni bir necha ta'lim modellari yordamida tashkil etish mumkin. Masalan, ekstrafoal (passiv), faol(ichki), introfaol, interfaol. Quyida ana shu ta'lim modellari va ularning o'ziga xosliklarini ko'rib chiqamiz.

Ekstrafoal (ekstra – "tashqaridan"[5] faol) ta'lim – mashg'ulotda o'qituvchining etakchi bo'lishiga asoslangan ta'lim modeli bo'lib, unda tinglovchilar o'rganish talab etiladigan nazariy bilimlarni o'qituvchining berayotgan axboroti, uning tomonidan uzatilayotgan ma'lumot hamda adabiyotlar asosida o'zlashtiradilar.

Ta'lim jarayonida o'qituvchi va tinglovchilar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik



muhim ahamiyatga ega. Zero, tinglovchilarning mustaqil bilim olishlari qay darajada to'g'ri tashkil etilayotganligini kuzatish, nazorat qilib borish, yo'l-yo'riq ko'rsatish, zarur o'rinlarda pedagogik va metodik maslahatlar berish ta'lim samaradorligini ta'minlovchi omildir.

Interfaol (o'zaro faol) ta'limda o'qituvchi va tinglovchilar o'rtasida, shuningdek, tinglovchilarning o'rtasida ham o'zaro hamkorlik, hamfikirlik, hamjihatlik yuzaga keladi. Bu hamkorlik o'quv materialini o'zlashtirish, nazariy va amaliy bilimlarni boyitishga xizmat qilib, shu bilan birga, muammoli vaziyatlarning ijobiy hal etilishini ta'minlabgina qolmay, ta'lim jarayoni ishtirokchilari o'rtasida o'zaro psixologik yaqinlik va birlikni ham yuzaga keltiradi. O'qituvchi va tinglovchilarning birgalikdagi hamkorlik harakatlari, o'zaro ta'sirlari va hamijodkorliklari ta'lim jarayonida qo'lga kiritiluvchi barcha muvaffaqiyatlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Bizningcha, ta'lim sohasida o'qituvchi shaxsi nafaqat oddiy inson balki, mustaqil fikrini erkin bayon eta olish xususiyatiga ega, o'z kasbiy qadriyatlari va shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish ustida doimiy ishlay oladigan, zamon bilan hamnafaslik orqali kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirishning chin ma'nodagi muvaffaqiyatiga erisha oladigan va o'z o'quvchisining shakllanishi va o'sishi va rivojlanishiga hissa qo'shishni muhim maqsad qilib qo'yadigan, jamiyatning rivoji uchun befarq qaramaydigan, o'z faoliyatiga nisbatan tanqidiy ko'z bilan qaray oladigan, o'zini-o'zi rivojlantirishi, o'zini anglab etishi kommunikativ kompetentligining shakllanganligi bilan jamiyatning boshqa qatlamidan mutlaqo ajralib turadigan shaxs maqomiga ega soha vakili sifatida ajralib turishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Борисова А.В. Педагогические особенности сознания и внедрения системы активных методов обучения в институте повышения квалификации //Дис. канд. пед. наук. -М.; 1987. -151 с.

2. Zaripov K. O'qituvchilar malakasini oshirishda maktab rahbarining roli. - T.: O'qituvchi, 1993. -123 b.

3. Mardonov Sh.Q. Pedagog kadrlarni ta'limiy qadriyatlar asosida tayyorlash va malakasini oshirishning pedagogik asoslari. // Ped. fan. dokt. ...diss. - Toshkent. -2006. - 302 b.

4. Mirsoliyeva M.T. Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish. diss. ped. fan. dokt. (DSc) - Toshkent: 2019. 218, 145, -b.

5. Колесникова И.А. О критериях гуманизации образования //Гуманизация образования: теория и практика. - СПб.: ГУПМ, 1994. -133 с.



MAKTAB VA MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

D.R.BABAYEVA,
TDPU professori,
Z.X.SODIQOVA,
TDPU magistranti

Ushbu maqolada maktab va maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirish yo'llari, maktab va maktabgacha ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish mazmuni, maktab va maktabgacha ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish usullaridan foydalanish haqida so'z boradi.

Tayanch so'zlar: maktab, maktabgacha ta'lim, pedagog, innovatsiya, faoliyat, takomillashtirish, texnologiya, malaka, jarayon, zamonaviy, rivojlanish, usullar.

В статье рассматриваются пути совершенствования системы школьного и дошкольного образования, содержание внедрения инновационных педагогических технологий в школьное и дошкольное образование, использование инновационных педагогических технологий в школьном и дошкольном образовании.

Ключевые слова: школа, дошкольное образование, педагогика, инновация, деятельность, совершенствование, технология, навыки, процесс, современное, развитие, методы.

This article discusses ways to improve the school and preschool education system, the content of the implementation of innovative pedagogical technologies in school and preschool education, the use of innovative pedagogical technologies in school and preschool education.

Key words: school, preschool education, pedagogy, innovation, activity, improvement, technology, skills, process, modern, development, methods.

Maktab va maktabgacha ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiya bu bolalarni vositalar yordamida ta'lim materiallarini o'rganish orqali nutqini rivojlantirish, o'z fikr erkin bayon eta olish, o'zaro muloqot, tevarak-atrof bilan tanishish jarayonini yangicha talqin etishdir. Ma'lumki, Maktab va maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishdan asosiy maqsad ularni sog'lom, barkamol shaxs sifatida tarbiyalash va maktab ta'limiga tayyorlashdan iboratdir. Maktab va maktabgacha ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish usullaridan foydalanish ijobiy natija beradi. Ta'lim-tarbiya tizimi markazida bola shaxsi turib, uning rivojlanishi va tabiiy salohiyatini tatbiq etish uchun qulay, bexatar va nizosiz sharoitlar yaratilishi ko'zda tutiladi. Insonparvar shaxs texnologiyalari bu texnologiyalar bolaga hurmat va muhabbatni, uning ijodiy kuchlariga optimistik ishonchni targ'ib qiladi, majburlashni man etadi. [1-89].

Hamkorlik texnologiyalari demokratizm, tenglik, bola va pedagog o'rtasidagi



o'zaro hamkorlikni targ'ib qiladi. Erkin ta'lim texnologiyalari bolaga tanlash erkinligi va mustaqillik berishga e'tibor qaratiladi. Bolaning ichki motividan kelib chiqqan xolda, kattalar ta'siriz, o'zining mustaqil pozitsiyasini shakllanishiga qaratilgan. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida markazlar faoliyatini yuqori saviyada tashkil etish va uning samaradorligini oshirish maqsadida tarbiyachi mashg'ulot uchun berilgan vaqtdan unumli foydalanishi, turli texnologiyalar, usul va metodlardan foydalanib turli mashg'ulotlarni o'tishi, tarbiyachi bu tajribalarni puxta o'zlashtirishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababali ham tarbiyachi mashg'ulotlarni o'qitishda zamonaviy yondashuvlar qilish va turli mashg'ulotlarning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda innovatsiyalardan foydalanib ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish talab etiladi va tavsif beriladi. Masalan: "3x4" metodi - tarbiyalanuvchilarni erkin fikrlash, keng doirada turli g'oyalarni bera olish, ta'lim-tarbiya jarayonida yakka, kichik guruh holda tahlil etib, xulosa chiqara olish, ta'rif bera olishga qaratilgan.

"BLIS -O'YIN" metodi - harakatlar ketma-ketligini to'g'ri tashkil etishga, mantiqiy fikrlashga, olingan axborotlar asosida ko'p, xilma-xil fikrlardan, ma'lumotlardan kerakligini tanlab olishni o'rgatishga qaratilgan.

"INTERVYu" texnikasi tarbiyalanuvchi savol berish, eshita olish, to'g'ri javob berish, savolni to'g'ri tuzishni o'rgatishga qaratilgan.

"BUMERANG" texnikasi - tarbiyalanuvchi mashg'ulotlar jarayonida, ko'rkazma yoki tarqatma materiallar bilan ishlash, o'rganilgan materialni yodida saqlab qolish, so'zlab bera olish, fikrni erkin holda bayon eta olishga undash hamda mashg'ulotlar davomida barcha tarbiyalanuvchilarni rag'batlantirira olishga qaratilgan.

"MULOQAT" texnikasi tarbiyalanuvchilar diqqatini o'ziga jalb etish, mashg'ulotlar jarayonida hamkorlikda faoliyat ko'rsatishga, uni tashkil etishni o'rgatishga qaratilgan.

"TARMOQLAR" metodi - tarbiyalanuvchilarni mantiqiy fikrlash, umumiy fikr doirasini kengaytirish va mustaqillikka undash. "Tarmoqlar" metodi (Klaster) Fikrlarning tarmoqlanishi - bu pedagogik strategiya (o'yinning umumiy rejasi) bo'lib, u bolalarni biron bir mavzuni chuqur o'rganishlariga yordam berib, o'quvchilarni mavzuga taalluqli tushuncha yoki aniq fikrni erkin va ochiq ravishda ketma- ketlik bilan uzviy bog'langan holda tarmoqlashlariga o'rgatadi. Bu metod biron bir mavzuni chuqur o'rganishdan avval bolalarning fikrlash faoliyatini jaddalashtirish hamda kengaytirish uchun xizmat qilishi mumkin. Shuningdek o'tilgan mavzuni mustahkamlash, yaxshi o'zlashtirish, umumlashtirish hamda bolalarni shu mavzu bo'yicha tasavvurlarni chizma shaklida ifodalashga undaydi. Pedagogik texnologiya va pedagog mahoratga oid bilim, tajriba va interaktiv



metodlar tarbiyalanuvchini bilimli, yetuk malakaga ega bo'lish mashg'ulotlar jarayonida qo'llaniladigan treninglar qaratilgan. [2-97]

Faollik markazlarini tashkil etishning mazmun-mohiyati "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari" va "Ilk qadam" o'quv dasturining ishlab chiqilishi uzluksiz ta'lim tizimida maktabgacha ta'limni samarali amalga oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratdi. Albatta maktabgacha ta'limni ham shaklan, ham mazmunan yangilashga qaratilgan bu kabi innovatsiyalar ota-onalardan tortib barcha pedagoglar bola tarbiyasi, uning ta'lim olishga tayyorgarligiga zamon talablaridan kelib chiqqan holda yondashuvini talab etadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tashkil etiladigan rivojlanish markazlaridagi jarayonlar bolalarning doimiy ravishda yangi bilimlarni o'zlashtirishga, mustahkamlashga yordam beradi. Bolalarni o'z bilimini mustaqil ravishda to'ldirib borish, kechayotgan yangilanish jarayonlariga munosib moslashib borishga o'rgatish rivojlanish markazlarining asosiy maqsadidir. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida olib boriladigan rivojlanish markaz faoliyatlarida bolalarga quyidagilar o'rgatiladi - muammolarni e'ta olish; - ijodiy, tafakkur va ixtirochilik imkoniyatlarini namoyon etish; - odamlar, jamiyat, mamlakat, atrof-olam to'g'risida g'amxo'rlik qilishni. Oqilona tashkil etilgan sog'lom ijtimoiy-ma'naviy muhit bolalarda izlanishga, tashabbus ko'rsatishga va ijodkorlik qobiliyatlarini namoyon etishga rag'bat uyg'otadi. Bunda tarbiyachilar bola rivojlanishi qanday kechayotganligi to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'lishlari, buning uchun esa ularni doimiy ravishda nazorat qilib borishlari zarur bo'ladi. Tarbiyachi o'quv materialini bolalarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda ularga munosib tarzda yetkazadilar.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagogik jamoasining o'rni shundan iboratki, ular har bir bolaning qiziqishi, qobiliyati va ehtiyojini inobatga olgan holda mos keladigan maqsadlar qo'yishlari, bolalardagi tabiiy qiziqishlarni qo'llabquvvatlashlari, ularda borliqni birgalikda o'zlashtirish ko'nikmalarini shakllantirishlari kerak. Bola rivojlanishining o'ziga xosligini inobatga olishda avvalo shuni tushunib yetish kerakki, barcha bolalar rivojlanishning ma'lum bosqichlarini bosib o'tadilar, biroq bunda har bir bola noyob va takrorlanmasdir. Tarbiyachilar bolalarni aynan bir xil, o'xshash narsalar va faoliyat turlari bilan ta'minlashlari uchun ularning o'ziga xos, boshqalardan ajralib turadigan rivojlanish ko'rsatkichlari to'g'risida to'liq tasavvurga ega bo'lishlari lozim. Shuningdek, tarbiyachilar bir xil yoshdagi bolalarning qobiliyatlari va qiziqishlaridagi farqlarga e'tibor bilan munosabatda bo'lishlari kerakligini mutaxassislar alohida ta'kidlashadi. Bunda bola rivojlanishining o'ziga xosligiga doir, bolalar qiziqishlariga javob beruvchi faoliyat turlari, ya'ni ularning aqliy, ijtimoiy va ma'naviy yetuklik darajasi nazarda tutiladi. Bunday faoliyat turlari bolalarning tabiatga qiziqishlariga, tajribadan qoniqish hosil qilishlariga va o'z g'oyalarini



tajribada sinab ko'rish xoxish-istaklariga qaratilgandir.

Faollik markazlaridagi ta'lim jarayonida bolalarning o'zlari tegishli rivojlanish markazini ixtiyoriy tanlay boshlaydilar. Bolalarni mustaqil guruhlarda ishlashi, individuallashtirishda tarbiyachi shunday faoliyat turlarini o'ylab topadiki, unda barchaga birdek ko'rsatma berilsada, biroq har bir bola undan kelib chiqqan holdaa o'zi mustaqil ravishda muvaffaqiyatga erishishiga imkon beriladi. Individuallashtirish darajasini optimallashtirish mumkin. Epchillik va topqirlik talab etiladigan faoliyat turini tanlagan va bolalarni diqqat bilan kuzatgan holda tarbiyachi zaruriyat tug'ilib qolsa topshiriq va materiallarni o'zgartirishi yoki moslashtirishi mumkin.

"Ilk qadam" o'quv dasturi asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida quyidagi rivojlanish markazlari faoliyati yuritilishi nazarda tutiladi: - Qurilish va konstruksiyalash markazi - Syujet-rolli o'yinlar va dramalashtirish markazi - Til va nutq - Ilm-fan va tabiat markazi - San'at markazi - Musiqa va ritmika markazi. Rivojlanish markazlari bolalarga o'zlarining shaxsiy ko'nikmalari va qiziqishlaridan kelib chiqqan holda ta'lim-tarbiya jarayonini mustaqil individuallashtirish imkoniyatini beradi. Tarbiyachi-pedagoglar rivojlanish markazlarida bolalarning yordamchilari rolini o'ynaydilar, mashg'ulotlar olib boriladigan joyda imkoniyatlar kengligini ta'min etadilar va har bir bola individual rivojlanishi darajasini egallay olgan xolda faoliyat turlarini rejalashtiradilar. Kun tartibi turli mashg'ulot turlarini o'zida qamrab olishi lozim: kichik guruhlarda birgalikda va tarbiyachi hamkorligida yakka tartibda (individual) yoki mustaqil (ular tomonidan tanlagan mashg'ulotlarga vaqt ajratish kerak, chunki bolalar ongli tanlab olishni o'rganadilar, o'z qiziqish va qobiliyatlarini amalga oshiradilar). Bolalarning o'z tanlovlarini amalga - oshirishi, muammolarni hal etishi, atrofdagi kishilar bilan birgalikda harakat qilishi, individual maqsad qo'yishi va unga erishishni bilishlari lozim. Faollik markazlarini tashkil etish va rahbarlik guruhlardagi markazlar shunday tarzda yaratilishi kerakki, u bolaga mustaqil tanlash imkonini bersin. Har bir guruhda 5 ta markazlar bo'lib, ularning har birida izlanish va o'yinlar uchun yetarli miqdordagi materiallar saqlanadi. Qurilish va konstruksiyalash markazida turli xil va shakldagi qurilish elementlari mavjud bo'lib, bolalar ulardan o'z fantaziyasiga tayangan xolda inshootlar bunyod etadilar: misol uchun ko'rgan tarixiy obidalari, uylar, garajlar, ferma va shu kabilar. Qurilish bilan mashg'ul bo'lgan bolalar bu yerda juda ko'p narsalarni o'zlashtirib oladilar. U bolalarning matematik qobiliyatlarini rivojlantirishga, ijtimoiy ko'nikmalarni egallashga yordamlashadi, muammolarni xal etish tajribasini beradi. Bu yerda, shuningdek, ijodiy yondashishni namoyon etish va bajariladigan ishga diqqatni jalb etishni o'rganish mumkin. [3-35].

Ushbu markazga tarbiyachilar va bolalar xoxish-istagiga ko'ra ko'plab turli narsalarni - o'yinchoq mashinalar, yuk mashinalari, samolyotlar, gazlama bo'laklarini



qo'shib qo'yish mumkin. Syujet-rolli o'yinlar va dramalashtirish markazida bolalarda haqiqiy hayotdan olingan kichik na'ia ko'rinishlarini o'ynashga xoxish-istak uyg'otish uchun albatta kerakli kiyimlar va boshqa narsalar bo'lishi zarur. Bular ularda atrofda nimalar sodir bo'layotganini anglash, ularni ajrata olish hamda hayotda o'z o'rinlarini tushunib yetishlariga yordam beradi. Til va nutq markazida kitoblar va eshitish hamda yozish uchun o'quv qurollari mavjud bo'ladi. Bu tinch burchak bo'lib, unda bolalar kitoblarni qarab chiqishlari, bir-birlariga o'qib berishlari mumkin. Shuningdek, bu yerda tarbiyachi yoki ko'ngilli yordamchi bolalarga kitobni ovoz chiqarib o'qib berishi mumkin. Unda bolalarga kitobchalarni o'z qo'llari bilan yasash, mavzu(syujet)larni o'ylab topish va ijro etish, hikoyalar eshitish taklif etiladi.

Ilm-fan va tabiat markazida boshqotirma va konstruktor kabi bolalar yig'ishi va bo'laklarga ajratishi mumkin bo'lgan narsalar bo'lishi lozim. Bu yerda, shuningdek, bolalarning bir xilda taqqoslashlari, turlicha tasniflashlari, sanashlari uchun yordam beradigan o'yinlar ham bo'lishi kerak. Ushbu markazda bolalarning tabiat hodisalari haqida bilib olgan tushunchalari va ko'chadan topilgan narsalar bilan mashg'ul bo'lishlari uchun foydalaniladi. San'at markazi bolalarning o'z ijodiy qobiliyatlarini sinovdan o'tkazish va amalga oshirishga rag'batlantiradi, ularga yangi materiallar bilan tanishishdan qoniqish olish imkoniyatlarini beradi, bolalarning sezish qobiliyatini boyitadi. Bu yerda bo'yoq, qog'oz, qaychi, bo'rchalar, qalamlar, gazlama bo'laklari va kesish hamda yelimlash uchun turli qiyqimlar mavjud. Shuningdek, tabiiy materiallar - yog'och, barg, qum-tuproqni ham qo'shib qo'yish foydadan xoli emas. Ushbu markazdagi mashg'ulotlar ijodiy qobiliyat, so'z orqali va so'zsiz muloqot, umumiy va nozik harakatlanish, aqliy qobiliyatni rivojlantirishga yo'naltirilgan. Pedagoglarning vazifasi - bolalarning muloqotga kirishishga bo'lgan qiziquvchanligini rag'batlantiruvchi muhitni yaratish va bolalarning o'zgaruvchan ehtiyojlariga qarab, o'z vaqtida kerakli sharoitlarni moslashtirgan xamda ularni kuzatishdan iborat. Individual yoki kichik guruhlar uchun topshiriqlar ota-onalar bilan suhbatlashgandan so'ng, qaysidir ko'nikmalarga alohida e'tibor berish uchun ishlab chiqiladi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. O'Q.Tolipov, M.Usmonboyeva. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari.-T.: "Fan" 2006 yil, 298 b.
2. R.J.Ishmuhammedov. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari.-T.: 2010 yil, 279 b.
3. "Ilk qadam" o'quv dasturi. -T.: 2018 yil, 68 b.



BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINI UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISH KOMPONENTLARI VA PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

M.J. SHODIYEVA,

*Qashqadaryo viloyat XTXQTMOHM
Maktabgacha, boshlang'ich
va maxsus ta'lim kafedrası mudiri, (PhD), dotsent*

Mazkur maqolada zamonaviy o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik faoliyati, kasbiy va metodik tayyorgarligining tarkibiy qismlarini aniqlash va tizimlashtirishga doir ilmiy tadqiqot natijalari tahlili keng yoritilgan. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish komponentlari va uni amalga oshirish amal (harakat)lari haqida batafsil ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinf o'qituvchilarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish komponentlari, shaxsiy, ijtimoiy, umumkasbiy, maxsus (kasbiy-metodik faoliyatli), introspeksiya (introspektivlik – ichki xususiyatlarni rivojlantirish, o'zini o'zi nazorat qilish, kuzatish va tahlil qilish).

В данной статье представлен анализ результатов исследования по выявлению и систематизации компонентов профессионально-методической подготовки, профессионально-методической подготовки современных педагогов. Подробно представлена информация о компонентах непрерывного профессионального развития учителей начальных классов и шагах, которые необходимо предпринять для их реализации.

Ключевые слова: компоненты непрерывного профессионального развития учителя начальных классов, личностный, социальный, общий, специальный (профессионально-методическая деятельность), самоанализ (интроспективный - развитие внутренних характеристик, самоконтроль, наблюдение и анализ).

This article provides an extensive analysis of the results of research on the identification and systematization of the components of professional and methodological training, professional and methodological training of modern teachers. Detailed information is provided on the components of continuous professional development of primary school teachers and the steps to be taken to implement them.

Key words: components of continuous professional development of primary school teachers, personal, social, general, special (professional-methodical activity), introspection (introspective - the development of internal characteristics, self-control, observation and analysis).

Jahonda yangi ijtimoiy voqelik sharoitida ta'lim mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy rivojlanishi uchun muhim manba bo'lib qolmoqda. Yangi davlat ta'lim standartlarini joriy etish, ta'lim mazmunini yangilash, shaxs, jamiyat va davlatning ta'limga bo'lgan ehtiyojini o'zgartirish jarayonida kattalarga ta'limi tizimi uchun ijtimoiy buyurtma shakllantirilib, u innovatsion kasbiy faoliyatga qodir, zarur metodik madaniyat darajasiga ega yangi avlodga ta'lim beruvchi o'qituvchilarga qo'yiladigan talablarda ifodalanadi.



O'rta maktab o'qituvchisining pedagogik faoliyatini tavsiflashda ko'pchilik olimlar N.V.Kuzmina va Z.F.Yesarova tadqiqotlariga tayanadilar [3; 7]. Ular tarbiyachi-pedagogning kasbiy tayyorgarligida quyidagi komponentlarni farqlaydilar:

1. Bilimdonlik (gnostik qobiliyatga egalik).
2. Konstruktivlik (loyihalay olish qobiliyatiga egalik).
3. Kommunikativlik.
4. Tashkilotchilik.

T.A.Kryuchkova bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy tayyorlash jarayonining motivatsion, informatsion, tashkiliy va uslubiy, baholovchi va samarali kabi tarkibiy qismlarini qayd etadi [6].

Xorijiy va mahalliy ilmiy tadqiqot natijalaridan ko'rinadiki, tadqiqot obyekti sifatida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy va metodik tayyorgarligini takomillashtirish, ularni kasbiy rivojlantirish bilan bog'liq masalalar ularni mutaxassis sifatida umumiy kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning tarkibiy qismlarini ishlab chiqish muammosi sifatida tadqiq etilgan. Biz tadqiqotimiz vazifalari va o'qituvchiga qo'yilayotgan zamonaviy talablardan kelib chiqib, umumiy o'rta ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan boshlang'ich sinf o'qituvchilarini uzluksiz kasbiy rivojlantirishning tarkibiy qismlarini ishlab chiqishda shaxsiy, ijtimoiy, umumkasbiy, maxsus (kasbiy-metodik faoliyatli), introspeksiya (introspektivlik - ichki xususiyatlarni rivojlantirish, o'zini o'zi nazorat qilish, kuzatish va tahlil qilish) kabi samarali komponentlarni ishlab chiqdik (1-jadval).

1-jadval

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini uzluksiz kasbiy rivojlantirishning tarkibiy qismlari

O'qituvchilarni kasbiy rivojlantirish komponentlari	Faoliyat tarkibi
Shaxsiy	O'z-o'zini anglash va rivojlantirish Kommunikativ va tashkiliy Hissiy-ixtiyoriy Ma'naviy va axloqiy
Ijtimoiy	Ijtimoiy kommunikativlik Ijtimoiy faollik
Umumkasbiy	Umumiy kasbiy kompetentlik O'qitish jarayonini tashkil etish va boshqarish
Maxsus (kasbiy-metodik faoliyatli)	Mustaqil ravishda kasbiy -pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlik Professional Kasbiy faoliyatni yuqori darajada tashkil etish (akme o'qituvchi) O'qitish va ta'lim samaradorligini monitoring qilish
Introspeksiya (introspektivlik – ichki xususiyatlarni rivojlantirish, o'zini o'zi nazorat qilish, kuzatish va tahlil qilish)	O'zini o'zi nazorat qilish Kuzatish, tahlil qilish va baholash



Shaxsiy sifatlarning shakllanishi – pedagogik faoliyat muvaffaqiyatining muhim omillaridan biri bo‘lib, ular maqsadga intiluvchanlik, qat’iyatlilik, tirishqoqlik, kuzatuvchanlik kabi sifatlardan tarkib topadi, unda ijtimoiy faollik, jamiyatda kechayotgan ijtimoiy jarayonlar hamda ta’lim muassasasi hayotida faol ishtirok etish, turli tashabbuslarni ilgari surish, ularni amalga oshirishda shaxsiy namuna ko‘rsatish, umummilliy moddiy va ma’naviy qadriyatlarni yanada boyitishga bevosita hissa qo‘yish layoqatiga egalik talab etiladi. Shunga ko‘ra o‘qituvchilarni kasbiy rivojlantirishning "shaxsiy" komponenti o‘z-o‘zini anglash va rivojlantirish, kommunikativ va tashkiliy, hissiy-ixtiyoriy, ma’naviy va axloqiy kabi faoliyat tarkiblari asosida quyidagi amal (harakat)larni o‘z ichiga oladi:

O‘z-o‘zini anglash va rivojlantirish: o‘zida kasbiy tajriba, malaka va mahoratni takomillashtirish yo‘lida aniq maqsad va puxta o‘ylangan vazifalar asosida mustaqil ravishda amaliy harakatlarni tashkil etish, doimiy ravishda kasbiy o‘sishga erishish va kasbiy malakasini oshirib borish, mustaqil ravishda kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, o‘z faoliyatini mustaqil rejalashtirish va nazorat qilish.

Kommunikativ va tashkiliy: yuqori darajadagi ochiqlik, faollik, mas’uliyat, tashabbuskorlik, burch hissi, intizom, kommunikativ va shaxsiy salohiyat.

Hissiy-ixtiyoriy: hissiy barqarorlik, yutuq motivatsiyasi, stress va mojarolarga toqat qilish, hamdardlik, bag‘rikenglik, maqsadga erishishda qat’iylilik, mustaqillik, mustahkam g‘oyaviy e‘tiqod. Ma’naviy va axloqiy: fuqarolik madaniyati, axloqiy madaniyat, axloqiy munosabatlar, kasbiy va shaxsiy qadriyatlarning uyg‘un tizimi.

Umumiy kasbiy kompetentlik: tafakkur madaniyatini bilish, maqsadlar qo‘yish va unga erishish yo‘llarini tanlash qobiliyati, ma’lumotlarni olish, saqlash, qayta ishlashning asosiy usullari va vositalaridan foydalanish, umumlashtirish, tahlil qilish, idrok qilishga tayyorligi, axborotni boshqarish vositasi sifatida kompyuter bilan ishlashga tayyorligi, ommaviy nutq, munozaralar va polemikalar ko‘nikmalaridan foydalanish qobiliyati, ta’limning zamonaviy modeli to‘g‘risida bilimlarga ega bo‘lish.

Shuningdek, umumiy kasbiy kompetensiyalarga ega bo‘lish:

– ijtimoiy va kasbiy muammolarni hal qilishda gumanitar, ijtimoiy va iqtisodiy fanlarning tizimli nazariy va amaliy bilimlaridan foydalanish qobiliyati;

– pedagogik muloqot madaniyati asoslarini o‘rganish;

– o‘z kasbiy faoliyati natijalari uchun javobgarlikni olish qobiliyati;

– professional va ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan matn va ma’lumotlarni tayyorlash hamda tahrirlash qobiliyati.

O‘qitish jarayonini tashkil etish va boshqarish: kasbiy faoliyat sohasi va uning mazmunidan, fan asoslaridan xabardorlik, ta’lim mazmuni va uning tamoyillarini, boshlang‘ich sinf yoshidagi bolalarning psixologik xususiyatlarini, dars va uning turlari, tashkil etish shakllari va metodikasini bilish, o‘quvchilarning bilish faoliyatini boshqara olish va baholash, o‘quvchilar va ularning ota-onalari bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlar mazmunini bilish, dars va darsdan tashqari



tarbiyaviy va rivojlantiruvchi ishlar mohiyatini bilish.

Maxsus (kasbiy-metodik faoliyatli) tayyorgarlik – mutaxassisning ta'lim mazmuni, o'quv jarayoni va uning mazmunini yorituvchi metodologiya, ta'lim shakllari, ilg'or metodlar, shuningdek, didaktik va texnik vositalardan maqsadga muvofiq, o'rinli foydalana olish borasidagi nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarga ega bo'lish, o'quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil qilish va boshqarish malakalariga egalik, shuningdek, o'qitish jarayonida modernizatsiyalangan davlat ta'lim standarti, Milliy o'quv dasturi va yangi avlod darsliklaridan samarali foydalanish, ta'lim jarayonining mohiyatini to'g'ri tushunish, o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini tashkil qilish hamda boshqarish, jamoada sog'lom psixologik muhit va samimiy, o'zaro yordam va qo'llab-quvvatlashga asoslangan shaxslararo munosabatlarni qaror toptira olish qobiliyatini namoyon bo'lishi bilan tavsiflanadi.

Maxsus (kasbiy-metodik faoliyatli) tayyorgarlik faoliyatning aniq turlarini mustaqil ravishda bajarishga tayyorlik, odatdagi kasbiy vazifalarni hal qilish va o'z ishing natijalarini baholash, mutaxassislik bo'yicha yangi bilim va ko'nikmalarni mustaqil ravishda egallash qobiliyatini bilan belgilanadi.

O'qituvchilarning o'qitish jarayonini tashkil qilishi yuqori pedagogik-psixologik tayyorgarlikka ega bo'lishi bilan belgilanadi. Kasbiy faoliyatni yuqori darajada tashkil etishga doir tayyorgarlik – bu mutaxassisning ta'lim-tarbiya jarayonining qonun-qoidalarini o'zlashtirishi, pedagogik-psixologik bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi, ta'lim oluvchi shaxsining yosh va individual xususiyatlarini bilishi hamda ularning psixologik holatini boshqara olish, ta'lim jarayoni, uning mazmuni, tamoyillari, ta'limni tashkil etishning shakl, metod va vositalari haqidagi dastlabki nazariy ma'lumotlarga egalik darajasidir. Shundan kelib chiqib, (akme o'qituvchi) kasbiy faoliyatni yuqori darajada tashkil etish uchun quyidagi amal (harakat)larni bajarish ko'zda tutiladi:

– ta'limiy muhit: ta'lim samaradorligini oshirish uchun bolalar hayotini oqilona tashkil etish, boshlang'ich maktabda o'quv jarayonini ergonomik jihatdan samarali tashkil etish, dars jarayonini loyihalash, darsning mazmunini ta'lim oluvchilarning ehtiyojlari va mehnat bozorining zamonaviy talablari asosida tanlash, o'qitishning shakl, metod va vositalarini darsning mazmuni va ta'lim oluvchilarning yosh va psixologik xususiyatlari asosida tanlash, pedagogik jarayonni metodik jihatdan oqilona tashkil etish, ta'lim yoki tarbiyaviy faoliyat shakllarini to'g'ri belgilash, metod va vositalarni maqsadga muvofiq tanlay olish, metodlarni samarali qo'llay olish, vositalarni muvaffaqiyatli qo'llash;

– ta'lim va tarbiya usullari: reproduktiv o'qitish usullaridan foydalangan holda o'quvchilarni shakllantirish, intizom, mehnatsevarlik, onglilik, aql-idrokni rivojlantirishga qaratilgan muammoli usullardan foydalanish, mustaqillikni rivojlantirishga, muammoli vaziyatlarni hal qilishga ijodiy yondoshishga, o'quvchilarni madaniyat va ta'lim munosabatlariga yo'naltirishga, bolaning shaxsini rivojlantirish va o'zini o'zi namoyon etishga yo'naltirish, o'quv jarayonini rag'batlantirish, ayniqsa zarur talablarni taqdim etish, rag'batlantirish, senzura



qilish, shaxsiy va jamoatchilik fikrini yaratish;

– o'qitish va o'rgatish shakllari: jamoaviy, kichik guruhlarda va individual o'qitish; odatiy bo'lmagan darslardan foydalanish orqali ta'limning ta'lim potensialini oshirishga imkon beradigan quyidagi o'qitish shakllaridan foydalanish: dars-aks ettirish, dars-ta'til, didaktik va estetik tomoshalar, so'rov bo'yicha darslar, dars-ekskursiyalar va hokazolar; kollektiv xarakterdagi faoliyat, ijtimoiy faoliyat, ijtimoiy foydali ish, individual tarbiyaviy ta'sir va boshqalardan foydalanish;

– texnologik: kasbiy-pedagogik bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni boyitadigan ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish; ilg'or texnologiya, metod hamda vositalardan xabardor bo'lish; kasbiy faoliyatiga fan-texnikaning so'nggi yangiliklarini samarali tadbqiq etish;

– ekstremal: favqulotda vaziyatlar (tabiiy ofatlar, texnologik jarayon ishdan chiqqan)da, pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish, to'g'ri harakatlanish malakasiga egalik.

Xulosa shuki, o'qituvchi ish faoliyatining natijaviyligi bevosita uning kasbiy tayyorgarlik darajasiga va o'z ustida ishlashiga bog'liqdir. Pedagoglar mehnat faoliyati davomida o'z ustida mustaqil ishlab, kasbiy layoqati uchun zarur bilim, ko'nikma va malakalarni qo'lga kiritadilar. Zero, ta'lim tizimidagi islohotlarning hozirgi bosqichidagi asosiy vazifalardan biri ham malaka oshirish tizimida o'qituvchilarning kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirish, shu asosda kasbiy rivojlantirish, uning metodik tizimini yaratishdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyot:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4884-son qarori.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 17 yanvardagi "Xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 25-sonli qarori.

3. Есарова 3.Ф. Особенности деятельности преподавателя высшей школы / 3.Ф. Есарова. Л.: ЛГУ, 1979. 112 с.

4. Karlibayeva G.YE. Bo'lajak fizika o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish: pedagogika fanlari doktori (DSc) diss. avtoreferati. – T.: 2018. -58 b.



UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA INTEGRATIV TA'LIMNI RIVOLANTIRISHGA QARATILGAN ISLOHOTLAR

R.Q.ASHURBAYEVA,

Buxoro davlat tibbiyot instituti assistenti

Ushbu maqolada jahon ta'lim tizimida samarali qo'llanilayotgan integrativ ta'lim va uning O'zbekistonda tadbiqiga qaratilgan islohotlar borasida qabul qilingan qonun va qarorlar haqidagi mulohazalar o'rin olgan.

Kalit so'zlar: integratsiya, ta'lim tizimi, qonunlar, qarorlar, PISA, STEAM, xalqaro baholash, maktab, integrative tamoyil.

В статье даются комментарии к законам и решениям по интегрированному образованию и реформам, направленным на его реализацию в Узбекистане, которые эффективно используются в мировой системе образования.

Ключевые слова: интеграция, система образования, законы, решения, PISA, STEAM, международная оценка, школа, интегративный принцип.

The article provides comments on the laws and decisions on integrated education and reforms aimed at its implementation in Uzbekistan, which are effectively used in the world education system.

Key words: integration, education system, laws, decisions, PISA, STEAM, international assessment, school the integrative principle.

Mustaqillikdan so'ng barcha jabhalarda bo'lgani kabi ta'lim sohasida ham katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. Jumladan, jahon ta'lim tizimida integrativ tamoyillar asosida tashkil qilinayotgan dars jarayonlari va baholash mezonlarining tadbiqiga qaratilayotgan qonunlar, qarorlar, islohotlar O'zbekiston ta'lim tizimida tub burilish bo'ldi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Hozirgacha ta'limni rivojlantirishga qaratilgan qonunlar va qarorlarda integrativlik o'rin olganki, ularning ayrimlari haqida to'xtalishni o'rinli deb topdik:

1.O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi kengashi O'zbekiston Respublikasining Qonuni "Ta'lim to'g'risida" Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 19-mayda qabul qilingan, Senat tomonidan 2020-yil 7-avgustda ma'qullangan. Kuchga kirgan sanasi: 24.09.2020 yil. Qabul qilingan mazkur qonun jahonning ilg'or davlatlari tomonidan ta'lim tizimiga integrativ yondashuvi va buyuk ajdodlar ta'limoti kabi aspektlarga e'tibor berilgan. Biz buni Qonunning 10-moddasida ko'ra olamiz:

"10-modda. Professional ta'lim

– Professional ta'lim egallanadigan kasb va mutaxassislik bo'yicha quyidagi darajalarni o'z ichiga oladi:

– boshlang'ich professional ta'lim;



- o‘rta professional ta’lim;
- o‘rta maxsus professional ta’lim.

Boshlang‘ich professional ta’lim kasb-hunar maktablarida IX sinf bitiruvchilari negizida bepul asosda kunduzgi ta’lim shakli bo‘yicha umumta’lim fanlarining va mutaxassislik fanlarining ikki yillik integratsiyalashgan dasturlari asosida amalga oshiriladi.

O‘rta professional ta’lim kollejlarda davlat buyurtmasi yoki to‘lov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi ikki yilgacha bo‘lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta’lim shakllari bo‘yicha umumiy o‘rta, o‘rta maxsus ta’lim hamda boshlang‘ich professional ta’lim negizida amalga oshiriladi.

O‘rta maxsus professional ta’lim texnikumlarda umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, boshlang‘ich professional va o‘rta professional ta’lim negizida davlat buyurtmasi yoki to‘lov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi kamida ikki yil bo‘lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta’lim shakllari bo‘yicha amalga oshiriladi.

Ushbu Qonun kuchga kirguniga qadar o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi (to‘qqiz yillik umumiy o‘rta va uch yillik o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi) olgan fuqarolar ham o‘rta professional va o‘rta maxsus professional ta’lim olish huquqiga ega.

Kasb-hunar maktablari, kollejlari va texnikumlar ta’lim oluvchilarning o‘zi tanlagan kasbga va mutaxassislikka ega bo‘lishini ta’minlaydi.

Fuqarolar shartnoma asosida ikkinchi va undan keyingi professional ta’limni olish huquqiga ega." Demak, rasmiy ravishda Qonun kuchga kirgan kundan boshlab, ta’lim tizimida integratsiyalashgan ta’limga e’tibor yanada kuchaydi [1].

INTEGRATIV ta’lim rad etib bo‘lmas ehtiyoj, Sharq va G‘arb ta’limotida aks etgan, jadidlar tomonidan yo‘lga qo‘yishga uringan, ta’lim jarayonida qo‘llash ijobiy natijalari berilishi isbotlanganligi, O‘zbekistonda ta’lim islohotlari uchun muhimligi borasida ko‘plab qadamlar tashlanganligini quyida yanada yorqinroq guvohi bo‘lamiz. Jumladan,

– O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim Vazirining Buyrug‘i "O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablarini tasdiqlash haqida" [2]. (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2018-yil 3-iyulda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 3032) Ushbu o‘quv dasturi eng yaxshi xalqaro amaliyot hamda Janubiy Koreya tajribasi asosida ishlab chiqilgan. Dasturda har bir bolaga individual yonadashish ko‘zda tutilgan bo‘lib, integrativ qarashlar o‘z aksini topganligi Dasturning quyidagi jumllarida ko‘ra olishimiz mumkin:

MTMdagi ta’lim jarayonini tashkil qilish tamoyillari:

- bola huquqlari, o‘ziga xos rivojlanish xususiyat va salohiyatlarini hisobga olish;
- ta’lim jarayonida barcha turdagi rivojlanish sohalarining o‘zaro bog‘liqligi;



- bola salomatligini asrash va mustahkamlash, uning ehtiyojlari, shu jumladan, uning harakatlanish ehtiyojlarini qondirish;
- bolaning ijodiy qobiliyatlarini qo‘llab-quvvatlash;
- o‘yin orqali ta‘lim berish va rivojlantirish;
- bolaning rivojlanishi va ijtimoiy moslashishi uchun qulay muhit yaratish;
- bola uchun xavfsiz muhitni ta‘minlash;
- MTMning oila, mahalla va maktab bilan hamkorligi;
- milliy madaniy an‘analar qadriyatini oshirish va boshqa millatlar madaniyatiga hurmat, boshqa millatlar madaniyatining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish;[3]"

Barcha jarayonlarda barcha turdagi rivojlanish sohalarining o‘zaro bog‘liqligi asosida, "Ilk qadam" o‘quv dasturining asosiy maqsadi hayoti davomida uzluksiz rivojlanishga qodir bo‘lgan shaxsni shakllantirishdan iborat. Tizimdagi yana bir qiziqarli yangiliklardan biri bu bolaning rivojlanish kartasi paydo bo‘lishidir. U o‘zida bolaning 3 yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan davrini qamrab oladi. Karta bir yilda uch marta to‘ldiriladi. Bola maktabgacha ta‘lim muassasasini bitirganidan so‘ng ya‘ni 6-7 yoshda bolaning maktabga tayyorligi kartasi ham to‘ldiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori "Prezident maktablari to‘g‘risida Nizomni tasdiqlash haqida"gi qaror 26.06.2019 sanada kuchga kirdi. Bu maktabning o‘ziga xosligi shundaki, xorijiy mutaxassislarning jalb etilganligi, ushbu Qarorning 2 bobida aniq ko‘rsatilgan quyidagi maqsad va vazifalarni o‘z ichiga qamrab oladi:

"8. Prezident maktablarini tashkil etishning maqsadi iqtidorli bolalarni aniqlash, ta‘lim jarayonida ilg‘or texnologiyalarni qo‘llagan holda ularni o‘qitish va tarbiyalash bo‘yicha yaxlit tizim yaratish, iste‘dodli yoshlarni yanada qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish, ma‘nan yetuk va intellektual jihatdan barkamol avlodni shakllantirishdan iborat."

"9. Quyidagilar Prezident maktablarining asosiy vazifalari hisoblanadi:

- iqtidorli bolalarni aniqlash, tanlash va o‘qitish, ularning har tomonlama rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, shuningdek, o‘quvchilarning intellektual, ilmiy va ijodiy salohiyatini ochib berish;

- tabiiy va aniq fanlarni chuqur o‘rganish, xorijiy tillar, muhandislik va axborot texnologiyalarini o‘zlashtirishni tashkil qilish, o‘quvchilarning innovatsion g‘oyalari va ishlanmalarini rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish;

- o‘quvchilarni o‘qitish va bilimini baholashning zamonaviy uslublarini, shuningdek, ta‘lim dasturlarining integratsiyalashuviga asoslangan o‘qitishning fanlararo yondashuvini joriy qilish va keyinchalik ijobiy tajribani xalq ta‘limi tizimiga tatbiq etish;

- o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish, ularda yetakchilik ko‘nikmalari va notiqlik san‘atini rivojlantirish, tanqidiy fikrlash, axborotni izlash, tahlil qilish



va qayta ishlash, olingan bilimlarni amaliyotda qo'llash malakasini oshirish;

– o'quvchilarning umumta'lim fanlari bo'yicha xalqaro olimpiadalar, tanlovlar va musobaqalarda munosib ishtirokini ta'minlash;

– o'quvchilarda vatanparvarlik va Vatanga muhabbat tuyg'usini, bag'rikenglik, qonunlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qilish munosabatini, hayotga qat'iy ishonch va qarashlarni shakllantirish;

– o'quv dasturlarining uzluksizligini ta'minlash masalalarida shu yo'nalishdagi milliy va xorijiy umumiy o'rta va oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish, bitiruvchilarning ilg'or xorijiy oliy ta'lim muassasalarida va ularning respublikamizdagi filiallarida o'qishini davom ettirish."

Bu maktabning yana o'ziga xosligi shundan iboratki, STEAM asosida iqtidorli o'quvchilarning tanlab olinishidir. STEAM atamasiga to'xtaladigan bo'lsak, internet resurslarida shunday ma'lumotlar berilgan: Agar ushbu qisqartmani yoysak, quyidagilarni olamiz: STEAM bu - S - science, T - technology, E - engineering, A - art va M - math. Ingliz tilida bu shunday bo'ladi: tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika. Ushbu yo'nalishlar zamonaviy dunyoda eng mashhur bo'lib kelmoqda. Shuning uchun bugungi kunda STEAM tizimi asosiy tendensiyalardan biri sifatida rivojlanmoqda. STEAM ta'limi yo'nalishi va amaliy yondashuvni qo'llash, shuningdek, barcha beshta sohani yagona ta'lim tizimiga integratsiyalashuviga asoslangan [3].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmonida 2030-yilga kelib PISA xalqaro dasturi reytingida jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakatlari qatoriga kirishiga erishish hamda xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish asosida o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo'naltirilgan ta'lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilangan.

– O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida". Ushbu qaror 10.12.2018 sanada kuchga kirib, ta'lim tizimida o'z tadbirini topishga urinishlar bo'lmoqda [5].

Qarorda xalqaro test tajribalari qo'llash haqida shunday fikrlar mavjud:

a) quyidagi xalqaro baholash dasturlari bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni (keyingi o'rinlarda xalqaro tadqiqotlar deb ataladi) tashkil etish:

Progress in International Reading and Literacy Study (PIRLS) - boshlang'ich 4-sinf o'quvchilarining matnini o'qish va tushunish darajasini baholash uchun;

Trends in International Mathematics and Science Study (TIMSS) - 4 va 8-sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan o'zlashtirish darajasini baholash uchun;



The Programme for International Student Assessment (PISA) – 15 yoshli o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash uchun;

The Teaching and Learning International Survey (TALIS) – rahbar va pedagog kadrlarning umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'qitish va ta'lim olish muhitini hamda o'qituvchilarning ish sharoitlarini o'rganish uchun [5]; Bu kabi testlar o'quvchilar intellektini o'stirishga xizmat qiladi. Birgina integrativlikka asoslangan "Pisa" testi haqida mulohaza yuritadigan bo'lsak, bu turdagi test fanlararo aloqadorlikda tashkil qilinganligi bilan alohida ahamiyatga ega. Bunda turli davlatlarda 15 yoshli o'quvchilarning savodxonligini (o'qish, matematika, tabiiy fanlar) hamda bilimlarni amaliyotda qo'llash qobiliyatini baholovchi dastur. "Pisa" da o'quvchilarning bilim sifati monitoring 5 ta yo'nalish bo'yicha aniqlanadi: o'qish savodxonligi, matematik savodxonlik, kompyuter savodxonligi, moliyaviy savodxonlik, tabiiy-ilmiy savodxonlik. O'zbekistonda 2021-yilda 3 ta (o'qish savodxonligi, matematik savodxonlik, tabiiy-ilmiy savodxonlik) yo'nalish bo'yicha ishtiroki etishi ko'zda tutilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://lex.uz/docs/-5013007> O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. Toshkent sh., 2020-yil 24-avgust. <https://lex.uz/docs/-5013007>
2. <https://lex.uz/docs/-3805404?otherlang=1> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING ILK VA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR RIVOJLANISHIGA QO'YILADIGAN DAVLAT TALABLARINI TASDIQLASH HAQIDA
3. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi https://hozir.org/pars_docs/refs/29/28397/28397.pdf
4. STEAM ta'lim tizimi nima? <https://www.integer.uz/steam>
5. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING QARORI Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida <https://lex.uz/docs/-4097073>
6. <https://fs.znanio.ru/d5af0e/47/dc/403170aa56524f59c6dc2e8b16aa29bdfc.jpg>



TA'LIM SIFATI MONITORINGNING TASHKILIY JARAYONLARI VA FUNKSIYALARI

A.D.ASKAROV,

Termiz davlat universiteti,
p.f.f.d (PhD), dotsent

Maqolada ta'lim tashkilotida ichki sifat monitoringining ahamiyati, bu borada olib borilgan tadqiqotlar va fundamental yondashuvlar tahlili keltirilgan. Shu bilan birga, har bir ta'lim tashkilotining individual xususiyatlari monitoringning sifati bilan bevosita bog'liq ekanligi oliy ta'lim muassasasi misolida ochib berilgan, monitoringning asosiy tamoyillari, tashkiliy jarayonlari va funksiyalari aniqlangan.

Tayanch so'zlar: ta'lim sifati, monitoring, baholash, korreksiyalash, modernizatsiyalash, boshqaruv.

The article presents the importance of internal quality monitoring in an educational organization, the analysis of research and fundamental approaches in this regard. At the same time, using the example of a higher educational institution, the fact was revealed that the individual characteristics of each educational organization are directly related to the quality of monitoring, the basic principles, organizational processes and monitoring functions were determined.

Key words: quality of education, monitoring, evaluation, correction, modernization, management.

Xalqaro miqyosda ta'lim jarayonlari samaradorligini oshirish, ilmiy-metodik faoliyat sifatini ta'minlashda ichki sifat monitoringidan foydalanishga alohida ahamiyat qaratiladi. Bunday monitoring orqali kadrlar va ta'lim buyurtmachilari hamda ta'lim tizimi boshqaruv organlarining talablari va ehtiyojlariga mos ravishda belgilangan funksiyalarni bajarishdagi holatlarni (masalan, yutuq va kamchiliklar, yuzaga kelgan muammolarni) tahlil qilish, xulosalash, barcha subyektlar faoliyatini bir yo'nalishda birlashtirish, umumiy natija uchun safarbar etish nazarda tutiladi.

Pedagogik kvalimetriya muammolariga bag'ishlangan va ta'lim sifatini baholashning turli tizimlari keltirilgan tadqiqotlarda asosiy e'tibor o'qitish tizimidagi zaif tomonlar va kamchiliklarni aniqlash, ularni bartaraf etish yo'llarini ko'rsatish, o'qish vaqti va resurslarini taqsimlash, malakali o'qituvchilar tarkibini kengaytirish, jihozlardan foydalanishni optimallashtirish va hokazolarga imkon beruvchi "ichki nazorat" usullarini ilmiy asoslash va ishlab chiqishga qaratilib, ma'lumotlarni prognozlash va kelgusi rivojlanishni belgilash uchun asos bo'ladigan ko'rsatkichlarni aniqlash ustuvor o'rin egallaydi.

Aksariyat olimlar ta'lim sifatini nazorat qilishda asosan bitiruvchilarning olgan baholarigagina emas, balki ularni kelgusida amaliyotda qo'llash qobiliyatlari orqali baholanishi hamda ta'lim oluvchining yangiliklarni qabul qilishga moyilligiga, o'zini



rivojlantirib borishga bo'lgan istagini ham inobatga olish lozim deb hisoblaydilar [1], [2], [3].

Amaliyotda bitiruvchilarning kasbiy kompetensiyalarini baholashning ko'plab yo'llari taklif etilgan, masalan [4], [5], [6]. Ushbu takliflarning ahamiyatli jihati shundaki, ularda olingan bilimlarning darajasi emas, balki bitiruvchining kompetensiyalari, masalan oliy ta'lim bitiruvchisining kasbiy vazifalarni bajarishga tayyorlik darajasini muntazam aniqlab borish maqsadida ta'lim sifati monitoringi tizimini yo'lga qo'yish taklif etiladi.

Mazkur tadqiqotlar orqali olingan xulosalarni uzluksiz ta'limning turli bosqichlariga tatbiq etish mumkin, umumiy holda ularning mazmuni va ilmiyligi barcha bosqichlar uchun ahamiyatli, biroq, olib borgan izlanishlarimiz har bir ta'lim tashkilotining, masalan oliy ta'lim muassasasining (OTM) alohida xususiyatlari monitoring sifatiga bevosita aloqador ekanligini ko'rsatdi. Masalan, OTM sifat monitoringi subyektlar uchun tashkiliy-pedagogik bosqichlarda yangi qarorlar qabul qilish masalalari yuzasidan maslahat va tavsiyalar berish hamda ularni amalga oshirishda ko'maklashishni nazarda tutuvchi faoliyat hisoblanadi.

Bunda OTMning asosiy vazifasi talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash bo'yicha ilmiy-texnikaviy va tashkiliy-ijtimoiy innovatsiyalarning xususiyatlaridan kelib chiqib, yuzaga kelgan yoki kelishi mumkin bo'lgan muammolarni bartaraf etishdagi mavjud tartib, me'yoriy va tahlillarga asoslangan harakat amalga oshiriladi. Bunday harakat tizimni korreksiyalash, modernizatsiyalash yoki yangilash muammosini hal qilishga qaratilgan faoliyatlar majmuidan iborat.

Korreksiyalash jarayonida asosiy e'tibor ichki va tashqi omillarga qaratilib, holat va vaziyatlar, jarayonlarga oid ma'lumotlar tahlil qilinadi, xatoliklar tuzatiladi. Uncha katta ish hajmiga ega bo'lmagan ushbu turdagi monitoring tinglovchilarning faoliyatlariga oid mavjud qulaylik va imkoniyatlarni oshirish, buyurtmachilarning ta'sir doirasini kuchaytirish, mavjud o'quv-me'yoriy bazada, texnik va dasturiy ta'minotda kuzatilgan kamchiliklarni bartaraf etish orqali OTM o'quv jarayonining kelgusi muvaffaqiyati uchun xizmat qiladi.

Modernizatsiyalash muammosiga qaratilgan monitoring tegishli ma'lumotlar asosida mavjud holatlardagi kamchiliklarni bartaraf etish bilan birga jarayonni zamonaviylashtirish nuqtai nazaridan olib boriladi. Bunday muammoni o'rganish orqali OTM o'quv jarayonidagi tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarni yaxshilash, uning ilmiy-metodik va tashkiliy-metodik asoslari, namunaviy o'quv reja, dastur, o'quv-metodik va normativ hujjatlarni takomillashtirish, talab va ehtiyoj asosida tegishli o'quv materiallarini ishlab chiqilishini tashkil qilish, tajribadan o'tkazish va joriy etish kabi yo'nalishlardagi faoliyatlarni takomillashtirish orqali ta'lim natijalari sifatini oshirish choralari belgilanadi va ta'minlanadi.

Muammo yangilash maqsadini o'z ichiga olgan bo'lsa, mavjud ichki va tashqi axborotlar tahlili asosida tasavvur va ijodiy fikrlarga tayanib tizimni qayta qurish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Bunday maqsadni ro'yobga chiqarish chuqur ilmiy yondashuvlar, OTM o'quv jarayoni bo'yicha xalqaro tajribalar hamda ta'limning milliy modeli talablaridan kelib chiqib olib boriladi.



Ko'rinib turibdiki, OTM monitoringida amaldagi va istiqboldagi talablarni belgilashdan uni rivojlantiruvchi modellarni ishlab chiqishgacha bo'lgan maqsadlarga determinlashuv (sababli bog'lanish) aks etadi. Bundan esa OTM monitoringini o'zgaruvchan sharoitga tez moslashuvchan, dinamik xususiyatli va doimiy takomillashib boruvchi faollikka ega bo'lgan harakatni yuzaga keltiruvchi kuch ekanligi ko'rinadi hamda u muassasaning strategik boshqaruvi samaradorligini oshiradi.

Monitoring tizimining maqsadi OTMning barcha faoliyati natijalari, talabalarni tegishli mutaxassislik bo'yicha malaka talablariga muvofiq tayyorlanish jarayonlari holatini aniqlash hamda sifat menejmentini yanada takomillashtirish va rivojlantirish bo'yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun dastlabki axborot tayyorlashdan iborat bo'lib, barcha tashkiliy-pedagogik bosqichlar, mutaxassisliklar va ta'lim shakllari bo'yicha talabalarni tayyorlash jarayoni va natijalarni o'rganish va baholashga qaratilgan ichki xarakterdagi chora-tadbirlar va protseduralar to'plami hisoblanadi.

Amalga oshirish shakliga ko'ra bu nazorat turlari rejali tarzda bosqichma-bosqich yoki tezkor holda tashkil etilishi mumkin.

OTM monitoringi jarayonlari quyidagi asosiy tamoyillarga asoslanishi maqsadga muvofiq:

- To'liqlilik: barcha faoliyat va jarayonlar samaradorligini va sifatini nazorat qilish;
- Rejalilik: nazoratlarni avvaldan ishlab chiqilgan reja asosida, OTM tuzilmalari va bo'linmalari bilan kelishilgan holda amalga oshirish;
- Xolislik: rahbariyat, xodimlar, professor-o'qituvchilarning monitoring natijalariga sub'ektiv ta'sirini kamaytirish, "inson omili"ga yo'l qo'ymaslik;
- Differensiallik: nazorat doirasi va ko'lamining o'quv jarayoni maqsadlaridan kelib chiqib, tuzilmalar, xodimlar, professor-o'qituvchilar va talabalarning individual, guruhli va kasbiy xususiyatlariga muvofiqligini ta'minlash;
- Uyg'unlilik: monitoring yo'nalishlarining bir birini to'ldirishi, OTMdagi barcha tuzilmalari va sub'ektlari darajasida ko'rsatkichlarning o'zaro bog'liqligiga erishish;
- texnologik: nazoratga olingan jarayonning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda natijalarni aniqlash va tegishli xulosalar olishda axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan samarali foydalanish.

Baholash natijalari ishonchli axborot manbalaridan olingan ma'lumotlar asosida hisoblangan o'lchovli qiymatlarda bo'lib, har bir indikatorni nomlash, o'lchov birliklari, me'yoriy qiymatlari, o'zaro taqqoslanadigan va bir biri bilan bog'liq indikatorlarni aniqlash, ma'lumotlar manbalarini belgilash, hisoblash formulalari yoki algoritmlarini ko'rsatish maqsadga muvofiqdir. Baholash ko'rsatkichining me'yoriy qiymatlari sifat maqsadlariga va jarayonning oldingi davrlar uchun xususiyatlariga oid statistik ma'lumotlarga qarab belgilanadi.

Bundan tashqari, monitoringning tashqi obyekti sifatida kadrlar buyurtmachilari, mahalliy boshqaruv idoralari, keng jamoatchilik va ota-onalar, boshqa ta'lim muassalarining OTM faoliyat yo'nalishlariga oid fikrlari o'rganilib, tashqi e'tirof darajasi aniqlanadi.



OTM monitoringi tizimida talabalarning kasbiy tayyorgarligini darajasi va ularning bu boradagi munosabatlarini o'rganish bilan birga, talabalar nazorat tuzilmasini joriy etilishi yuqori ahamiyat kasb etadi deb hisoblaymiz. Buning uchun OTMning ta'lim sifati bo'yicha talabalar komissiyasi faoliyati nazarda tutiladi. Mazkur komissiyaning asosiy maqsadi OTMda ta'lim sifati oshirishga ko'maklashish, talabalarning sifatli ta'lim olish huquqlarini ro'yobga chiqarish, o'quv jarayonini boshqarishda ishtirok etish orqali OTMga malakali mutaxassislarni tayyorlashda yordam berish hisoblanadi.

Komissiya tomonidan yoshlarning o'zini-o'zi boshqarishni rivojlantirish, talabalarning ta'lim sifati baholash va yaxshilashda ishtirok etish, yoshlarning fuqarolik tashabbuslari va ijtimoiy loyihalarini amalga oshirish bilan bog'liq masalalar bo'yicha OTMning tarkibiy bo'linmalari, boshqa muassasalar, tashkilotlar va idoralar bilan turli shakllarda o'zaro hamkorlik ishlari amalga oshiriladi.

OTM monitoringining yuqoridagi har ikki tuzilmasi orqali olingan natijalar ichki paralel tuzilmalar (fakultet, kafedra, bo'lim, professor-o'qituvchi, talaba kesimida), mahalliy va xorijiy OTMlarning eng yaxshi yutuqlari bilan taqqoslanib, o'quv jarayonining holati va tendensiyalari baholanadi, faoliyat hamda talabalarni tayyorlash sifatining strategik maqsadlardan og'ishlar aniqlanadi, ularning sabablari tahlil qilinadi. Tahlilning samaradorligini OTMning maqsadlari, tashkiliy-pedagogik bosqichlari, bo'linmalar faoliyati, rag'batlantirish kabi tizimlar bilan bog'lash muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Садков В.Г., Овчинникова О.П. Система оценки качества высшего образования в регионе //Мониторинг качества образования: направления и опыт / Материалы IX Симпозиума "Квалиметрия человека и образования: методология и практика". Книга 4. - Москва: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2000. - 121 с.
2. Покасов В.Ф. Управление качеством образования современной школы: методические рекомендации. Покасов В.Ф., к.и.н. - Ставрополь: СКIRO ПК и ППРО. - 2012. - 145 с.
3. Валеева Р.Р., Шагвалиев Т.Р., Садыков А.Р. Оценка и формы проверки знаний студентов // Научно-методический электронный журнал "Концепт". - 2016. - Т. 11. - С. 3626-3630.
4. Захаров В. А., Захарова Л. П. Анализ качества контроля и оценки знаний студентов // Альманах современной науки и образования. Тамбов: Грамота, 2007. № 4 (4). С. 78-82.
5. Ершова О.В., Мишурина О.А. Рейтинговая оценка знаний студентов технического университета как средство повышения качества профессиональной подготовки // Вектор науки Тольяттинского государственного университета. - 2014. - № 3 (18). - С. 149-151.
6. Складова Е.Е. Рейтинговая система оценки качества освоения студентами экономических дисциплин // Среднее профессиональное образование. - 2014. - № 10. - С. 36-43.



CHANG CHOLG'USIDA IJROCHILIK USHLUBLARINI BOSQICHMA-BOSQICH O'ZLASHTIRISH

A. MAMADALIYEV,

*O'zbekiston davlat konservatoriyasi
"Xalq cholg'ularida ijrochilik" kafedrasi dotsenti*

*"Odamlarimiz islohatlar samarasini kelajakda
emas, balki bugun o'z hayotida his etishlari zarur".*

Shavkat Mirziyoyev

O'zbek milliy cholg'u sozlari bugungi ijrochilik san'atida har biri o'z o'rniga ega. Jumladan chang cholg'usi sozlarning malikasi hisoblanib, undagi jarangdor ovoz eshitgan ko'ngillarga zavq-shavq bag'ishlaydi. Bizga ma'lumki musiqa ta'limini olish uch bosqichdan iborat, Bolalar musiqa va san'at maktablari, o'rta maxsus kollej va litseylar hamda oliy ta'lim muassasalari. Shundan kelib chiqib, mazkur maqolada cholg'u ijrochiligini uch bosqichda o'zlashtirish haqida fikr yuritamiz.

Kalit so'z(lari): musiqa, san'at, ijrochilik, mahorat, cholg'u, madaniyat, sozanda, ijod, bastakor, meros.

Узбекские национальные музыкальные инструменты занимают свое место в современном исполнительском искусстве. В частности, чанг считается королевой всех музыкальных инструментов и его исполнение доставляет удовольствие слушателям. Как мы знаем, получение музыкального образования состоит из трех этапов: детские музыкальные и художественные школы, средние специальные колледжи и лицеи, а также высшие учебные заведения. Исходя из этого, в данной статье мы расскажем об освоении инструментального исполнительства в три этапа.

Ключевые слова: музыка, искусство, исполнительство, мастерство, инструмент, культура, исполнитель, творчество, композитор, наследие.

Uzbek national musical instruments take their place in the modern performing arts. In particular, chang is considered the "queen" of all musical instruments and its performance gives pleasure to the audience. As we know, musical education consists of three stages: children's music and art schools, secondary specialized colleges and lyceums, as well as higher educational institutions. Based on this, in this article we will talk about the development of instrumental performance in three stages.

Key words: music, art, performance, skill, musical instrument, culture, instrumentalist, creativity, composer, legacy.

Milliy musiqa ijrochiligimiz tarixi uzoq o'tmishga borib taqaladi. Arxeologik qazilmalardan topilgan yodgorliklarda ta'riflangan qo'lida arfa (chang) ushlagan mashshoqlar musiqa san'atimizning qadimiyligidan dalolat beradi. Inson uning har tomonlama uyg'un kamol topishi va farovonligi, shaxs manfaatlarini ro'yobga chiqarish sharoitlari va ta'sirchan mexanizmlarini yaratish, eskirgan tafakkur va



ijtimoiy xulq-atvorning andozalarini o'zgartirish Respublikada amalga oshirilayotgan islohatlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchdir. Xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O'zbekiston taraqqiyotining muhim sharti hisoblanadi. Hozirgi madaniyatimizning muhim omillaridan biri musiqa merosini o'zlashtirish, bastakorlarning xalq cholg'ulari uchun yaratgan zamonaviy asarlarini va ularning rivojlanish istiqbolini chuqur tushunishdan iboratdir.

O'quvchilar Bolalar musiqa va san'at maktablarida ijrochilik mutaxassisligini o'zlashtirish uchun turli cholg'ularda ijro etish istagida tahsil oladilar. Bunda chang cholg'usida ijro etishni o'rganuvchilar soni talaygina. Ustoz-o'qituvchilar o'quvchilarni shu sohaga qiziqтира olsalar, ular o'qishlarini o'rta maxsus o'quv dargohlarida davom ettira boshlaydilar. Bunday yondashuv musiqiy ta'limning uzviyligi, uzluksizligini belgilaydi. O'qituvchi-ustozlar zimmasiga quyidagi vazifalar qo'yiladi:

O'zbek mumtoz va zamonaviy shuningdek, jahon mumtoz musiqasi namunalardan bolalarni bahramand qilish;

Marsh, qo'shiq, raqs janridagi asarlarni mustaqil farqlay olish;

Asarda berilgan obraz, musiqiy-intonatsion rivojlanishni tahlil eta olishga o'rgatish;

Dutor, rubob, qonun, tanbur, chang, doyra kabi cholg'ular ijrosida kuylarni tinglash va ovozidan farqlashga o'rgatish;

O'quvchilarni jonli ijro bilan bir qatorda audio va video tasmlarda yozilgan kuy va qo'shiqlar, diafilm, she'riyat namunalari, badiiy so'zdan bahramand qilish;

O'quvchilarning yoshiga mos va ularga tushunarli mazmundagi opera va balet asarlari, xalq cholg'ulari orkestri va ansambli ishtirokidagi konsertlar, san'at muzeylariga olib borish.

Chang cholg'usi o'zbek xalqining juda qadimdan ijro etib kelinayotgan milliy cholg'ulardan biri hisoblanadi. Ma'lumotlarga qaraganda dastlabki musiqa cholg'ulari eramizdan avvalgi XIII ming yillikda dunyoga kelgan, deb taxmin qilinadi.

Sharq olimlarining nazariy qarashlari mavjud ijrochilik san'ati tajribasi asosida shakllangan bo'lib, ular o'z risolalarida musiqaning jamiyatda tutgan o'rni va ahamiyati haqida atroflicha ma'lumotlar berganlar. Jumladan: Darvish Ali Changiyning (XVII asr) musiqa san'atiga bag'ishlangan risolasida Chang sozlarning kelinchagi bo'lgan sozdir. To'rtinchi osmonda Zuhra nomli yulduz bor bo'lib, uning ishqida kuylaydi. Ba'zilar aytishiga qaraganda, o'sha yulduzning surati changning suratiga, uning tartibiga o'xshash ekan. Uni hakimlar Jamshid zamonida uning zerikishini yo'qotish maqsadida yaratilgan.[1,27 b]



XX asrning boshlarida Xorazmda mashhur xalq sozandasi, bastakor Matyusuf Xarratov changni takomillashtirish ustida ishladi. O'sha paytda mavjud chang kichik diapazon va diatonik tovush qatoriga ega bo'lib, unda kompozitorlik ijodiga mansub asarlarni ijro etish imkoni ancha mushkul edi. Izlanishlar natijasida M.Xarratov sozandalar Faxriddin Sodiqov, o'z o'g'li Fozil Xarratov va Axmad Odilovlar bilan hamkorlikda changni yuqori registrini qo'shimcha torlar va xarraklar hisobiga kengaytirdi. Ushbu o'zgarishlarni sozandalar ma'qullashdi. Cholg'uga kiritilgan yana bir yangilik, cholg'u bir oktava yuqori sozlashga moslashtirildi. Bu esa bir muncha changning ixchamlashuviga sabab bo'ldi. Chang cholg'usining yangi nusxalarini yaratish San'atshunoslik instituti tasarrufidagi musiqa ustaxonasining ustalari usta Usmon Zufarov, Z.Zokirov, Ye.Didenkolarning zimmasiga yuklandi. [2, 9 b.]

Mazkur maqolada aynan chang cholg'usida ijro etish paytida qo'llaniladigan uslublar masalasi bo'yicha to'xtalmoqchimiz. Har bir o'qituvchi turli xil janrdagi musiqa asarlarini o'rgatishda chang chalish imkoniyatiga ko'ra eng qulay qo'l tashlash yo'llarini ko'rsatadi, tekis sanashni, ayrim murakkab ritmik holatlar, musiqiy bezak belgilarni to'g'ri ijro etish, dinamik ishoralarga rioya qilgan holda badiiy qiymatini saqlash, umuman olganda, o'quvchining diqqat – e'tiborini ushbu uslub talablariga muvofiq berilgan o'quv repertuarlarini ongli ravishda chuqur o'zlashtirishga qaratadi. O'quvchilar bilan mashg'ulot paytida ijro etilayotgan asarning badiiy obrazini to'g'ri aniqlash, ma'no mazmunini to'g'ri ifoda qilish talab etiladi. O'qituvchi changda yaxshi, yoqimli shirador tovush chiqarishni talab qilish bilan birga, o'tkir sezgirlik, yuqori mahorat va ishtiyoq bilan ijro etish borasida o'z bilimi, ijrochilik tajribasini ayamasdan astoydil o'rgatadi. Mashg'ulot o'tkazish jarayonida changda ijro etish yo'llari, asarning mazmunini tushuntirish, turli ko'rsatmalarni og'zaki so'z bilan bir qatorda, o'zi ham yonma-yon o'tirib, tiniq sozlangan changda ijro yo'li bilan ko'rsatib berish uslubi o'quvchilar tomonidan tez o'zlashtirishga yordam beradi. Buning natijasida o'qituvchilar ham o'zlarining ijodiy faoliyatlariga yuqori mas'uliyat bilan qarashlarini namoyon etadilar. Bu esa, o'z navbatida shogirdlarni sozda ijro etishga bo'lgan qiziqishlarini yanada orttiradi, murabbiy va o'quvchi o'rtasida bir-birini to'g'ri tushungan holda mashg'ulot qiziqarli, mazmunli bo'lishiga xizmat qiladi.

Ayniqsa dastlabki darsdan boshlab ijrochi-o'quvchini erkin o'tirishiga, chang cho'plarini to'g'ri va tekis ushlashga, qo'l va bilaklar qotmagan holda cho'p tashlashga, chuqur va zarbli tovush chiqarishga ahamiyat qaratish lozim.

Changning balandligi – pianino singari, qo'l tirsaklaridan baland bo'lmashligi lozim. Chang cho'plarining og'irligi, uzunligi, rezina o'rnatilishi qulay va bir xil



bo'lishi talab qilinadi. Chang simlariga cho'p tashlaganda dona-dona, tiniq sakratma zarbli tovushlar chiqishi kerak.

Buning uchun albatta chang cho'plari g'arq pishgan bambukdan (g'arovdan) yasalgan bo'lib, cho'pning dumaloq uchlariga yumshoq rezina trubkasi yoki qattiq fils o'ratilishi lozim.

Chang cholg'usida tovush chiqarish yo'llariga to'xtalamiz:

1. Urma zarb - bu belgi boshqa har-xil tovush chiqarish yo'llaridan keyin ishlatiladi.

2. Cho'p chertmak – (pissikato kol legno) – cho'pning orqa yassi qismi bilan torlarni chertish.

3. Taqillatish – (kol legno) – cho'pning orqa yassi qismi bilan torlarni urib taqillatish.

4. Sakratma zarb - chang torlariga cho'plarni zarbona kaltagina uzib, sakratib ijro etish.

5. Bo'g'ma stakkatto – (surdinkali stakkatto) – cho'pni zarbona tashlangandan so'ng jaranglab turgan chang torlarini ikkinchi bo'sh qo'lning o'rta barmog'i bilan tezda bosib so'ndirish.

6. Tebratma – (vibratsiya) – cho'p chertmakdan so'ng jaranglab turgan torlarning xarrak ustidan o'tgan qismini bo'sh qo'lning o'rta barmog'i bilan bosib, nota uzunligiga qarab davomli tebrantirish.

7. Cho'p sirg'antirish (glissando kol legno) – cho'pning past yalang qismi bilan torlardan-torlarga, yuqori yoki pastga chizib sirg'antirish.

8. Dona zarb – (detashe) – torlarga birin-ketin dona-dona tashlash.

9. Rez – (tremolo) – cho'p zarblarini birin - ketin maydalab uzluksiz almashinib tez ijro etish.

10. Bog'lama – (legato) – tovushlarni muloyim holatda torlardan torlarga uzluksiz tekis o'tishi.

11. Cho'p – (tremolo). Cho'plarning pastki yalang qismi bilan birin - ketin tez maydalab uzluksiz ijro etish. [3, 42 b.]

Changni tiniq sozlash va unda ijro etish, shuningdek, o'quvchining absolyut eshitish qobiliyatini kun sayin o'sishiga, barcha intervallarni, ya'ni - tovush oraliqlarini toza aniqlash qobiliyatini o'stirishga alohida ahamiyat bermoq lozim. Ijrochilik uslublari musiqa cholg'ulardagi muhim ijrochilik vositasi bo'lib, ular ikki tomonlama bajariladi. Agar birinchi holda tovush chiqarish uslublari, deb atasak, ikkinchi holda ta'sirchan vosita, deb hisoblaymiz. Bizga ma'lumki, yuqorida aytganimizdek, musiqa sohasi uch bosqichdan iborat, boshlang'ich ta'lim beruvchi - Bolalar musiqa va san'at maktablari, o'rta maxsus ta'lim maskani hisoblangan san'at kollejlari hamda akademik litseylar, yuqori ta'lim dargohi bo'lgan musiqiy Oliy o'quv yurtlaridir. Shu o'rinda yutuqlar bilan birga ayrim muammolar haqida fikr



yuritsak. Ulardan birinchisi: Bolalar musiqa va san'at maktablari, san'at kolleji hamda akademik litseylarning "Xalq cholg'ulari" bo'limlarida nota bilan o'qitish, solfedjio musiqa nazariyasini yaxshi o'zlashtirmaganliklari natijasida o'quvchilar Oliy ta'lim tizimida o'qishni davom ettirish jarayonida katta qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar. Zikr etilgan o'quv yurtlarda barcha milliy cholg'ular bo'yicha yetarli miqdorda darsliklar, o'quv qo'llanmalar bo'lsada, musiqa asarlarini "tinglash" hamda "eshitish" qobiliyatlarini orqali o'rgatish masalasi ham dolzarb muammolar qatorida o'rin olgan.

Musiqiy asarlarni birinchi mashg'ulotlardan boshlab, matnni to'g'ri sanab o'rgatishni yaxshi yo'lga qo'yish lozim. Sanoq, zarb (shtrix), sur'at (temp), dinamika va applikatura qoidalarini jiddiy mas'uliyat bilan o'rgangan o'qituvchi-ustozning shogirdi kelgusida hech qiynalmay o'z sohasini eplab ketadi.

Muhim vazifalardan:

- a) musiqaviy ta'lim va madaniyatni o'quvchilarga singdirish;
- b) sohada faoliyat ko'rsatuvchi pedagoglarimiz va mutaxassislarimizni kasbiy mahorati va tayyorgarligini oshirish;
- v) akademik ijro o'quv jarayonini uslubiy jihatdan boyitish va repertuar masalalarida yo'l qo'yilayotgan xato va kamchiliklar natijasida vujudga kelayotgan muammolarni zudlik bilan bartaraf etish lozimdir.

Takliflar:

- xalq cholg'ulari ijrochiligini joylarda targ'ibot qilish, umumta'lim maktablari "Musiqa madaniyati" darslari doirasida eksperimental kurslar tashqil qilish;
- malakali pedagoglarning ish uslublarini jamlash, ularni targ'ib qilish maqsadida nashr etish uchun yengilliklar yaratish;
- uslubiy tarqoqlikni kamaytirish choralari ko'rish;
- ijrochi va pedagoglarni birlashtiruvchi uyushmalar tuzish;
- maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat olib borayotgan musiqa rahbarlaridan boshlab, keyingi bosqich o'quv dargohlari musiqa mashg'ulotlari samarasi, yutuq, kamchiliklarini tahlil qilish bo'yicha ilmiy izlanish olib borish ham muhim ahamiyat kasb etishini nazarda tutish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Darvish Ali Changiy. 449-qo'l yozma, 126 bet. B.Ashurov Tarjiması.
2. Lutfullaev A. "Changchilar ansambli", A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. Toshkent: 2003 y. 120 bet.
3. Petrosyans A, Odilov A. "Chang darsligi" - T.:O'qituvchi. 1976 y. 145 bet.
4. "Xalq cholg'ulari ijrochiligining zamonaviy omillari" mavzuidagi Ruspublika ilmiy-nazariy konferensiyasining maqolalar to'plami. Toshkent: "Musiqa".2015 y. 438 bet.



SPORT MAKTAB O'QUVCHILARI VA OLIY TA'LIM TALABALARI FUTBOL O'YINIDA HARAKATLANISH TEXNIKASINI VA JISMONIY HOLATINI MONITORING QILISH METODIKASI

SH.U.USMONKULOV,
O'zDJTSU tayanch doktoranti

Ushbu maqolada futbol yuz minglab bolalar, yoshlar, kattalar futbol o'ynashadi. O'quv jarayonini boshqarish keyingi bosqichlarda mashg'ulotlarni futbolchilarning individual xususiyatlariga mos ravishda tashkil etish uchun o'yinchilarning maxsus tayyorgarligining turli jihatlarini o'rganishni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: futbol, sport zaxirasi tizimi, jismoniy rivojlanish, moslashuvchanlik, kuch bilan mashq qilish, funksional darajasi.

In this article, football is played by hundreds of thousands of children, youth and adults. The management of the training process involves the study of various aspects of the special training of the players in order to organize the training in accordance with the individual characteristics of the players in the later stages.

Key words: football, sports reserve system, physical development, flexibility, strength training, functional level.

В этой статье в футбол играют сотни тысяч детей, молодежи и взрослых. Управление тренировочным процессом предполагает изучение различных аспектов специальной подготовки игроков с целью организации тренировок в соответствии с индивидуальными особенностями игроков на более поздних этапах.

Ключевые слова: футбол, система спортивного резерва, физическое развитие, гибкость, силовая подготовка, функциональный уровень.

Ushbu tadqiqot bosqichma-bosqich, joriy va tezkor boshqarish vositalari va usullaridan foydalangan holda murabbiyga kelgan futbolchilarning texnik va taktik tayyorgarligi to'g'risida keng qamrovli ma'lumotlar tegishli boshqaruv maqsadlari uchun murabbiylarning pedagogik mahoratlarini aks ettirilgan [1; 15-b].

O'yinchilarning maxsus tayyorgarligini ba'zi tarkibiy qismlarini rivojlanishiga yo'naltirilgan maxsus mashqlarning keng qamrovidan to'g'ri foydalanish qobiliyatini anglatadi. Turli xil mashqlar va ularni amalda bajarish usullarini o'quv jarayonining turli tarkibiy tuzilmalarida futbolchilarni tayyorlashning aniq maqsad va vazifalariga muvofiq oqilona birlashtirish tadqiqoti olib borilgan [2; 219-b].

Sport maktabi o'quvchilari uchun futbol o'yinida tajovuzkor tabiati shubhasiz ustunlikni beradi, ammo teng sharoitlarda g'alaba manevra san'atini yaxshi o'zlashtirgan, texnik va jismoniy jihatdan yaxshiroq tayyorlangan jamoa tomonidan qo'lga kiritiladi. Futbolchilar g'ayratli va g'ayratli bo'lishlari kerak. Ular 90 daqiqa davomida harakat qilishlari kerak, manevr, har doim juda faol bo'lishlari kerak.

O'rganilayotgan masalaning dolzarbligi tanlovida o'qish uchun quyidagi vazifalar qo'yildi:



1. O'yin texnikasi tasnifini o'rganish.
2. O'qitish metodikasi va individual o'yin texnikasi ketma-ketligini tahlil qilish.
3. Maydon o'yinchisi va darvozaboni o'ynash uslubini tavsiflash.
4. Himoyadagi o'yin taktikasini, hujumdagi o'yin taktikasini ko'rib chiqing.

Futbol dunyoning aksariyat mamlakatlarida eng mashhur va sevimli o'yin. Yuz minglab bolalar, yoshlar, kattalar futbol o'ynashadi, millionlar o'yinni televizordan tomosha qilishadi. Ko'p sonli maqolalar, musobaqalar haqida xabarlar futbol muxlislarini holati, rivojlanishi, o'yinning istiqbollari, muammoli masalalar va boshqalar to'g'risida xabardor qiladi. Yuqori malakali futbolchilarni tayyorlash murabbiylardan ko'p bilim va yuqori pedagogik mahorat talab qiladi. Fan murabbiylarning yordamiga keladi. Yaqin vaqt ichida murabbiylarning ilm-fan vakillari bilan ijodiy hamkorligi, shubhasiz, futbolning jadal rivojlanishining, uning sifatli rivojlanishining asosiy manbalaridan biri bo'ladi. Zamonaviy futbolning o'ziga xos belgilaridan biri bu so'zning keng ma'nosida tezkorlikdir. Endi sportchi reaksiya tezligi, fikrlash, harakat qilish, texnikani amalga oshirishi, turli xil o'yin vaziyatlarida tezkorlik bilan taktik vazifalarni hal qilishi kerak.

Ushbu ishda biz futbolchilarni jismoniy va texnik tayyorgarligiga e'tibor qaratamiz. Futbolga bo'lgan qiziqishning ortib borishini hisobga olgan holda, ushbu sport turini turli tomonlardan ko'rib chiqish tavsiya etiladi. O'yin texnikasi va taktikasi, vosita mahoratining rivojlanishiga ta'siri, o'yin uchun mashg'ulot-laridir[4;76-b].

Ma'lumki, futbolchilarning jismoniy tayyorgarligi jamoaviy, guruhviy va individual texnik va taktik harakatlarning samaradorligiga bog'liq bo'lgan eng muhim omillardan biridir. Texnik va taktik savodli futbolchi qanday bo'lishidan qat'i nazar, u yaxshi va ko'p qirrali jismoniy tayyorgarligisiz hech qachon muvaffaqiyatga erisha olmaydi. Hatto bitta futbolchining jismoniy tayyorgarligi zamonaviy futbol standartlariga javob bermaydigan jamoa muvaffaqiyat qozonmaydi.

O'yin epizodida bir nechta futbolchilar bir vaqtning o'zida muayyan o'yin muammosini hal qilishadi. Buning uchun ular tezlik, makon va o'yin harakatlarida muvofiqlashtirilgan harakatlarni bajarishlari kerak. Agar ularning kamida bittasi mos keladigan funksiyaga ega bo'lmasa, unda o'yin epizodining muammosini hal qilish mumkin bo'lmaydi.

Jismoniy holati zaif bo'lgan o'yinchi taktik jihatdan foydali pozitsiya uchun kurashda raqibni ortda qoldirishga yoki to'p uchun jang san'atini yo'qotishga va hokazolarga vaqt topa olmaydi.

O'yinda har bir futbolchi taktik vaziyatlarni tez va aniq baholashi, aniq qaror qabul qilishi va darhol amalga oshirishi kerak. Tezligi yetarlicha rivojlanmagan futbolchilarning taktik samaradorligi, harakatlanuvchi obyektga (raqib, sherik, to'p) yoki tanlov tezligiga javob berish har doim past bo'ladi.

Tajribali futbolchi to'p uchun kurashda g'alaba qozonishi, xavfli to'qnashuvdan xalos bo'lishi va raqibning itarishidan so'ng oyoqqa turishi mumkin. Shuning uchun



kuchli kuch bilan mashq qilish futbolchining ajralmas sifati.

O'yinchi yaxshi moslashuvchan bo'lgandagina samarali bo'ladi. Shuni ham ta'kidlaymizki, yaxshi moslashuvchanlik – bu futbolchining mushaklari egiluvchan va yaxshi holatda ekanligi bilvosita dalildir. Mushaklarning bu holati ularni jarohatlardan himoya qiladi. Shuning uchun yaxshi moslashuvchanlik ham futbolchining ajralmas sifati. Texnikalarni samarali amalga oshirish mushak va mushak ichidagi jarayonlarga asoslanadi muvofiqlashtirish yoki muvofiqlashtirish qobiliyati. Futbolchilarning futbol texnikasini o'rganish qobiliyati ularga bog'liq.

Turli lokomotor harakatlar, keng koordinatsiya va sport qobiliyatlari tufayli futbolchilar hayotiy muhim vositalarni, shu jumladan mehnat qobiliyatlarini tez va muvaffaqiyatli o'rganadilar. Boshqa sport turlarida mashg'ulotlarda futbol ko'pincha qo'shimcha vosita sifatida ishlatiladi. Futbol o'ynash (yoki uning elementlari) nafaqat umumiy jismoniy tayyorgarlik uchun yaxshi vositadir. Maksimal tezkor kuch va irodali harakatlar, keng taktik tafakkurning namoyon bo'lishi turli sport turlarida zarur bo'lgan ko'plab maxsus fazilatlarni yaxshilashga imkon beradi.

Futbol jamoalarida futbol bo'limlari mavjud. Tizimli mashg'ulotlar va musobaqalar jismoniy rivojlanish va sog'lomlashtirishni har tomonlama rivojlantirishga, ishchilar ommasi uchun madaniy hordiq chiqarish va ochiq tadbirlarni tashkil etishga qaratilgan bo'lib, bu mehnat unumdorligini oshirishga yordam beradi. Ushbu tadqiqotda uzluksizligini ta'minlashda maktab o'quvchilari va oliy ta'lim talabalari futbol o'ynashga katta ahamiyat beriladi.

Darvozabonning individual mashg'ulotlarida raqibga yugurish uchun lahzani ushlab qolish qobiliyatini rivojlantirish uchun quyidagi usul qo'llaniladi. O'yinchidan to'p bilan birga darvoza tomon siljish talab etiladi; Darvozabon shart. yugurayotganda to'pni olib qo'yish uchun bir lahzani tanlang. Ushbu mashg'ulot darvozabonning jiddiy tayyorgarligidan so'ng amalga oshiriladi va maksimal ehtiyotkorlik bilan amalga oshiriladi.

Turli xil topshiriqlar va mashqlar orqali guruhiiy taktik mashg'ulotlar

Oliy ta'lim talabalarni qiziqtirgan yaxshi tanlangan mashqlar har doim muvaffaqiyatli bo'ladi. Quyida guruh mashqlari uchun namunaviy mashqlar va o'yin mashqlari keltirilgan.

1. O'rindiqlarni almashtirish bilan to'pni ikkita vites bilan dribling. Ushbu mashq bilan siz to'psiz juda tez harakat qilishingiz kerak. Bundan tashqari, to'p harakatlanishga yuboriladi. Ushbu mashq 50 dan 60 m gacha bo'lgan masofada amalga oshiriladi.

2. Uch pas bilan to'pni haydab chiqarish. Bu erda to'psiz ishlaydigan o'yinchilar ham iloji boricha tezroq harakat qilishlari kerak. Mashq 60 dan 80 m gacha bo'lgan masofada amalga oshiriladi.

3. O'rindiqlarni almashtirish bilan to'pni uch tomonlama uzatmalar bilan haydash. To'pni qabul qilgan kishi sheriklarga harakat qilish uchun vaqt berib, to'pni boshqarishga biroz vaqt ajratadi.

4. O'rindiqlarni almashtirish bilan to'pni uch tomonlama uzatmalar bilan haydash. To'p zigzagga o'tadi. Masofa 80-100 m.



5. Bitta yarim himoyachi bilan doira ichida to'p. 6 8 o'yinchi radiusi 7 10 m bo'lgan doira hosil qiladi, aylananing markazida bitta yarim himoyachi joylashgan. Oldindan belgilangan tartibda aylanada turgan o'yinchilar (masalan, faqat chap oyoq bilan yoki faqat o'ng bilan) to'pni bir-birlariga uzatadilar. Yarim himoyachi to'pni olishga yoki hech bo'lmaganda unga tegishga harakat qilmoqda. To'pga tegib, Yarim himoyachi uzatishni muvaffaqiyatsiz amalga oshirgan kishi bilan o'rni o'zgartiradi.

6. Ikkita Yarim himoyachi bilan doira ichida to'p. Xuddi shu o'yin, lekin ma'lum bir taktik dizayni bilan harakat qiladigan ikkita yarim himoyachi doirasida.

7. Yarim himoyachi kvadrati. Belgilangan kvadratning burchaklarida 10x10 m (yoki 15x 15 m) o'Ichamdagi 4 ta o'yinchi bor. yarim himoyachi maydonning o'rtasida. O'yinchilar to'pni har qanday yo'nalishda bir-birlariga faqat maydon ichida berishadi. Yo'qotilgan to'p uzoqroq yuradiganlarning o'rni o'zgartiradi.

8. Ushbu o'yinda asoratlar kvadratni qisqartirish, uzatish usullarini cheklash va boshqalar bilan ham mumkin. Ba'zan bitta yarim himoyachini aylanishga ruxsat berish mumkin.

9. Ikkala kvadratga qarshi uchta. Maydonning cheklangan maydonida (yoki zalda) ikkita Yarim himoyachi to'pni bir-birlariga ma'lum bir tarzda uzatgan uchta o'yinchidan oladi. Kvadrat ichida (to'rtburchaklar) istalgan yo'nalishda harakatlanishga ruxsat beriladi. Yo'qotilgan to'p yarim himoyachi bilan joylarni o'zgartiradi.

10. "Beshdan beshgacha" ("partiyaga qo'shilish"). Maydonning yarmida ikkita o'yin bo'lib, har biri besh kishidan iborat.

O'rganilgan tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatadi futbol elementlaridan eng muhimlari yani futbolchilarning biologik holatini baholash oliy ta'lim muassasalarida yuqori malakali professor o'qituvchilar o'rgatilishi aytiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nurimov R.I. Osiyo chempionlar ligasi-2009 musobaqalarida o'zbek futbolchilarning o'yin faolligi // Fan sportga №2. 2010. 15-20 b.

2. Abdullayevna, Z. F. (2020). ANALYSIS OF AGE DYNAMICS OF INDICATORS OF PHYSICAL DEVELOPMENT AND PHYSICAL FITNESS OF ADOLESCENTS. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 8(3). 219-222 b.

3. Ruzmetov N.K. The Use Of Special Complexes Of Physical Exercises In The Formation Of Children's Equilibrium Abilities. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Great Britain. Progressive Academic Publishing № 5-6, -2019. P.3-7.

4. Sobirova L.B. Effektivnost ispolzovaniya spetsialnykh uprajneniy dlya preduprezhdeniya skolioza uchenikov nachalnykh klassov. // 8-mejdunarodnoy nauchno-prakticheskoy konferensii "Aktualnye problemy fizicheskoy kultury i sporta. Cheboksary-2019. 76-80-b.



UZLUKSIZ TA'LIMDA O'QITUVCHILARNI PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASHDA IJTIMOYIY SHERIKCHILIK

V.N.SATTOROV,

Alisher Navoiy nomidagi til va adabiyot universiteti, dos.p.f.n.

Ushbu maqolaning maqsadi bo'lajak o'qituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlashda bevosita ish beruvchi, ta'lim muassasalari bilan o'zaro ijtimoiy sheriklik jarayonlariga e'tibor qaratilgan.

Цель данной статьи является акцентировать внимание на процессах социального партнерства с непосредственным работодателем образовательными учреждениями при подготовке будущих учителей к педагогической деятельности.

The purpose of this article is to focus attention on the processes of social partnership with the direct employer of educational institutions in the preparation of future teachers for pedagogical activity.

Hozirda yangi ta'lim muassasalarida ta'lim mazmuni, soni va sifati, ta'lim dasturlari, texnologiyalarining isloh qilinishi oqibatida bir qancha o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, umumtalim maktablariga oliy ta'lim muassasalarini birlashtirilishi, hamkorlikni mustahkamlanishi maqsadli kadrlar tayyorlash tizimini rivojlanishida hamda ta'lim sifatini oshishida alohida ahamiyatga ega. Bu jarayonlar o'z navbatida oliy ta'lim muassasalari va xalk ta'limni o'zaro integratsiyasini yanada kuchaytirishni talab etadi. Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik faoliyatga tayyorlashda uzluksizlik va ko'p bosqichli ta'lim, kompetensiyalarga asoslangan yondashuv, ilmiy-tadqiqot va o'quv jarayonlarini integratsiyalashuvi, zamonaviy axborot-ta'lim texnologiyalaridan foydalanish hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Kasbiy qadriyatlar obyektiv, aniq bilimlar zaminida hosil bo'ladi va o'quvchilarga aniq qoidalar yordamida yetkaziladi. Bunday o'qituvchilar uchun "Kuch bilimda" degan shior muhim hisoblanadi. Ta'lim-tarbiya jarayonining har qanday natijasi aniq ko'rsatkichlarda ifodalanadi. O'quvchi bu vazifani bajara oladi yoki bajara olmaydi tarzida.

O'quvchining o'zlashtirgan bilimi yoki egallagan xulq-atvori sifatining bahosi uning shaxsiga ko'chiriladi va taalluqli bo'ladi. Ushbu paradigma doirasida o'quvchining tashqi mavjud obyektiv tarzda berilgan etalonlari, meyorlar, standartlar namoyon bo'ladi. Qaysikim ular yordamida o'quvchining o'zlashtirganlik, tarbiyalanganlik, kasbiy tayyorgarlik darajalari aks etadi.

Bunday holat pedagogik qoidalarining insonparvarona yoki noinsonparvarona ekanligidan qat'i nazar vujudga keladi. Pedagogik faoliyat natijasi uning ideal, standartlashgan bashoratida namoyon bo'ladi.

Har bir insonning ichki olamiga uning san'at va madaniyatga bo'lgan munosabati ta'sir ko'rsatadi. Bu o'rinda madaniyat insonning ijtimoiy xulq-atvorini belgilaydi. Uning xulq-atvorida nazokatlilik, boshqalarga nisbatan



hurmat, muloyimlik, o'z xatti-harakatlarining chorasini topish ustivor tarzda namoyon bo'ladi. Bo'lajak o'qituvchining madaniyati kundalik, o'zining ijtimoiy harakatlarini boshqarish, ongli qarorlar qabul qilishda ifodalanadi. O'qituvchining bir qolipdagi nuqtai nazari bilimga asoslangan holda yo'nalganlik, shaxsiy uslubni izlashga qaratiladi.

O'zining ilmiy-pedagogik tajribalariga asoslangan holda o'quv jarayoniga rahbarlik qilish, novatorlik ishlanmalarini taqdim etish uning kundalik vazifalaridandir. Ko'pgina o'qituvchilar o'quv jarayoniga rahbarlik qilishda belgilangan tartib asosida harakat qiladilar va shunday yo'l tutishni o'zlarining vazifalari deb biladilar.

Bunday jarayonda o'qituvchining boshqaruvchilik faoliyati pedagogik qadriyat sifatida namoyon bo'lmaydi. U o'z mohiyatiga ko'ra, o'qitish vositasi bo'lib qoladi. Unda axborotlarning o'qituvchidan o'quvchilarga ko'chish jarayoni sodir bo'ladi. Buning natijasida muayyan o'quv fani mazmuni yoki taqdim etilgan axborotlarni bilmaydigan o'quvchi uchun bunday o'quv vaziyatiga kirishish mutlaqo qiziqarsizdir.

Biroq, bunday nuqtai nazar o'quv-tarbiya jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatmaydi. Chunki xuddi shunday sharoitda ham o'qituvchilar ko'pgina samarali pedagogik texnologiyalarni qo'llaydilar. O'qitishning lankaster, algoritmlashtirilgan, dasturlashtirilgan tayanch konspektlar tuzish kabi tizimlari bunga misol bo'la oladi. Bunday sharoitda axborotlar vositasida o'quvchilar o'zaro bir-birlari bilan muloqotga kirishadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мардонов Ш.Қ. Янги таълимий қадриятлар асосида педагог кадрларни тайёрлаш ва малакасини ошириш. - Т.: Фан, 2006.
2. Йўлдошев Ж.Ф. Таълим янгиланиш йўлида. - Т.: Ўқитувчи, 2000.
3. Хайдарова О.Қ. Бўлажак ўқитувчиларни таълим жараёнида технологик ёндашувга тайёрлаш: Пед. фанл. номз. ... Автореф. - Т., 2004.



СОВРЕМЕННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ

Д.Н.МАРАСУЛОВА,
ТГПУ преподаватель,

Ushbu maqolada maktabgacha ta'limda zamonaviy AKTni qo'llash haqida so'z boradi. O'qituvchilarimiz uchun bolalarni bilim olishga undaydigan "yordamchilaridan" biri bu interaktiv Smart Boardlardir. Bolalar uchun ushbu o'rganish hayajonli va qiziqarli o'yinga aylanadi, chunki asosiy fanlar bilan birgalikda ular yuqori texnologiyalar bilan ishlashni o'rganadilar.

Kalit so'zlar: axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, maktabgacha ta'lim, interaktiv Smart Boardlar, o'qituvchilar, an'anaviy ommaviy axborot vositalari, maktabgacha yoshdagi bolalar.

В этой статье говорится о применении современных ИКТ в дошкольном образовании. Одним из "помощников" нашим преподавателям, мотивирующих детей к получению знаний стали интерактивные доски Smart Board. Для детишек такое обучение становится захватывающей и веселой игрой, ведь вместе с основными дисциплинами они изучают методы работы с высокими технологиями.

Ключевые слова: информационно-коммуникационных технологий, дошкольное образование, интерактивные доски Smart Board, преподаватели, традиционные средства, дети старшего дошкольного возраста.

This article talks about the application of modern ICT in preschool education. One of the "assistants" for our teachers, motivating children to acquire knowledge, are the interactive Smart Boards. For kids, this learning becomes an exciting and fun game, because together with the main disciplines, they learn how to work with high technology.

Key words: information and communication technology, preschool education, interactive Smart Boards, teachers, traditional media, older preschool children.

В настоящее время компьютер, ноутбук в учреждении образования – это не модные аксессуары, а необходимые и эффективные средства повышения качества образовательного процесса. Постепенно педагоги используют компьютер в учреждении дошкольного образования не только как средство принятия управленческих решений, формирования информационного банка или общения с помощью интернет-ресурсов, но и как дополнительное средство образования детей дошкольного возраста.

Важнейшим компонентом современных информационных технологий, используемых в дошкольном образовании, стали электронные интерактивные доски. [1, 69]

Актуальность нашего исследования заключается в том, что мир, в котором развивается современный ребенок, коренным образом отличается от мира, в котором выросли его родители. Это предьявляет качественно новые



требования к дошкольному воспитанию, как первому звену непрерывного образования: образования с использованием современных информационных технологий (компьютер, интерактивная доска, планшет).

Одними из основных принципов обучения детей дошкольного возраста являются наглядность, сознательность и активность детей в усвоении и применении знаний. Мощным современным инструментом для дошкольных образовательных организаций является интерактивная доска.

Целью работы явилось использование интерактивной доски SMART Board и программы SMART Notebook в практике работы педагогов, совершенствование уровня профессиональной компетенции педагогов для повышения качества образования, их способности работать с интерактивным оборудованием.

Исходя из цели мы определили задачи исследования:

1. Изучить функциональные возможности интерактивной доски Smart Board и программы SMART Notebook .
2. Повысить профессиональное мастерство педагогов.
3. Обеспечить взаимодействие между педагогами таким образом, чтобы полученная информация превращалась в их личное знание.
4. Создание методики использования интерактивной доски в образовательной работе с детьми 5-6 лет

Для интерактивной доски Smart Board программным обеспечением является Smart Notebook. Эта программа открывает педагогу практически безграничные возможности использования интерактивной доски в работе с детьми, так как весьма серьезно расширяются границы предъявления учебной информации. Она способствует тому, что можно в разы поднять интерес ребенка к образовательному процессу, благодаря игровым элементам этой программы. Использование интерактивной доски позволяет задействовать все основные сенсорные системы детей дошкольного возраста - визуальную, слуховую и кинестетическую, что делает образовательный процесс более успешным. Особое значение психологи придают кинестетической системе, так как именно с ней связано явление моторной памяти и возможность довести навыки до автоматизма. Китайская мудрость "Расскажи мне - и я забуду. Покажи мне - и я запомню. Вовлеки меня - и я научусь" наилучшим образом характеризует основной принцип проведения занятия с использованием интерактивной доски. [2, 29-34]

По результатам мониторинга ЮНЕСКО, проведенного в различных странах мира, только 10% детей дошкольного возраста обучаются через слово. Как показывают данные - экранно-звуковое представление материала повышает эффективность запоминания до 50%. Это лишний раз доказывает, что учебное содержание для детей должно быть представлено не только словом, но и обязательно деятельностью с разнообразными по форме предъявления средствами обучения.



Благодаря мультимедийному способу подачи информации дети легче усваивают представления о форме, цвете и величине; глубже постигают понятия числа и множества; у них быстрее развивается умение ориентироваться на плоскости и в пространстве; совершенствуются познавательные психические процессы; активно пополняется словарный запас.

Интерактивная доска позволяет педагогу использовать в процессе обучения изображения, текст, звук, видео, ресурсы Интернет и другие материалы. Поэтому возможно одновременное воздействие на все каналы восприятия информации (визуальный, слуховой, кинестетический), что позволяет учитывать индивидуальные особенности восприятия информации каждого ребенка.

Интерактивность позволяет создать более комфортные условия обучения, при которых ребенок чувствует свою успешность, что делает успешным и сам процесс обучения. Так, применение интерактивной доски в образовательном процессе позволяет перейти от объяснительно-иллюстративного метода обучения к деятельностному, при котором ребенок становится активным субъектом взаимодействия. Это способ познания, основанный на диалоговых формах общения, это как бы "глубокое погружение" в общение, при котором у детей формируются умения действовать совместно с другими детьми и взрослыми. [3, 40] Интерактивная доска часто воспринимается детьми как интересная игрушка; сенсорные интерактивные доски позволяют дошкольнику просто прикоснуться к картинкам, чтобы сделать выбор и ответить на вопрос или решить несложную задачу. Используя крупные яркие изображения, передвигая буквы и цифры, составляя слова и предложения, оперируя геометрическими фигурами и различными объектами простым движением рук, дошкольники становятся интерактивными участниками процесса "живого" обучения.

Сегодня уже многие детские сады оснащены интерактивными досками, но при этом в дошкольных образовательных организациях немногие воспитатели хорошо осведомлены о том, как это средство применяется на практике, какие функции его можно использовать в обучении и развитии детей дошкольного возраста.

В Международной школе "Al-Beruniy" интерактивная доска в образовательном процессе используется более двух лет. Нами было проведено несколько открытых занятий с детьми Preschool в целях обмена педагогическим опытом между преподавателями школы. Занятия проводились с детьми старшего дошкольного возраста (5-6 лет).

Работать с доской просто и удобно для педагога, понятно и интересно детям, что позволяет достичь хороших образовательных результатов. Мы убедились в том, что интерактивная доска может успешно использоваться в образовании дошкольников и способствовать повышению качества получа-



емых образовательных результатов. Однако для этого преподавателям необходимо изучать все ее возможные функции, не ограничиваясь использованием интерактивной доски в качестве простого экрана и демонстрируя на ее поверхности электронные презентации.

Использование такого технического средства обучения как интерактивная доска предполагает создание материально-технической базы в учреждении дошкольного образования. Если многие школы уже оснащены интерактивными досками и учителя на протяжении ряда лет их широко используют в работе с младшими, и старшими школьниками на уроках по разным учебным дисциплинам, то в детском саду это техническое средство обучения по-прежнему большая редкость. В учреждениях дошкольного образования должна быть хотя бы одна интерактивная доска. Ею можно оснастить одно помещение в детском саду, которое может выполнять функции: комнаты интерактивного обучения; развлекательного и игрового центра; информационно-методического центра, в котором бы проводились педсоветы, презентации опыта работы на методических объединениях; центра взаимодействия учреждения дошкольного образования с семьей. Использование интерактивной доски в данном случае будет способствовать повышению педагогической компетентности родителей, их активности, даст возможность строить открытый диалог с родителями на родительских собраниях, решать педагогические ситуации на наглядных примерах, позволит презентовать опыт работы педагога с детьми, где каждый родитель может увидеть своего ребенка в развитии. Кроме того, в детском саду могут функционировать разнообразные кружки, занятия в которых проводятся с использованием интерактивной доски. Но для повышения эффективности образовательной работы с детьми, с нашей точки зрения, интерактивные доски должны быть в группах детей старшего дошкольного возраста.

Следует уделить особое внимание развитию информационной компетентности педагогов дошкольной образовательной организации. Педагоги в рамках курсов повышения квалификации могут пройти обучение по образовательной программе и освоить программное обеспечение Smart Notebook. Однако, как показали результаты нашего исследования, внедрение в работу учреждения дошкольного образования компьютерных технологий связано с рядом проблем: во-первых, нежелание педагогов с большим стажем работы осваивать информационные технологии; во-вторых, боязнь применения новых информационных технологий; в-третьих, незнание эффективности применения информационных технологий; в-четвертых, неумение применять свои знания информационных технологий в работе с детьми. Только творческие педагоги, стремящиеся идти в ногу со временем, изучившие возможности использования и внедрения интерактивной доски в свою практическую деятельность, смогут модернизировать образовательный процесс, повысить его



эффективность. А именно: ставить и решать принципиально новые задачи по совершенствованию образовательной работы; переосмыслить пути решения традиционных задач и напрямую управлять качеством работы с детьми; сделать занятия по-настоящему привлекательными, современными благодаря дизайну представляемой информации перейти от объяснительно-иллюстрированного способа обучения к деятельностному, при котором ребенок становится активным субъектом, а не пассивным объектом педагогического воздействия, что в свою очередь, способствует осознанному усвоению знаний; вывести работу учреждения дошкольного образования на новый качественный уровень, обновить методику образовательного процесса. [4, 63]

Таким образом, можно сделать следующие выводы:

- использование интерактивной доски в учреждении дошкольного образования является обогащающим и преобразующим фактором развивающей предметной среды;
- интерактивная доска может быть использована в работе с детьми старшего дошкольного возраста при безусловном соблюдении физиолого-гигиенических, эргономических и психолого-педагогических ограничительных и разрешающих норм и рекомендаций;
- введение современных информационных технологий, в том числе и интерактивной доски в систему дошкольного образования предполагает органическое сочетание традиционных и компьютерных средств развития личности ребенка.

Использованная литература:

1. Горвиц Ю. М. Новые решения Apple для образования / Ю.М. Говриц // Информатика и образование. - 2003. - № 2. - С. 69. С. 101.
2. Крицук Т.В. Принцип наглядности в процессе использования интерактивного оборудования / Т.В. Крицук // Веснік адукації. - 2013. - № 1. С. 29-34. С. С. 156.
3. Усенков Д. Ю. Интерактивная доска Smart Board: до и во время урока / Д. Ю. Усенков // Информатика и образование. - 2006. - № 2. - С. 40. С. 128.
4. Усенков Д. Ю. Школьная доска обретает "разум" / Д. Ю. Усенков // Информатика и образование. - 2005. - № 12. - С. 63. С. 121.



BIOLOGIYA DARSLARIDA ZAMONAVIY ELEKTRON TA'LIM VOSITALARIDAN FOYDALANISHNING FAN MAZMUNIGA SAMARALI TA'SIRI

M.P.DJUMANIYAZOVA,

УрДУ, Tabiiy fanlar fakulteti

"Biologiya" kafedrası katta o'qituvchisi

Ta'lim jarayoniga zamonaviy yondashuvlar, tub islohotlar joriy etilayotgan hozirgi kunda har bir o'quv predmetining o'quvchi tomonidan samarali o'zlashtirilishi o'qitish jarayonida foydalaniladigan zamonaviy innovatsiyalar; interaktiv vositalar; o'qituvchining kasbiy kompetentligi va o'quvchilarning fan asoslarini o'rganishga bo'lgan qiziqishlariga chambarchas bog'liq masaladir.

Таянч сўзлар: биология, таълим тизими, ўқув жараёни, ахборотлашган таълим усуллари, электрон ресурслар, АКТ воситалари, замонавий таълим технологиялари ва усуллари.

Modern approaches to the educational process, the introduction of radical reforms, the effective mastery of each subject by students, modern innovations used in the teaching process, interactive tools, professional competence of teachers and the basics of students' science. It is a matter closely related to their interest in learning.

Key words: biology, education system, educational process, informative teaching methods, electronic resources, ICT tools, modern educational technologies and methods.

O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" va ularning ijrosini ta'minlovchi huquqiy-me'yoriy hujjatlarda o'qitishning zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalarini qo'llash va shu orqali uzluksiz ta'lim samaradorligini oshirish nazarda tutilgan. Shunday ekan, umumiy o'rta ta'lim maktablarining barcha fan o'qituvchilari yangi pedagogik texnologiyalar va interfaol usullar bilan qurollanishi va egallagan bilimlarini o'quv-tarbiyaviy mashg'ulotlarda qo'llash malakalarini uzluksiz ravishda oshirib borishlari talab etiladi. Zero, Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ta'kidlanganidek, "... Ta'lim berishning ilg'or pedagogik texnologiyalari, zamonaviy o'quv-uslubiy majmualarni yaratish va o'quv-tarbiya jarayonini didaktik jihatdan ta'minlash"ga bog'liq [1].

Bevosita tabiiy fanlar, jumladan biologiya fanida yuqorida ta'kidlanganidek, zamonaviy ta'lim texnologiya vositalarini qo'llash yangi mavzuda o'rganilayotgan tabiiy ob'ektni o'rganishda, uning tabiatdagi o'rni va ahamiyatini anglashda boshqa fanlarga nisbatan foydalanish zaruriyati ko'proq ekanligi bilan xarakterlanadi. Hayvon morfologiyasi, ekologiyasi va uning inson hayotidagi



ahamiyati haqidagi bilimlarni berish nafaqat darslik va qo'llanmalar orqali, balki zamonaviy axborot texnologiya vositalarining taqdimot resurslari ishtirokida sifatli ta'minlanadi.

Bugungi kunda xalq ta'limi tizimidagi amaldagi axborotlashgan ta'lim muhitining alohida komponentlari bo'lgan axborot tizimlari, ma'lumotlar banklari, muassasa, tashkilot, pedagog va o'quvchilarning veb-saytlari, axborot resurs markazlari, elektron axborot-ta'lim resurslari, virtual laboratoriyalar, media va videodarslar, elektron hujjatlar almashinuv tizimi, videokonferensiya aloqalari, intranet tarmog'idagi on-layn tanlovlar tizimida barcha ishtirokchilarni faol foydalanuvchilarga aylinishiga, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'quv-tarbiya jarayoniga keng joriy etilishiga xizmat qilmoqda[2].

Zamonaviy elektron ta'lim resurslari, o'rganish, mustaqil ta'lim olish va olingan bilimlarni tekshirish uchun maxsus dasturlar birgalikda "Elektron ta'lim resurslari"ni tashkil etadi. Elektron ta'lim resurslari deganda, foydalanuvchi, ya'ni ta'lim oluvchining shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda avtomatik rostdanlash imkonini beruvchi, egallangan bilimni avtomatik nazorat qilish tizimi bilan birlashgan o'quv materiallarini uzatish (etkazish) tizimi tushuniladi.

Elektron resurslarni ta'lim bosqichlarida foydalanish ko'rsatkichlariga qarab tasniflash xarakterlidir. Elektron ta'lim resurslari (ETR) tasnifiy bosqichlariga ko'ra an'anaviy bosma nashrlardan farq qiladi. Ularni quyidagicha tasniflash maqsadga muvofiq:

Birinchi guruh – ETR bu – matnli usul bo'lib, asosiy matndan farqi – tayyorlangan matn yoki illyustratsiya qog'ozda emas, balki kompyuter ekranida namoyon bo'ladi va materiallarni oson chop etish imkoniyati mavjudligi vujudga keladi. Biologik jarayonlarni namoyish dasturlarida, sodda hayvonlar, ko'p hujayralilar yoki mollyuskalarni tashqi morfologik belgilari haqidagi rasm, animatsiya birgalikda kompyuter ekranida namoyish etilishi va undagi namoyish kadrlarini zaruriyat tug'ilganda chop etish mumkin bo'ladi.

Ikkinchi guruh ham matn mazmunidagi material bo'lib, ko'rsatkichli yo'nalish asosida ETR deyiladi. Bu usulda matnli asosli va mazmunli bo'lishi uchun adabiyotlarga qilingan havolalardan foydalanish har doim ham qulay foydalanish imkoniyatini yaratmaydi. Lekin shunday bo'lsa ham, Biologiya o'quv predmetini o'qitishda hayvonlarning kelib chiqishi, ularning sistematik belgilarini o'rganish, xilma-xilligi, oilalari, turkum va turlarining morfologik belgisi bilan bog'liq ma'lumotlarni ETR larida jamlash muhimdir. ilmiy manbalar, darslik, metodik



qo'llanmalardan berilgan havolalar bilan boyitilgan elektron ta'lim resursi o'quvchilarning biologiya fani va o'rganilayotgan mavzuga oid o'quv materiali mazmunidagi BKM o'zlashtirishi, tayanch va fanga oid kompetensiyalarni egallashiga yordam beradi.

ETR ning uchinchi guruhi – resurs to'liq vizual va ovoqli fragmentlardan tashkil topadi. Bunda yuqorida ta'kidlangan matnli resurslardan tasvir effektlari mavjudligi bilan tubdan farq qiladi. Bu holatda biologiya darslari uchun tasvirlar, hayvonot olami aks etgan rasmlar jamlanmasi, ularning hayot tarzi bilan bog'liq fotoalbom shaklidagi ko'rgazmali resurslarni tasavvur qilish mumkin. Shuningdek, o'quv jarayonida foydalaniladigan avvalgi guruh resurslarida animatsiya va ovoz imkoniyatlari kuzatilmaydi. Mazkur jarayonda matn bilan birgalikda audio-video materiallarni mujassam tashkil etish multimedia resurslarini yaratish imkoniyatini berdi. Bu guruhga mansub ETRi vositasida biologik obyektlar kechadigan fiziologik jarayonlarni multimediali variantda ya'ni, ovoqli, harakatli, rasmi jamlanmani o'quvchilar ongiga yetkazish imkoniyati vujudga keladi. Unda mavzu bo'yicha, masalan, hasharotlar sinfini tashqi tuzilishini o'rganish davomida tasvirlar, rasmlar jamlanmasi, kichik videofragmentlarni o'zaro kompleks tarzidagi dasturiy ta'minotni vujudga keltiradi. Bu mazmunli, qiziqarli va ko'p ma'lumotlarni o'zida aks etgan ta'limiy resurs jamlanmasi hisoblanadi.

O'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayoniga quo'ilgan talablar, kasbiy-pedagogik kompetensiyasidan kelib chiqqan holda biologiya darslarini tashkil etishi zarur. O'rganilayotgan mavzuning didaktik maqsadiga muvofiq loyihalangan dars ishlanmasida zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanish kutilgan ijobiy natijani berishiga kafolatlanadi.

Shu o'rinda olimlarning ta'kidlashicha, barcha pedagogik texnologiyalar o'quv jarayonida qanday tashkil etilishidan qat'iy nazar qo'yidagilarni o'z tarkibidagi saqlamog'i zarur:

- pedagogik faoliyat;
- sinfdagi o'zaro hamkorlik;
- o'quvchi tomonidan mavjud o'quv predmeti bo'yicha yetarli bilimga ega bo'lishi ta'minlashga erishish;
- o'quvchi shaxsida mustaqil, erkin va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish;
- o'quvchidagi o'z imkoniyatlarini ruyobga chiqirish uchun yetarli shart-sharoitlarni yaratilishiga ko'maklashish;



– ha qanday pedagogik jarayon demokratik, insonparvarlik g‘oyalariga yo‘naltirilganligini kafolashga erishidan iborat.

Umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarining biologiya fanini o‘qitishning maqsadi - o‘quvchilarga tirik organizmlarning tuzilishi, ko‘payishi, kelib chiqishi, xilma-xilligi, o‘zaro munosabatlari, muhofazasi, tabiat va inson hayotidagi ahamiyati haqidagi bilimlarni berish, o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini kengaytirish, mantiqiy va ijodiy fikrlashni shakllantirishdan iborat.

Biologiya o‘qitishning vazifalariga :

– asosiy biologik tushunchalar, nazariyalar va qonuniyatlar bilan tanishtirish;
– tirik organizmlarning yashash muhitiga moslanishlarining vujudga kelishi mexanizmlari haqida ma‘lumot berish;

– organizmlarning individual va tarixiy rivojlanishining asosiy bosqichlar bilan tanishtirish;

– o‘quvchilarning o‘zlarining va o‘zgalarning salomatligini saqlashga, sog‘lom turmush tarziga rioya qilishga yo‘naltirish;

– biologiya ta‘lim mazmunining hozirgi ijtimoiy hayot va fan-texnika yutuqlari bilan bog‘lanishini ta‘minlash asosida o‘quvchilarning ongli ravishda kasb tanlashga yo‘naltirish;

– tabiat va uning barcha boyliklariga oqilona munosabatda bo‘lish fazilatlarini yosh avlod ongiga singdirish;

– biologik bilimlar zaminida mahalliy o‘simlik va hayvon turlari, seleksiya yutuqlari, qadimda yashab ijod etgan buyuk allomalar va hozirgi olimlarning biologiyaga oid ishlari bilan tanishtirish orqali o‘quvchilarning milliy istiqlol va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, biologiyadan olgan bilimlarni hayota qo‘llay olish kompetensiyalarini shakllantirishdan iboratdir[3].

Shunday ekan, endilikdagi yuqoridagi maqsad va vazifalardan kelib chiqib, hozirgi axborotlashgan muhitda, o‘quvchi-yoshlarda biologiyadan tayanch va fanga oid kompetensiyalarni rivojlantirishda o‘quv-metodik majmualar bilan birga zamonaviy axborot texnologiyalari vositalari, elektron resurslardan maqsadli foydalanish ko‘nikmalarini to‘g‘ri yo‘naltirish, tarbiyalash va uni to‘g‘ri maqsadda foydalanishlari uchun nafaqat bilim, balki axborot bilan ishlash kompetensiyalari bilan qurollantirish talab etiladi.

Uzluksiz ta‘lim tizimining deyarli barcha o‘quv muassasalarida o‘qitiladigan o‘quv fanlarida, jumladan biologiyani o‘rganish davomida ham hozirgi kunda deyarli har bir mavzu uchun taqdimot materiallarini tayyorlash va o‘quv jarayoniga



joriy etish eng maqbul vositalardan sanalmoqda. Ya'ni hozirgi kunda o'quv jarayonlarini elektron vositalarsiz tasavvur qilish juda qiyin.

Davlat ta'lim standartining umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalari uchun umumta'lim fanlaridan o'quv-metodik majmualarning yangi avlodini ishlab chiqishga qo'yiladigan umumiy talablarda quyidagilar o'z aksini topgan: "Darsliklarning multimediali ilovalari – axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida o'quv faniga oid materiallarni davlat ta'lim standarti va o'quv dasturiga mos ravishda yoritiladigan, o'quv fanini samarali o'zlashtirishga, o'quvchilarning mustaqil ta'lim olishiga ko'maklashuvchi hamda video, ovoz, animatsiya, jadval, matn va lug'atlarni o'z ichiga olgan, bilimlarni nazoratdan o'tkazish va mustahkamlashga yo'naltirilgan, o'quv fanining asosiy mazmunini boyitadigan qo'shimcha materialga ega bo'lgan yoki shu kabi manbalarga murojaatlarni o'z ichiga olgan interaktiv elektron axborot-ta'lim resursi hisoblanadi va har bir umumta'lim o'quv predmeti mazkur talab asosidagi elektron ta'lim resursiga ega bo'lishi lozimligi ta'kidlanadi[1].

O'quv fanlarining samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan namoyish vositalar ham ayni bir amaliy dasturlar asosida yaratiladi. O'qituvchidan bunday amaliy dasturiy vositalarni tayyorlash va joriy etish kompetensiyasiga ega bo'lishi talab etiladi. Yoki bevosita dasturlovchilar mehnatiga ehtiyoj seziladi. Shunday bo'lsada, ko'p hollarda ikki fanning o'zaro integrativ yondashuvi asosida ko'plab ilmiy manbalarni o'zida aks ettirgan elektron vositalar yaratilishiga erishilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 14-son, 230-moddasi; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 25.10.2018 y., 09/18/858/2095-son, Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi
2. Ro'zieva U. Biologiya fanini o'qitishda tayanch kompetensiya elementlarini tarkib toptirish // Xalq ta'limi. 2018. № 3. -B. 60.
3. <http://rtm.uz>.



TELEKOMMUNIKATSIYA YO'NALISHIDA RAHBAR KADRLARNING UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISH JARAYONINI BOSHQARISHNING XORIJIY TAJRIBASI

I.B.ASHUROV,

*"O'zbektelekom" aksiyadorlik kompaniyasi"
Telekommunikatsiya va personalni rivojlantirish markazi"
filiali direktori o'rinbosari, mustaqil tadqiqotchi*

Ushbu maqola, "O'zbektelekom" aksiyadorlik kompaniyasi rahbar kadrlarining malakasini oshirish jarayonlarini tahlil natijalari, xodimlarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish bo'yicha xarajatlar; davlat xizmatchilarini kasbiy tayyorlash mexanizmlarining xorijiy tajribasi tahlili va ularni taqqoslash natijalaridan iborat.

Kalit so'zlar: telekommunikatsiya, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, rahbar kadrlar, personal, kompetensiyalar, malaka oshirish tizimi, uzluksiz kasbiy rivojlantirish.

В данной статье приведены результаты анализа процесса повышения квалификации руководящих кадров АК "Узбектелеком", затрат на непрерывное повышение квалификации работников, анализ и сравнение результатов зарубежного опыта механизмов повышения квалификации государственных служащих.

Ключевые слова: телекоммуникация, информационно-коммуникационные технологии, руководящие кадры, персонал, компетенции, система повышения квалификации, непрерывное профессиональное развитие.

This article presents the results of the analysis of the process of advanced training of management personnel of JSC "Uzbektelecom", the cost of continuous professional development of employees, the analysis and comparison of results of foreign experience mechanisms for advanced training of public officials.

Key words: telecommunications, information and communication technologies, management cadres, personnel, competencies, advanced training system, continuous professional development.

Yangi O'zbekistonning keyingi besh yillikdagi taraqqiyoti O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi

PF-60-son Farmonida belgilab berilgan bo'lib, unda yettita ustuvor yo'nalishlardan to'rtinchisi "inson kapitalini rivojlantirish" yo'nalishidir [1]. Mazkur Farmonda davlat xizmatchilarining kasbiy tayyorgarlik, kasbga o'qitish ko'lamini kengaytirish, milliy kadrlar zaxirasini shakllantirish hamda malaka oshirish tizimining zamonaviy va samarali mexanizmlari va institutsional asoslarini shakllantirish kabi vazifalarni hal qilish belgilangan.



Inson kapitalini rivojlantirishga zamonaviy yondashish, yangi qoida va normalarni ishlab chiqish, ularga rioya qilish xodimlarning rivojlanishiga ko'proq hissa qo'shadi. Personalni uzluksiz kasbiy rivojlantirishning asosiy maqsadi - ham amaliy, ham nazariy ko'nikmalarni yangilashdan iborat bo'lib, bu nafaqat ishchi xodimlar, balki rahbar kadrlar uchun ham muhimdir. Shu sababdan, iqtisodiyoti jadal rivojlanib, jahon hamjamiyatida ilmiy-innovatsion qudrati tobora mustahkamlanib borayotgan davlatlarning barcha sohalarida, xususan telekommunikatsiya sohasida rahbar kadrlarning uzluksiz kasbiy rivojlantirish borasida olib borayotgan amaliyoti va izlanishlarini chuqur o'rganish va ilmiy tadqiq etish orqali natijador va samarali uzluksiz ta'lim tizimlarini o'zimizga mos va xos qilib joriy etishni taqazo etadi.

"O'zbektelekom" aktsiyadorlik kompaniyasi (keyingi o'rinlarda - Kompaniya) telekommunikatsiya sohasining yirik operatorlaridan biri hisoblanib, unda 17 ming nafardan ziyod xodimlar mehnat qiladi [2, 6].

Telekommunikatsiya sohasida mustaqillikdan so'ng kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirishning tarixiy bosqichlari va mexanizmlari o'rganib chiqilgan.

I bosqich - 1990 - 2003 yillarda uzluksiz kasbiy rivojlantirishda malaka oshirishning faqat ustoz - shogird va stajirovka shakllari joriy etilgan bo'lsa, II bosqich - 2004-2019 yillarda mavjudiga an'anaviy va ko'chma shakllari, III bosqich - 2020-2021 yillarda esa mavjudlariga masofaviy malaka oshirish shakli ham qo'shilgan [2, 7].

Kompaniya tomonidan 2019-2021 yillarda tashkil etilgan o'quv kurslari, malaka oshirgan xodimlar soni va o'quv jarayoni bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar tahlil qilindi. O'quv kurslari soni 2019 yilda 181 ta, 2020 yilda 49 ta va 2021 yilda 306 tani hamda malaka oshirgan xodimlar soni 2019 yilda 2633 nafar, 2020 yilda 784 nafar va 2021 yilda 3602 nafarni tashkil etgan.

Malaka oshirish kurslarini tashkil etish va o'quv jarayonini boshqarish bilan bog'liq jami xarajatlarni Kompaniyaning ayni yillardagi ish haqqi fondiga ajratilgan mablag'lar bilan taqqoslaydigan bo'lsak, 2019 yildagi ish haqqi fondining 0,44 foizini, 2020 yildagi ish haqqi fondining 0,31 foizini hamda 2021 yildagi ish haqqi fondining 0,34 foizini yo'naltirganligi ko'rinadi. Kompaniya tomonidan xodimlarning malakasini oshirishga yo'naltirgan xarajatlari yillik ish haqqi fondining o'rtacha 0,36 foizni tashkil etdi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Kompaniyada xodimlarni uzluksiz kasbiy rivojlantirib borish bo'yicha o'quv rejaları va dasturlarini ishlab chiqish, talabdan kelib chiqib o'quv rejalariga o'zgartirishlar kiritish, o'quv kurslariga doir materiallar tayyorlash va uni o'tkazishga doir masalalar tizimlashtirilgan, lekin yangi ishga qabul qilingan xodimlarni daslabki tayyorlash, Kompaniyaning asosiy maqsadi bilan mutaxassisning maqsadini chambarchas bog'liqligi, kadrlarni rahbarlik lavozimlariga tayyorlash, tavsiya etish va tanlash, kattalar ta'limi, rahbar kadrlarni



uzluksiz malakasini oshirish borish bo'yicha Kompaniyaning aniq bir siyosati ishlab chiqilmagan.

Rahbar kadrlar va mutaxassislarni uzluksiz kasbiy rivojlantirishda bu kabi kamchiliklarni mavjud bo'lishi, bizni shu yo'nalishda ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganishimiz, respublikamizga mos tajribalarni joriy etishni ilmiy asoslab berishimizni taqazo etadi.

Zamonaviy iqtisodiyotda yuqori harakatchanlikni ta'minlovchi rahbar kadrlar va mutaxassislarning uzluksiz kasbiy ta'lim tizimini Amerika Qo'shma Shtatlari, Yaponiya va Buyuk Britaniya davlatlari misolida o'rganib chiqishni vazifa qilib oldik.

Amerika yondashuvi. Malaka oshirish mustaqil ish asosida quriladi. Bunda o'rganish sur'ati, o'rganilayotgan materialni o'zlashtirish hamda muloqotga kirishimlilik qobiliyati, intizom, kasbiy va shaxsiy o'zini-o'zi rivojlantirish va mustaqil ta'lim olishga intilish kabi shaxsiy fazilatlarni hisobga olingan holda kasbiy mahoratni oshirish, mehnat faoliyati sub'ekti sifatida mutaxassisning ahamiyatli bo'lgan kasbiy qobiliyatlarini rivojlantirish hisobga olinadi [3, 93].

Qo'shma Shtatlarda mutaxassis tashkilotda, keyingi moliyaviy yilda, uning ish haqi saqlanib qolishi uchun o'zini-o'zi rivojlantirib (Self-evaluation) uzluksiz ta'lim jarayoni to'g'risida hisobot taqdim etib boradi. Kasbiy rivojlanish (Professional development) uzluksiz ta'lim ko'rsatkichi hisoblanadi.

Amerika kompaniyalarida rahbar kadrlarni (rahbarlar va top-menejerlarni) tayyorlash va malakasini oshirishga alohida e'tibor qaratiladi. MBA (Master of business administration - Biznes boshqaruvi magistri) dasturlari menejerlarni tayyorlashning eng keng tarqalgan yo'nalishi hisoblanadi [4].

Davlat organi rahbari tomonidan bajariladigan ish turlari davlat organining turiga va uning faoliyat yo'nalishiga qarab bo'linishiga muvofiq, kasbiy kompetensiyalarning uch darajasi belgilangan:

- tayanch daraja, davlat organlarining barcha rahbarlari uchun umumiy bo'lgan faoliyat turlariga asoslangan;
- maxsus daraja, ayrim davlat organlarining faoliyat turlarining o'ziga xos xususiyatlarini aks ettirishga asoslangan;
- funktsional daraja, davlat organida amalga oshiriladigan faoliyat yo'nalishlari bo'yicha kasbiy vazifalarni tanlashga asoslangan.

Yaponiya yondashuvi. Yosh mutaxassislar va yangi ish boshlayotgan rahbar kadrlarni kasbiy tayyorlashda ish joyida o'qitishga alohida e'tibor beriladi. Universitet bitiruvchilari va umumiy ma'lumotga ega bo'lgan mutaxassislar kasbiy bilimlarni asosan ishlab chiqarishda oladilar [5].

Masalan, Yaponiya universitetlarining yosh bitiruvchilari rahbarlik lavozimiga tayinlanishdan oldin bir necha yil zavodda ishchi yoki usta bo'lib ishlaydi. Bunday amaliyot texnik malakani oshiradi, bo'lajak mutaxassislar - rahbarlarga ishlab chiqarishning haqiqiy muammolarini tushunishni osonlashtiradi. Ko'pgina



tadqiqotchilarning fikricha, samarali tashkil etilgan ishlab chiqarish mashg'ulotlari tufayli yapon firmalari katta muvaffaqiyatlarga erishdilar.

Aytish mumkinki, Yaponiya iqtisodiyotini rivojlantirishning kuchli harakatlantiruvchi kuchi yapon kadrlar tayyorlash tizimi bo'lib, uning xususiyati ichki kadrlar tayyorlash tizimidir.

Muayyan kompaniyaga ishga kirgan har bir yangi xodim darhol majburiy o'quv kursidan o'tadi. Bunday kursning asosiy maqsadi ushbu kompaniyaga tegishli ekanligi bilan faxrlanadigan xodimni shakllantirish; asosiy amaliy ko'nikma va malakalarga o'rgatish; axloqiy barqarorlik va jismoniy chidamlilikni shakllantirish; o'z-o'zini anglash va mas'uliyat hissini tarbiyalash; sifat jihatidan yangi g'oyalar ishlab chiqaruvchisi bo'lishga qodir xodimlarni shakllantirish. Faqatgina bunday dastlabki tayyorgarlikdan so'ng xodim tegishli lavozimga tayinlanishi mumkin. Tegishli lavozimga tayinlangach, u ish joyida o'qitish dasturiga kiritiladi.

Buyuk Britaniya yondashuvi. Buyuk Britaniyada davlat xizmatchilari uchun ta'lim dasturlari ixtiyoriy, hamma uchun ochiq va mutlaqo bepul. Xodimlarni o'qitish uchun tashkilotlar o'z byudjetidan ajratadi. Turli xil o'quv shakllari qo'llaniladi: guruhli oflayn va onlayn darslar, individual oflayn va onlayn darslar [6].

Buyuk Britaniyada uzluksiz kasbiy ta'lim masalalari bilan Bandlik, ta'lim va fan vazirligi shug'ullanadi. Mazkur vazirlik tomonidan ishlab chiqilgan mutaxassislarning kasbiy o'zini-o'zi rivojlantirish ta'lim rejasi tarkibi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- davlat xizmatchilarining individual xususiyatlarini aniqlash va har bir ma'lum mutaxassis uchun individual ta'lim yo'nalishini shakllantirish;
- davlat xizmatchisi tayanch kasbiy kompetentligini takomillashtirish;
- kasbiy kompetentsiya sohasida so'zlashuvda va xatti-harakatida o'zini-o'zi nazorat qilish va amalga oshirish kasbiy qobiliyatini rivojlantirish;
- vaqtini oqilona taqsimlash, resurslarini boshqarish, o'zining yutuqlari va kamchiliklarini qayd etish va tuzatish, kasbiy faoliyatidagi ustuvor yo'nalishlarni aniqlash, jamoa bilan ishlash. Shuni ta'kidlash keraki, Buyuk Britaniyada davlat xizmati uchun kadrlar tayyorlash bo'yicha yagona markazlashtirilgan tizim mavjud emas, lekin individual yondashuvni hisobga olgan holda, ko'plab kurslar, dasturlar, seminarlardan iborat ta'lim dasturini tanlash mumkin [3, 92].

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, rahbar kadrlar va mutaxassislarning kasbiy tayyorlash va ularni rivojlantirib borishga yondashuv xorijiy davlat va kompaniyalarning zamonaviy ilg'or kadrlar tayyorlash tajribasidan mutlaqo farqli. Shu sababdan, rivojlangan davlatlar va yirik xorijiy kompaniyalarining rahbar kadrlar va mutaxassislarni tayyorlash, lavozimga ko'tarish bo'yicha ortirgan tajribalarini milliy qadriyat va mentalitetimizga moslab joriy etgan holda



telekommunikatsiya sohasida rahbar kadrlarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish jarayonlarini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishni taqazo etadi.

Xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalarini tahlil qilgan holda telekommunikatsiya sohasida uzluksiz kasbiy rivojlantirish jarayonlarini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish yuzasidan quyidagi takliflarni tavsiya etishimiz mumkin:

- telekommunikatsiya sohasi korxonalarida rahbar kadrlar va mutaxassislarning lavozimi, vazifalari va javobgarlik ko'lamidan kelib chiqib, uzluksiz malaka oshirish davriyligini belgilash;

- telekommunikatsiya sohasida uzluksiz malaka oshirish va mustaqil ta'lim olish jarayonlarini boshqarish mexanizmlarini axborot texnologiyalarini qo'llagan holda avtomatlashtirish;

- telekommunikatsiya sohasi korxonalarida rahbar kadrlar va mutaxassislarning uzluksiz kasbiy rivojlantirishga yo'naltiriladigan mablag'lar miqdorini aniqlash;

- iqtisodiyotimizning barcha tarmoqlari, shu jumladan telekommunikatsiya sohasi xodimlarining uzluksiz kasbiy rivojlantirishni monitoringi va nazoratini Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi vakolatiga berish masalasini ko'rib chiqish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-son Farmoni.

2. Ashurov I.B. Telekommunikatsiya yo'nalishida rahbar kadrlarni kasbiy rivojlantirish: tarixiy bosqichlari va mexanizmlari // Zamonaviy ta'lim. - 2021. - № 8 (105). - B. 6 - 7.

3. Pravdin A.A. Zarubejniy opit professional'noy podgotovki gosudarstvennix slujashix // Vestnik ekspertnogo sojeta. - 2016. - №2 (5). - s. 92 - 93.

4. Biznes-obrazovanie v SShA [Elektronniy resurs]. URL: <http://www.executive.ru/wiki/index.php>

5. https://studbooks.net/1878192/menedzhment/zarubezhnyy_opyt_obucheniya_perepodgotovki_rabochih_kadrov

6. https://dialog.info/wp-content/uploads/2021/07/Issledovanie_zarubezhnyi_opyt_povysheniya_kvalifikacii_gossluzhashhih.pdf - c. 34.



UZLUKSIZ TA'LIM JARAYONIDA TA'LIM OLUVCHILARDA IJTIMOIY-MA'NAVIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH

M.E. INOYATOVA,

O'zPFITI bo'lim mudiri, p.f.n.

Maqolada uzluksiz ta'lim jarayonida ta'lim oluvchilarda ijtimoiy-ma'naviy madaniyatni shakllantirishning zaruriyati, bunda vatanparvarlik tarbiyasining tutgan o'rni yoritilgan.

Tayanch so'zlar: uzluksiz ta'lim, ijtimoiy-ma'naviy madaniyat, tarbiya, vatanparvarlik tarbiyasi.

В статье раскрывается роль воспитания патриотизма, необходимость формирования у учащихся социально-духовной культуры в процессе непрерывного образования.

Ключевые слова: непрерывная образования, социально-духовная культура, воспитания, воспитания патриотизма.

The article highlights the need for students to form a socio-spiritual culture, as well as the education of patriotism in the process of continuous education.

Key words: continuous education, socio-spiritual culture, education, education of patriotism.

Asrlar mobaynida xalqimizda yuksak ijtimoiy-ma'naviyat madaniyat, adolatparvarlik, ma'rifatparlik kabi ezgu fazilatlar Sharq madaniyati va islom ma'naviyati bilan uzviy bog'liq ravishda rivojlandi. Shuningdek, mazkur falsafiy-axloqiy ta'limotlar xalqimiz dahosidan bahra olib boyib bordi. Bizning kelajagi buyuk davlatimiz ana shu Sharq madaniyati va islom ma'naviyati bilan uzviy aloqada Ahmad Yassaviy, Bahovaddin Naqshband, al-Buxoriy, at-Termiziy, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo singari mutafakkir ajdodlarimiz merosiga tayangan holda shakllanishi lozim.

Biz uzluksiz ta'lim jarayonida yoshlarda vatanparvarlik, xalqparvarlik tuyg'ularini tarbiyalashimiz, yuksak xalq ijtimoiy-ma'naviy madaniyati nima ekanini yoshlar ongiga singdirishimiz zarur.

Ijtimoiy-ma'naviy madaniyat nima? – Ijtimoiy ma'naviy madaniyat jamiyatda shakllangan va e'tirof etilgan axloq-odobga oid me'yorlar, yuksak ma'naviy-ma'rifiy qarashlar va bilimlarga asoslangan madaniy prioritet, o'zlikni anglash, Vatan tuyg'usiga ega bo'lish demakdir.

Bunda bolalikdan olingan ta'lim-tarbiya, o'quv jarayonining muhim vositalari hisoblanuvchi darslik, qo'shimcha o'quv materiallari, dars ishlanmalari muhim o'rin tutadi. Birinchi navbatda ijtimoiy-gumanitar fanlarni, jumladan, "Tarbiya" fanini o'qitishda g'oyaviy mafkurani tarbiyalash, bunda nomlari tarix zarvarag'iga



oltin harflar bilan bitilgan, har birining yaratgan asarlari o'zbek milliy madaniyatida katta o'rin egallagan ulug' mutafakkirlarimizning ma'naviy-axloqiy merosidan foydalanish zarur.

Yoshlarni barkamol inson qilib tarbiyalashning eng muhim omillaridan biri vatanparvarlik tarbiyasi bo'lib, yoshlar qalbiga Vatan tuyg'usini singdirish yo'li bilan ularda ijtimoiy-ma'naviy madaniyatni tarkib toptirish mumkin. Ota-bobolarimizning hayot yo'li, Vatan himoyasi yo'lida hayotini fido etgan tarixiy qahramonlarning ibratli jasoratlari, allomalarning vatanparvarlik, el-yurt manfaati, baxt-saodati yo'lida fidoyilik ko'rsatish haqidagi, mardlik va jasoratni ulug'lovchi hikmatli so'zlari va fikrlaridan o'quv materiallari sifatida foydalanish maktabda bolalik va o'smirlilik davrida o'quvchilarga vatanparvarlik g'oyalarini singdirishda muhim o'rin tutadi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ham yosh kadrlarni tanlash va tayyorlashga qo'yilgan talablar doirasida vatanparvarlik, halollik kabi fazilatlarni tarbiyalashning zaruriyatini alohida ta'kidlaydilar: "Yangicha va mustaqil fikrlaydigan, mas'uliyatli, tashabbuskor, ilg'or boshqaruv usullarini puxta o'zlashtirgan, vatanparvar, halol kadrlarni tanlash va tayyorlash bo'yicha samarali tizim yaratilmas ekan, davlat boshqaruvida sifat o'zgarishi yuz bermaydi".

"Vatanni sevmoq iymondandur" ("Hubbul – vatani minal imoni") deya uqtiriladi muqaddas hadisda. Haqiqatan Vatanga muhabbat bilan yongan qalblarda o'tkinchi, bema'ni hoyu-havaslarga qiziqish bo'lmaydi. Bunga vatanparvar, oqil, ma'rifatparvar, xalq va Vatan ozodligi yo'lida ham o'tkir qalami, ham siyosiy faoliyati bilan birdek kurash olib borgan, butun ongli hayotini, hatto shirin jonini Vatan ozodligi yo'lida qurbon qilgan Abdurauf Fitratning Vatanga samimiy munosabati ifodalangan quyidagi satrlari misol bo'la oladi: "Ey, ulug' Turon... Sen mening Vatanimsan... Yurtim, Turonim, sendan ayrilmoq – mening o'limim. Sening uchun o'lmoq – mening tirikligimdur. Panohim, sajdagohim, umidim! Yotlaring seni shu kuyga soldilar... Zolimlar seni kimsasiz ko'rdilar! Yo'q, sen kimsasiz emassan. Mana men, chin ko'ngil bilan sening yo'lingda o'lurg'a rozi... Men sening uchun yasharman, sening uchun o'lurman.

Ey, turklikning muqaddas o'chog'i! O'lim sening o'limingni istaganlarga, nafrat seni ko'mgani kelganlarga!".

Ulug' allomalar ijodida xalq va Vatan tushunchasi hamisha yonma-yon keladi. Odamlarga yaxshilik qilish – Vatanga xizmat qilish deb tushuniladi. Demak, Vatanni sevmoq – bu o'z elini sevmoq va uning xizmatiga shay turmoqdir:

Davron elining jismida ham jon bo'lg'il,

Ham jonlarig'a moyai darmon bo'lg'il.

ya'ni, "Zamon ahlining jismida jon bo'l, ham jonlariga darmon bo'l" deya



uqtiradi she'riyat mulkingining sultoni Alisher Navoiy.

"Vatanni shod etish uchun ko'p qayg'uring" deya ta'kidlaydi oqila momolarimizga ilm-ma'rifat bergan ustoz Dilshod Barno. Vatanga muhabbat va fidoyilik tuyg'usi uning she'rlarida o'zgacha shukuh bilan jaranglaydi:

O'zungni o'ylama tanho, el ichra sodiq bo'l,

No'xotcha yetsa ziyoning, o'zing hayotdan kech.

Vatanga va xalqqa muhabbat egizak tushunchalardir. Kimki Vatanni sevsa, xalqining og'ir-yengil yumushiga kamarbasta, inson zotiga mehr-muhabbatli, yurt ravnaqi yo'lida g'ayrat-shijoatli bo'ladi. Yurt ozodligi va xalq farovonligi yo'lida fidoyilik ko'rsatib, xalqqa yaxshilik qilishni shiori deb bilib, shu bilan xalq nazar-e'tiborga tushgan shoir Berdaq ta'kidlab aytganidek:

Yaxshi bo'lsang, murodingga yetarsan,

Necha manzil, xavfli joydan o'tarsan,

Yomon bo'lsang, ohu fig'on etarsan,

Yomonni uchratsang, daf qil xalq uchun.

Insoniyat tarixida odamzodga yaxshilik qilishni odat qilgan, bu fazilatni insonning eng muhim fazilati sifatida yuksaklarga ko'targan mutafakkir Abu Ali Ibn Sinoning o'mini alohida qayd etish joizdirki, u xalqning salomatligi uchun qayg'urib, kasal kishilar dardiga davo izlab, hamisha darbadarlikda hayot kechirgan ulug'alloma hisoblanadi. "Arastuning shogirdi ham bo'lmasdan, o'zining aql-iste'dodi va zehni bilan Arastuga barobar" bo'lgan Abu Ali Ibn Sino (980-1037) tibbiyot va fanning turli sohalariga oid bilimlardan tashqari, insonga xos go'zal fazilatlarga oid go'zal pand-nasihatlarini ham meros qoldirdi. Uning fikrlari ma'naviy-axloqiy qadriyatlar sohasida ilg'or qarashlar ilgari surilgani bilan e'tiborga molikdir. Ibn Sinoning fikricha, "Do'stlik insonning shunday bir holatidirki, bunda boshqa birovga yaxshilik istaladi, shunda inson yaxshilikni o'zi uchun istamaydi, balki uni boshqa birov uchungina istaydi, xolos. Shu holatda kishida boshqaga nisbatan yaxshilik qilishga chaqiruvchi xususiyat paydo bo'ladi. Do'st bu yaxshi ko'ruvchidir. Do'st o'z do'stining xursandligida ham, baxtsizlik kezlarida ham qayg'u va shodligiga sherik bo'ladi".

Shu sababli o'z faoliyati misolida insoniyat dardiga shifo izlagan Ibn Sinoning quyidagi fikrini ibratli va ta'sirchan fikr sifatida yoshlarga taqdim etish lozim deb bilamiz: "Kishidagi eng yaxshi xulq-atvor odamlarning qayg'u-hasratiga sherik bo'lishdir".

Yaxshilikni Vatan timsoli bilan bog'lagan inson adashmaydi. Chunki ezgu tushunchalarning barchasi Vatan siymosi bilan uyg'un tarzda idrok etiladi.

Vatan inson ko'z ochib ko'rgan ona maskan, bolalik va yoshligining eng go'zal xotiralari o'tgan bog'u bo'ston, qadrdon qishlog'i, farovon shahridir. Ota-



ona, oila, ona tili, mahalla-ko'y, maktab, madaniyat va ma'rifat, umuman, inson qadrlaydigan va qumsaydigan barcha oliy tuyg'ular Vatan va xalq tushunchasi bilan uyg'unlikda asl ma'no kasb etadi. Vatan farovonligi uning bag'ridagi har bir kishining erkin va ozod, turmush mashaqqatlaridan xoli, bermalol, o'z orzu-maqsadi yo'lida g'ayrat-shijoat bilan mehnat qilish, tabiat go'zalligidan rohatlanish baxtiga erishishga sharoit yaratadi. Shu sababli, dono xalqimiz "Vataning tinch – sen tinch" deb aytadilar.

Ta'kidlash joizki, umumiy o'rta ta'lim bosqichida o'quvchilarda Vatanga muhabbatni shakllantirishda, yoshlarda ijtimoiy odob-axloqni tarbiyalashda "Vatan tuyg'usi" o'quv predmeti muhim o'rin egallaydi. Ushbu fan bo'yicha o'quv dasturi va rejasida o'quvchilarni Vatanga muhabbatli, oilasi, do'stlari va qarindoshlariga sadoqatli, Vatan xizmatiga kamarbasta, mard va jasoratli, komil inson qilib tarbiyalashga katta e'tibor berilgan.

Umumta'lim maktablarida uzviylik va uzluksizlik tamoyili asosida o'rganiladigan "Tarbiya" fanini o'rganish jarayonida o'quvchilarda Vatan, jamiyat haqidagi tushunchalar kengayadi, hayotiy tushunchalar bilan boyib boradi.

Albatta, "Tarbiya" o'quv predmeti mohiyatiga ko'ra xalqning ma'naviy-axloqiy tarixidan ibrat olishga, bolalarda Vatan tuyg'usini shakllantirishga, ularni xalqimizning eng yaxshi an'analari asosida tarbiyalashga qaratilgan fandir.

Vatanparvarlik tarbiyasida o'quvchilar Vatan tuyg'usi – insonning, xalqning va davlatning kuch-qudratini ta'min etishi, ona tili – ma'naviyat, mustaqillik, faxr-iftixor manbai ekanligi, vatanparvarlik ma'rifati xalq tarixi, madaniyati va bugunki kundagi vazifalarini chuqur bilib olish va ularga rioya etishda namoyon bo'lishi; Vatanga muhabbat turli xalq va mamlakat kishilarini do'stlashtirish, qon-qarindosh qilish qudratiga ega ekanini, aksincha Vatan tarqqiyotiga zid yo'nalishlar, buzg'unchi g'oya va mafkuralar xalq hayotiga xavf soluvchi illat ekanini bilib olishi g'oyat muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ёшларга донолар ўғити. Ўзбекистон ёшлар иттифоқи. Республика истеъдодли ёшларни қўллаб-қувватлаш Улуғбек жамғармаси. - Т.: F.Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2018.- 146 б..
2. Алишер Навоий. Хикматлар. - "Шарқ"нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти, 2006 й. - 223 б.
3. Билол Аминов, Тўлқин Расулов. Ватан- юракдаги жавоҳир. - Ўқитувчи нашриёти, 2001 й. - 232 б.
4. Исмоилбек Гаспринский. Ҳаёт ва мамот масаласи. - Т.: Маънавият, 2006.- 459 б.



KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARNI DARSDA VA SINF DAN TASHQARI MASHG'ULOTLARDA BADIY ADABIYOTGA QIZIQTIRISH

N.A.NASRIDDINOVA,
GulDU o'qituvchisi

Xalqimiz azal-azaldan farzandlarining har tomonlama sog'lom, etuk, barkamol insonlar bo'lib etishishlarini ko'zlab ish yuritgan. Turli xil tarbiyaviy vositalardan, shu jumladan, so'z san'atidan ham samarali foydalanishgan. Xususan, bolalar adabiyoti namunalarida kichik maktab yoshidagi o'quvchilarga xos xususiyatlar, odob-axloq masalalalari hamisha ijodkorlar diqqat markazida turganligini kuzatish mumkin.

Tayanch so'zlar: bolalar adabiyoti, boshlang'ich sinflar, o'quvchilar, kichik maktab yoshidagi o'quvchilar, ertaklar, topishmoqlar, sinfdan tashqari o'qitish, o'rganish, tahlil qilish.

From time immemorial, our people have worked to ensure that their children grow up to be healthy, mature and well-rounded people. A variety of educational tools were used, including the art of speech. In particular, in the samples of children's literature, it can be seen that the characteristics of young school-age students, the issues of morality are always in the focus of the creators.

Key words: children's literature, primary grades, students, primary school students, fairy tales, riddles, extracurricular reading, study, analysis.

Bolalar adabiyoti namunalari boshlang'ich sinf o'quvchilari yoshiga, qiziqishlari va ruhiy olamiga mos tushib, tez ta'sir qiladi, zavq-shavq uyg'otadi. 3-4-sinflarda sinfdan tashqari o'qish darslarida bolalar adabiyoti namunalarini o'qib o'rganish va tahlil qilish ta'lim samaradorligini ta'minlaydi. Sste'dodli ijodkorlardan T.Adashboyevning "O'n ikki varaq daftar", "To'rt amaldan bir amal", "Alg'ov-dalg'ov aralash" kabi turkum she'rlari va ertaklarini, Anvar Obidjonning "Obbo kalamush-yey", "Tekinxo'r", "Bo'ring doktor bo'lgani haqida ertak" kabi asarlari sinfdan tashqari o'qish darslari mazmunini boyitishga, ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Hamza Imomberdiev so'nggi davr bolalar she'riyatining iste'dodli shoirilaridan biri edi. U yaratgan asarlar o'zbek bolalar she'riyatining eng yaxshi an'alarini o'zida mujassamlashtirgan namunalaridan bo'lganligi uchun sinfdan tashqari o'qish darslarida ulardan ayrimlarini o'qib o'rganish maqsadga muvofiq.

Bolalar adabiyoti tarixida Q.Muhammadiyning "Dum", "Tugmacha" kabi she'rlari etuk namunalar hisoblanadi. Bunda shoir Turg'un va g'ayratjonlarning satirik timsollarini yaratishda dum va tugma kabi majoziy obrazlardan mohirlik bilan foydalanib badiiy



mukammallikka erishgan, Turg'unning "2"chiligini, g'ayratjonning kiyim boshiga qarovsizligini kulgi vositasida fosh etgan edi. Hamza Imomberdiev ham aynan shu an'anadan ijodiy foydalanib, bir turkum satirik she'rlarida majoziy obrazlar orqali bolalarning satirik qiyofasini yaratganligini kuzatish mumkin. Shoirning "Shirinliklar oroli", "Eshiklar isyoni", "Noyob mol", "O'q", "Turdi, o'g'ri va ketmon", "Ta'msiz olmalar", "Olabo'ji" kabi she'rlari, "Ajdarho komida", "Adolatning kaliti" kabi ertak-dostonlari shular jumlasidandir. Ijodkor mazkur asarlarida fantaziya erk beradi, bolalarning o'ziga xos tabiatidan kelib chiqib, shartlilik asosida xudbinlik, yovuzlik, ochofatlik kabi ko'p illatlarni satira tig'iga olib zaharxanda kulgi bilan ayovsiz fosh qiladi.

"Shirinliklar oroli" she'rida jo'g'rofiya fanidan bo'layotgan darsda 5-sinf o'quvchisi Xolvoyning xom xayollari tilga olinadi. Dars jarayonida Xolvoy "Qani endi, shirinliklar oroli bo'lsa-yu Robinzonni ham yo'lda qoldirib, maza qilib yashar edim", – deb orzu qiladi. Shu chog' uni hang-mang qoldirib, jarchilar kema shirinliklar oroliga jo'nayotganligini e'lon qiladi. Bu orolda bolalarni shokoladli palma, "pepsi ko'la" kutarmish. Lekin kemaga o'tirishning kichkinagina sharti bor – "imtihon" topshirish kerak. har bir bola yarim paqir asal, "obidondon, pashmoq, parvardadan uch tovoq. Atigi besh-olti tort ham yuz dona muzqaymoq" esa bas.

Xolvoyning nomaqbul xatti-harakatlariga nisbatan yosh kitobxonda zaharxanda kulgi uyg'onadi. Shoir shirinxo'r bolalarning pabulada u yoqdan bu yoqqa yurishlarini tasvirlar ekan, badnafs Xolvoyning ochko'zligini avj nuqtalarga ko'taradi. U shu darajada betoqatki, hatto do'sti Nor ham ko'ziga shokolad bo'lib ko'rinadi. Shu payt kemanding shirinlikdan yasalganligi haqida xabar tarqalib qoladi va shirinxo'r bolalarning barchasi o'zlari suzib ketayotgan kemaga tashlanishadi. Avval elkanni eb tugatishadi, keyin mecha, kayuta, shurval, qutqaruv chambaragi, xullas, barchasini bir zunda talashib-tortishib eb tugatishadi. "Iris"dan yasalgan langar ham ularning e'tiboridan chetda qolmaydi.

Beshinchi "b" sinfda jo'g'rofiya darsi borardi. Xolvoyning: "dod-voy, qutqaring", degan qichqirig'idan bolalar oldiniga cho'chib tushishadi, masalaning asl sababini anglashgach esa xandon otib kulishadi va uni yupatishga boshlashadi...

Ko'rinish turibdiki, Xolvoy shirinlikka o'ch, nafsini tiyolmaydigan suqatoy bolalarning satirik timsolidir. Bu obrazni yaratishda shoir shirinliklar oroli majoziy obrazidan mohirlik bilan foydalanadi. Shu tariqa she'rdan realistik tasvir bilan majoziylik bilan foydalanadi. Shu tariqa she'rdan realistik tasvir bilan majoziylik, mubolag'a o'zaro uyg'unlashib shartlilikka asoslangan zaharxanda kulgini hosil



qilgan. Agar bolalarning shirinlikka o'ch bo'lishi nazarda tutilsa, mazkur she'ming hayotiy mohiyati nechog'lik muhim ekanligini sezish qiyin emas.

Hamza Imomberdiyevning kichkintoylar fel-atvoridagi illatlarni fosh qiluvchi "Ta'msiz olma", "O'q", "Ohu" kabi she'rilarida ham ijodkor nuqtai nazari o'ziga xos o'yin vositasida ifodalanadi.

Shoirning mazkur asarlarida inson va tabiat munosabatlari bosh masala sifatida tasvirlanadi. Ularda satira tig'i ekologik buzilishlar, insonlarning ona tabiatga nisbatan yovuzligiga qaratiladi.

"Ta'msiz olma" she'rida ko'pchilikka tanish manzara kattalarning tabiatga, dov-daraxtlarga nisbatan e'tiborsizligi, bepisandligi va shunday munosabat keltirib chiqargan oqibatlar xususida so'z boradi.

Chelak ko'targan ayol mag'zavani olma daraxti tagiga ag'daradi. O'sha yili olma qora rangda gullaydi. Odamlar bunga parvo ham qilishmaydi. Yozda daraxt ta'msiz olma tugadi. Bufetchi ayol uni kompot qilib odamlarga pullaydi. Bu kompotdan ichganlarning hammasiga xudbinlik degan illat yuqadi. Natijada hamma kasb egalari tramvaychi ham, shaxmatchi ham, a'lochi o'quvchi ham, bolalar qabilida ish tuta boshlaydi. Tramvaychi faqat o'z o'g'lini maktabga tashiydi, shaxmatchi o'ziga-o'zi mot qo'yadi, hatto kompot yuqini yalagan mushuk ham "Sichqonlarni egam o'zi qilsin ov" deydi erinchoqlik bilan. She'rda xudbinlik botqog'iga botgan bolalar etakchisi va a'lochi o'quvchilarning psixologiyasi quyidagicha tasvirlanadi:

Vojatiy bilganlarin
Bolalardan yashirar.
Gorn chalib o'zining
Malakasini oshirar.
Kompotdan ichib qo'ygan
Ba'zi a'lochi baxil
Der: – Qoloqqa yordam yo'q
O'zimga kerak aql.

Shoirning mahorati shundaki, oddiygina beparvolik, tabiatni mensimaslik katta fojiali oqibatlarga olib kelishi mumkinligini bolalarbop achchiq zaharxanda satira bilan tasvirlay olgan. She'rda xudbinlik botqog'iga botgan odamlar va bolalarning, hatto hayvonlarning o'ziga xos satirik qiyofasi kichik kitobxonlar yoshi va tushunchasiga mos tarzda badiiy tasvirga ega. Bu kasallik oldida doktorlar ham shoshib chora topolmay qolishlari hajviy bo'yoqni kuchaytirishga xizmat



qiladi. She'rning "Ichib qo'ymadingizmi? Siz ham o'sha kompotdan" deya so'roq bilan yakunlanishi uni bolalar ruhiyatiga yaqinlashtirishga xizmat qilgan. She'rda odamlar tabiatidagi loqaydlik, beparvolik illatlari tabiatning ekologik buzilishi, birgalikda xudbinlik "virus"larining tarqalishiga asosiy omildir degan fosh qiluvchi g'oya she'rning asosiy pafosini tashkil etadi.

Fors-tojik adabiyotining klassigi Abdurahmon Jomiyning: "Loqaydlik, beparvolik boshga ming xil balo keltirar" degan hikmati esga olinsa, shoir ko'tarayotgan g'oyaning hayotiy qimmatini yanada ravshanlashadi, tarbiyaviy mohiyati ortadi.

O'qituvchi bunday asarlarni ifodali o'qib berib, obrazlarning xatti-harakati haqidagi o'quvchilar fikrini so'rashi, muhokama munozara uchun sharoit yaratishi lozim. Shundagina o'quvchilar aldamchilik, tekinxo'rlik, ochko'zlik, firibgarlik kabi illatlarning zararli oqibatlarini anglab oladilar, ma'naviy olamlari yuksalib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Болаларни мактабгача таълим муассасаларига тўлиқ қамраб олиш бўйича дастур тайёрлашга кўрсатма бериш тўғрисида. Халқ таълими вазирлиги тасарруфидаги малака ошириш институтида сўзлаган нутқи. //"Маҳаллий", 17 август, 2017 й.
2. Абдуллаева Қ.А., Сафарова Р.Ф. ва бошқ. Бошланғич таълим концепцияси // Бошланғич таълим. -Тошкент, 1998. - №6. - Б. 12-18.
3. Ишмухамедов Р, Юлдашев М. Таълим ва тарбияда инновацион педагогик технологиялар. Ўқув қўлланма. Тошкент 2013.
4. Мавланова Р.А, Рахмонқулова Н.Х. "Бошланғич таълимда педагогика, инновация, интеграция." Т., 2013.



MUSTAHKAM OILANI SHAKLLANTIRISHDA YOSHLARDA NAQL-MAQOLLARDAN FOYDALANISHNING TARBIYAVIY-PSIXOLOGIK AHAMIYATI

B.O. TEMIRBEKOV,

Qoraqalpoq davlat universiteti

"Pedagogika va psixologiya" kafedrası assistenti

A.B. TUREMURATOVA,

Qoraqalpoq davlat universiteti

"Pedagogika va psixologiya" kafedrası assistenti

Ushbu makolada mustahkam oilani shakllantirish va globallashuv sharoitida yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda naql-maqollardan foydalanishning tarbiyaviy-psixologik ahamiyati, oila va uzluksiz ta'lim sharoitida xalq maqollarining inson kamolatidagi xususiyatlari haqida mulohazalar bayon etilgan.

Tayanch so'zlar: oila, mustahkam oila, oilaviy munosabat, ijtimoiy munosabat, xalq ijodi, maqol, folklor.

В данной статье рассматривается воспитательное и психологическое значение использования пословиц в формировании крепкой семьи и подготовке молодежи к семейной жизни в условиях глобализации, особенности народных пословиц в развитии человека.

Ключевые слова: семья, крепкая семья, семейные отношения, социальные отношения, народное творчество, пословицы, фольклор.

This article discusses the educational and psychological significance of the use of proverbs in the formation of a strong family and the preparation of young people for family life in the context of globalization, the characteristics of folk proverbs in human development.

Key word: family, strong family, family relationship, social relationship, folk art, proverbs, folklore.

O'zbek oilalari asrlar davomida mustahkam, ahil jamoa, ma'naviyat va tarbiya o'chog'i bo'lib kelgan. Oiladagi muhit, turmush qurish borasidagi an'analar sog'lom ma'naviyatli avlodni tarbiyalashga xizmat qilgan. Ma'naviy barkamol, jismonan sog'lom farzandni voyaga yetkazishda oilada amalga oshiriladigan axloq odob tarbiyasining o'zmi benihoya katta. Oila jamiyatning eng kichik qo'rg'oni bo'lib, bu muqaddas dargohda kelajak kishisi kamolga yetadi. Bugun dunyo yuzini ko'rgan chaqaloqning kelajagi hozir qanday tarbiya ko'rayotganiga, uning qalbini qanday tuyg'ular, qanday orzular bilan to'ldirilayotganimizga bog'liq.

Oilaviy turmush – hayotiy mazmuniga hamda jamiyat tomonidan ma'qullanadigan xususiyatlarga ega bo'lgan ijtimoiy hodisa. Unda ijtimoiy hayotning barcha asosiy qirralari, vazifalari hamda xususiyatlari mujassamlashgan. Inson umri mobaynida oila ta'sirini sezib turadi, dastlab ota-onasining oilasida, so'ng o'zi qurgan



oilasida hayot kechiradi. Har ikki holda ham oila insonning shaxs sifatida kamol topishiga muhim tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadi. Inson oilada individual va ijtimoiy hayot ko'nikmalarini hosil qilibgina qolmay, balki unda o'zaro munosabatlarni yo'lga qo'yish bo'yicha ota-ona maqomini ham oladi. Shaxs ijtimoiy faolligini shakllantirishda yaxlit jarayonning bu qirrasiga ko'plab omillar, jumladan, oilaning moddiy farovonligi, ota-onaning saviyasi, oilaviy qadriyatlar tizimi, bolaning ta'lim olish jarayonida ota-onaning ishtiroki singari jihatlari ta'sir ko'rsatadi.

Oilaviy tarbiyaning tugal maqsadi – boladan komil insonni yetishtirishdan iborat bo'lib, bu bevosita uzluksiz ta'lim jarayoni bilan chambarchas bog'liqlik kasb etadi. Oilada olingan ilk ta'limiy va tarbiyaviy bilimlar uzluksiz ta'lim tizimining turli bosqichlarida rivojlanib, sayqallanib boradi. Shunday bo'lsa-da, bolada oila muhitida ko'rgan, ota-ona tomonidan berilgan odob-axloq va bilimlar uning kamoloti uchun muhim sanaladi. Inomova aytganidek, "milliy axloq, milliy tarbiya natijasida tarkib topadi. Milliy tarbiya negizida oilaviy tarbiya yotadi".

Olima Sh.S.Shodmonova "bugungi mustaqillik sharoitida oila va oilaviy tarbiyaga munosabat o'zgacha tus oldi. Zero, yoshlarning axloqiy va ma'rifiy qarashlarini shakllantirish, ularning kelajak hayotlarini, istiqbollarini belgilab beruvchi omildir" deb yozadi. Bizning nazarimizda, zamonaviy oila tarbiyasida bolalarni milliy mustaqillik ruhida tarbiyalash, ularda milliy g'urur, milliy ong va o'z-o'zini anglash, vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishni taqozo etadi. Bolaga, Vatanga mehr g'oyasini singdirish, millat va xalq o'tmishiga, uning qadriyatlariga bo'lgan xurmat-ehtirom hissini tarbiyalashdan kelib chiqadi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, ota-onaning bolaga, bolaning ota-onaga bo'lgan muxabbati Vatan va millatga bo'lgan mehr-muxabbati bilan uyg'unlashgan bo'lmog'i lozim.

Oilaviy tarbiyada xalq pedagogikasi an'analari, ertak, maqol, topishmoqlar shaklida o'z ifodasini topgan va ular tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish vositasi sanalib, tarbiyaning barcha qirralarini qamrab olgan. Ayniqsa, inson va uning tarbiyasi, o'z-o'zini tarbiyalash, bolalikning yosh davrlari, ularning dangasalik va inijliklari, o'yinlari, qizlar tarbiyasi haqida ajoyib matal, maqol, aforizmlar yaratilgan bo'lib, ular xalq pedagogikasi sabog'ining yorqin namunasidir.

Shu manoda, mustahkam oilani shakllantirishda bugungi davr yoshlarini oila sabog'i, oila qurish mas'uliyati, oilaning muqaddasligi, ota-onalik maqomiga munosib bo'lishning mashaqqatlari haqida tushuntirish ishlarini olib borishda oila va uzluksiz ta'limning barcha bosqichlari hamkorligi asosida ta'sir kuchiga ega bo'lgan o'zbek xalq maqollaridan foydalanish tarbiyaviy-psixologik jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

Til, falsafa va badiiy ijodning o'ziga xos hodisasi sifatida yuzaga kelgan xalq maqollari folklorning ixcham shakl, ammo teran mazmunga ega bo'lgan janridir. Maqollarda ommaning muayyan voqea-hodisalar, voqelik haqidagi qisqacha xulosalarini ifodalaydi. Ularda fikr aniq, muayyan mantiqiy izchillikda, ba'zan to'g'ri,

ba'zan ko'chma ma'noda ifodalanadi.

Maqolda ifodalandan ta'limiy-tarbiyaviy g'oyalar alohida shaxsgagina emas, balki keng xalq ommasiga qaratilgan bo'ladi. Unda hayotiy tajribada sinalgan pedagogik fikrlar bayon qilinadi. U o'z shakliga ko'ra ixcham, mukammal, lekin ommabop bo'ladi. Shuningdek, maqollar xalq pedagogik tafakkuri yo'nalishlarini, uning pedagogik madaniyatini, ma'naviy-axloqiy e'tiqodini, turmush va mehnat mezonlarini, sevgi va nafratini, orzu va intilishini ifodalaydi.

L.N.Tolstoy: "Har bir maqolda men shu maqolni yaratgan xalq siymosini ko'raman", - degan edi. Xalq maqollari mehnat jarayonida yaratilganligi tufayli unda mehnat mavzusi yetakchilik qiladi.

O'zbek xalq maqollarining tarbiyaviy imkoniyatlari ko'zlangan tarbiyaning asosiy maqsadidan kelib chiqadi. Tarbiyaning asosiy maqsadi – an va shakllanib kelayotgan shaxsning aqliy, jismoniy, axloqiy mehnat va nafosat tarbiyalaridir. Maqollar esa tarbiyaviy jarayonda shaxsni shakllantirishning sanab o'tilgan tarkibiy qismlarini amalga oshirishda qulay shart-sharoit yarata oladi.

Xalq maqollarining barchasi xalqning o'tmish tajribalari, xulosalari natijasida yuzaga kelgan bo'lib, ularning orasida yoshlar tarbiyasi, oila ilmi, er-xotinning bir-birlari tomonidan qadrlanishi, otalik va onalik burchini anglash haqida teran fikr yuritilgan xalq maqollari asosan pand-nasihat, maslahat istak va buyruq shaklida ishlatiladi. Masalan:

"Daraxtdan meva olaman desang,
Niholligidan parvarish qil";
"Er-xotin - qo'shqanot";
"Xotin - uy bezakchisi,
Er - uy ko'makchisi";
"Ota - aql, ona - idrok".

Maqollar yoshlarni insoniylik ruhida tarbiyalashda, o'zgalar xatosidan saboq chiqarib, o'zining harakatlarini tahlil qilib borishlarida, har bir jarayonda to'g'ri tanlov qilishlarida eng xarakterli shakllardan biridir. Shu ma'noda, yosh avlodga ta'lim-tarbiya berishda oila va ta'limning turli bosqichlarda xalq maqollaridan foydalanish kutilgan natijani bera oladi.

Psixologlarning fikricha, yoshlar o'z o'rnida ijtimoiy, iqtisodiy, ayniqsa oilaviy muammolarni juda katta hissiyot bilan boshdan kechiradilar. Yoshlarning bunday og'ir ahvolidagi, odatda, ularga kattalar nasihati, hayotiy voqealiklaridan keltirilgan misollar yaxshi natija beradi. Ularning o'tish davri inobatga olinganda, yoshlikdan chiqib hali kattalikka yetib kelmagan bu davrida kattalar tomonidan qo'llanilgan metodlar o'z xatolarini tushunishga va muammoga ijobiy yechim toshishga qaratilishi lozim. Ushbu qiyin vaziyatlar uchun ham xalqimiz tomonidan xilma-xil maqollar keltirilgan.

Sharq xalqlari ko'r asrlar davomida yosh avlodga insoniy fazilatlarini



tarbiyalabda o'git va nasihat metodlaridan foydalanib kelgan. Bugungi texnika, texnologiya davriga kelib, ushbu an'ana biroz o'z ahamiyati yo'qotib bormoqda. Bu esa yoshlarda quyidagi salbiy jihatlarni yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda:

- insonning tabiatga mutlaqo zid bo'lgan salbiy tomonga o'zgarishi;
- o'z urf-odat va qadriyatlarini chuqur anglab yetmaslik;
- o'zga millat, o'zga din vakillariga ko'r-ko'rona taqlid qilish;
- millatning ma'naviy-madaniy boyliklarining begonalashuvi;
- mamlakat taraqqiyotidagi ziddiyatlar.

Shu jihatdan qaraydigan bo'lsak, avvalo, yoshlarni oila atalmish turmushga tayyorlash jarayoniga katta mas'uliyat bilan qarash, bo'lajak ota-onalarga milliy qadriyatlar va xalq ijodi namunalari asosida bilim berish, diniy va dunyoviy jihatdan oila ilmini, farzandlar tarbiyasiga mas'uliyatni shakllantirish muhim vazifalardan biri sanalib, bu jarayon, albatta, uzluksiz ta'lim tizimi bilan hamkorlikda amalga oshirilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Yuksak ma'naviyatga ega ota-ona oilaning mohiyati, qadri, burch, mas'uliyat, oila vazifalari, oilada barkamol farzand tarbiyasi, oilani moddiy jihatdan ta'minlash, uning osoyishtaligini saqlash kabi vazifalarni anglab yetadi va unga amal qiladi. O'zbek oilasida vataniga, xalqiga, o'z oilasiga, istiqlol g'oyalari sadoqatli, fidokor, mustaqil fikrlaydigan, dunyoqarashi keng, e'tiqodi yuksak, iqtidorli, tashabbuskor, mas'uliyatli, ma'naviy va jismoniy barkamol avlodni voyaga yetkazish zamonaviy jamiyat istiqbolining asosiy omilidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдуллаева Н.Ж., Тўрабоева М.Р. Халқ педагогикаси. Ўқув-услубий мажмуа. - Андижон, 2018. - Б. 88-89.
2. Иномова М.О. Оилада болаларни маънавий-ахлоқий тарбиялашда миллий қадриятлардан фойдаланишнинг педагогик асослари (мустақил ҳаёт бўсағасидаги ёшлар): Педагогика фанлари доктори... дис. / Низомий номидаги Тошкент Давлат педагогика университети. - Тошкент, 1998. 279-б.
3. Мирзаев Т, Мусоқулов А., Саримсоқов Б. Ўзбек халқ мақоллари. - Т.: "Шарқ", 2019. - 512 б.
4. Нажмиддинова К.У. Оила тарбиясида миллий ва умуминсоний ахлоқий маданиятнинг ўрни / Монография. -Т.: Адолат, 2016. -Б. 60-6.
5. Шодмонова Ш.С. Оилада кичик мактаб ёшидаги болаларни миллий қадриятлар асосида ахлоқий тарбиялашнинг педагогик асослари: Пед. фан-лари номзоди... дис. / Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети. - Тошкент, 2001. -Б.14.



TARBIYAVIY ISHLARNI TASHKIL QILISH JARAYONIDA TRENINGLARNI TASHKIL QILISH VA UNING AHAMIYATI

D.I.XODJAKULOVA,
TTESI dotsenti, p.f. n

Maqolada tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish jarayonida treninglarning o'рни ahamiyatliligi, trening o'tkazish jarayonida talaba va o'quvchilarning nutqi o'sishi, tafakkurini rivojlanishi, muloqatga tez kirisha olishi haqida so'z boradi.

Tayanch so'zlar: shaxs, tarbiya, trening, guruhlar bilan ishlash, verbal, noverbal.

В статье рассматривается роль тренингов в организации воспитательной работы, рост речи студентов, развитие мышления, умение быстро общаться в процессе обучения.

Ключевые слова: личность, воспитание, обучение, групповая работа, вербальное, невербальное.

The article discusses the role of trainings in the organization of educational work, the growth of students' speech, the development of thinking, the ability to quickly communicate in the process of training.

Key words: personality, upbringing, training, group work, verbal, nonverbal.

Bugungi kunda pedagogikada talabalarining ta'lim jarayonidagi faolligini oshirishga qaratilgan bir nechta o'qitish uslublari ishlab chiqilgan: muammoli o'qitish, ish faoliyatini ifodalovchi turli rolli o'yinlar, treninglar, bahs munozaralarni tashkil qilish va hokazolardir. Uzlüksiz ta'lim tizimida tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish jarayonida ayniqsa treninglarning o'рни beqiyosdir. Sababi trening o'tkazish jarayonida talaba va o'quvchilarning nutqi o'sadi, tafakkuri rivojlanadi, muloqatga tez kirisha oladigan bo'ladi. Shu sababli trening verbal va noverbal ko'rinishda tashkil etish mumkin.

Treningni noverbal (so'zsiz, mimika, pantomimika, qarash va hokozolar) ko'rinishda tashkil qilgan tarbiyachi gapirayotganida har bir qatnashuvchini ko'z ostida tutishi, hammaga bir xil e'tibor berishi va guruhdagi ba'zi odamlarga xayrixoh bo'lib qolmasligi lozim. Xonada guruhning diqqatini buzmasdan harakat qilishi (tez-tez va maqsadsiz yurishlardan qochishi, shuningdek, guruhga o'zi ko'rinmaydigan joydan turib gapirishi) kerak bo'ladi. Qatnashuvchilarning bosh qimirlatishi, tabassumi va xatti-harakatlari nimanidir aytmoqchi ekanligiga, xohishi borligiga e'tibor berishi kerak bo'ladi.

Treningni verbal ko'rinishda tashkil etilsa, pedagog savollarni shunday tuzishi kerakki, asosan qatnashuvchilar gapirsin. Bunda tarbiyachiga ochiq savollar yordam beradi: "Siz bu haqda nima deysiz?", "Nimaga?", "Qanday...?", "Agar..." va hokazolar. Agar qatnashuvchi "Ha", "Yo'q" deb javob bersa, "Nimaga shunday gapiryapsiz?" deb so'rash maqsadga muvofiq bo'ladi. Bundan



tashqari boshqa qatnashuvchilardan ham so‘rash kerak tasdiqlangan fikrlarga qo‘shiladimi?

Pedagog trening o‘tkazish jarayonida o‘z ovozinining ohangiga ham e’tibor berishi, sekin va aniq gapirishi kerak bo‘ladi. Qatnashuvchilarni ko‘proq gapirishga undash kerak. Tarbiyachi o‘zining va qatnashuvchilarning so‘zga chiqishi vaqtini hisoblashi lozim bo‘ladi. Hamma savollarga faqat o‘zi javob bermasligi, qatnashuvchilar bir-birlarining savollariga javob berishi mumkinligini unutmasligi lozim. Baxs natijalarini xulosa qilishda har bir mashg‘ulot qatnashchisining muhokama qilinayotgan muammoni mohiyatini to‘g‘ri tushunayotganini aniqlab, keyin umumiy xulosa chiqarish kerak. Agar tarbiyachining shaxsiy tajribasi mazkur bahsga mos kelsa, qatnashuvchilar fikrlarini mustahkamlab "Bu menga o‘tgan yilgi voqeani eslatadi" – deyishi mumkin.

Yaxshi trening o‘tkazishning bir nechta tarkibiy qismlari mavjud:

Izyuminka. (Bolalar bilan ishlashning o‘ziga xos ajoyib tomoni) Qatnashuvchilarning treninga qiziqishini uyg‘otish uchun qisqa bahs boshlang, savollar bering, provokatsion ta’kidlashlarini ilgari suring yoki qandaydir faoliyat turini faraz qiling. O‘qish qatnashchilarining avvalgi bilimlari va ularning hayotiy tajribalarini bog‘lashga harakat qiling. Trening nima uchun ahamiyatli ekanligi sabablarini tushuntiring.

Qatnashuvchilar uchun natijalarini ta’kidlash. Qatnashuvchilarga ulardan nima kutilayotganligini tushuntiring. Qatnashuvchilar uchun natijalar quyidagi savolga javob berishi kerak: "Bu treningdan keyin qatnashuvchilar nimalarni bilishini va qilishini xohlamayman?"

Treningning hissasi. Trening uchun kerakli boshlang‘ich ma’lumot va etarli bilimlar (matn, ma’ruza, xujjatlar, o‘qish) va biror faoliyat turini o‘tkazish uchun fan mazmunini namoyish qiling.

Interfaol. Bu-trening yuragi. Interfaol uslubiyotda foydalanadigan ish tartibini qisqacha bayon qiling. Interfaol uslub – bu jamoaviy muhokamani tashkil etish, fikrlarni erkin aytish, muhokama, tahlil va faoliyatni baholashdir. Umuman treningdagi faoliyatning ushbu turida qatnashishning barcha qadamlarini chizib chiqing. Ayniqsa, guruhda ishlash uchun aniq va qisqa tushuntirishlar olib boring. Tushuntirishini tekshiring va tushuntirishlar bering.

Treningni to‘liq yakunlashga vaqt etishi uchun uning har bir qismini diqqat bilan tashkil qiling. Treningni o‘tkazish savollari bu erda muhim ahamiyatga ega (guruhni o‘lchovi, guruhga shaxsiy yordam, tushunishini tekshirish). Aynan shu narsalar treningni o‘tishiga yordam beradi. Trener mashqlarni bajarish jarayonida qatnashuvchilarni topshiriqlarni to‘g‘ri bajarishini kuzatib boradi.

Debrifing (xulosa) baholash. Qatnashuvchilar o‘zlari yodlagan, o‘rgangan



yo'nalishlari bo'yicha xulosa qiladilar, olingan ma'lumotlar va malakalarni boshqa holatlarda, bolalar bilan ishlashda qo'llashni muhokama qiladilar.

Bu-treningni baholash qismidir. "Qatnashuvchilar nimani o'rgandilar?". Trening davomida o'rganganlari yoki ko'rsatganlari natijalar bilan mos kelishini tekshiring.

"Muammoli bola" treningni o'tkazish texnologiyasi.

Treningni maqsadi:

– Qatnashuvchilarga muammoli bolalar bilan o'zaro til topishishning hamda ular bilan bo'ladigan turli vaziyatlarda to'g'ri echimni topishlarga yordamlashish.

– Muammoning mohiyatini aniqlashda malakani shakllantirish.

– Tarbiyaning ba'zi usullari bilan tanishtirish, bolalar va o'smirlar bilan ishlashda ushbu uslublarni to'g'ri tanlashni o'rgatish.

– Muammoli bolalarning paydo bo'lish sabablari va etakchi tarbiyachilarning ushbu muammoni echishdagi xatti-harakatlarini to'g'ri aniqlashni o'rgatish.

Treninglarni o'tkazishda guruhlar bilan ishlash va ularga rahbarlik qilish eng avvalo, ta'limning guruhli shakli "ta'lim beruvchi - ta'lim oluvchi" dialogidan voz kechishni va "ta'lim beruvchi-guruh-ta'lim oluvchi" ko'rinishidagi uch tomonlama o'zaro munosabatga o'tishni nazarda tutadi. O'quv guruhi, tarkibi bo'yicha harakatchan kichik guruhlariga bo'linadi va ularning har biri o'zicha o'quv materialini o'zlashtiradi. Tajriba shuni ko'rsatadiki, shu tufayli siz bilan ta'lim oluvchilar o'rtasida ancha mustahkam kontakt o'rnatiladi, shaxsiy va bir vaqtning o'zida ta'lim jarayonida jamoaviy ruhiy holat kuchayadi.

Ta'lim oluvchilarning hamkorlikdagi harakti tashkillashadi, bu esa, o'quv-bilish jarayonini faollashtirishga, ularda empatiyani, kommunikativlikni shakllantirishga ko'maklashadi:

– vazifani hamkorlikda o'rtoqlari tomonidan bildirilgan fikirlarni muhokama qilishga motivatsiya paydo bo'ladi;

– ta'lim oluvchilar bir-biriga savollar beradilar, shuning uchun, ular savollarni aniq shakllantirishni bilishlari zarur, javoblarni-argumentlashtirishni, tushunishga erishish uchun esa, ular bir-birlarini diqqat bilan eshitishlari kerak;

– guruhlarda ishlash paytida, zarurati bo'lganda, ta'lim oluvchilar yordam berishlarini so'raydilar va boshqalarga yordam berishni o'rganadilar.

Har bir ta'lim oluvchining potensial imkoniyatlarini rivojlanishi va amalga oshirilishi ta'minlaydi:

– qobiliyatli va iqtidorli bolalar, ularni "maqtanganlik"larida ayblashlaridan cho'chimasdan o'z qobiliyatlarini ko'rsatishlari mumkin. Ular, guruhda nafaqat ta'lim beruvchi rovida bo'lishlari, balki ta'lim oluvchi rovida ham bo'lishlari mumkin va ta'lim beruvchi rolidagi o'z o'rtoqlari tomonidan baholanishi, raqib bo'lmasdan



ulardan o'rganishi mumkin;

– o'rtacha qobiliyatga ega yoki xarakteri bo'yicha qo'rqq bolalar o'z bilimlari va mahoratlarini namoyon qilish imkoniyatini oladilar.

Kichik guruhlarda ishlash, ularni stress holatlardan xalos etadi, ya'ni noto'g'ri javob berganda butun jamoa oldida izza bo'lishdan qo'rqishdan holi bo'ladi. Guruh a'zolari, javobni do'stona baholab, ularda o'ziga ishonch tuyg'usini uyg'otish imkonini beradilar. 4-5 kishidan iborat guruhda, qo'rqq kishi, 25 kishilik guruh oldida o'zini tutishga nisbatan, o'zini ancha erkin his etadi;

Ta'limning ushbu shakli, ta'lim oluvchilar bilimini o'zaro hamkorlikdagi bo'lishini ta'minlaydi: faqatgina kooperatsiya va harakatlar (bilish) usullari bilan o'zaro almashish umumiy mahsulot olish – muammoni echish imkonini beradi. Shning uchun, guruhda ta'lim berishda, biz, jamoaviy muhokama qilishdan, o'zaro konsultatsiyalar berishda maksimal foydalanamiz.

Guruhlarda ishlash, atrofda qilarga bo'lgan munosabatni o'zgartiradi, "men va ular"dan "biz"ga o'tishni ta'minlaydi va o'zini guruhning bir bo'lagi sifatida his qilish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, trening bu nafaqat ta'lim oluvchilarda shaxslararo o'zaro hamkorlikning samarali ko'nikmasini shakllantirishga, balki mutaxassis kasbiy kompetentligini umumiy darajasini oshirishga yo'naltiriladi. Trening mobaynida ishtirokchilar nazariy ma'lumotlarni o'zlashtirish bilan birga, ularda bilish, emotsional va xulq-atvor ko'nikmalari rivojlanib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tolipov O', Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. T., 2005.
2. Ishmuhammedov R, Mirsoliyeva M. O'quv jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalari. T. 2014.
3. Azizxo'jaeva N.N. " Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat" T. Fan-2006.
4. Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. T.: O'qituvchi, 2004.



BARKAMOL AVLODNI TARBİYALASHDA O‘ZBEK MILLIY ESTRADA QO‘SHIQCHILIK SAN‘ATINING O‘RNI

R.K.AZIZOV,
O‘ZPFTI tayanch doktoranti

Mazkur maqolada o‘zbek milliy musiqa madaniyatini rivojlanishi, shuningdek estrada vokal san‘atining o‘quvchi yoshlarimizning ongi, tafakkuri va ma‘naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishdagi masalalar yoritilib, bo‘ljak musiqa o‘qutuvchilariga metodik tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: *estrada, rep, pop, ommaviy madaniyat musiqiy estrada sof intonatsiya, qo‘shiqchiligi.*

Данная статья посвящена проблемы развития становления узбекской национальной музыки а также а развития эстрадного жанра у нас в Республики о влияние его на сознания память мышления учащихая молодёжи также даны методические рекомендации по проведению воспитанию подрастающего поколения.

Ключевые слова: *эстрада, реп, поп, общественная культура, музыкальная эстрада, чистая интонация, певец.*

Given article devoted for the problem of the progress of Uzbek National music and about development of estradical genre, the effect of its comprehension of memories of students and youth also there is given metodical recommendations of behaviour of growing generation.

Key words: *stage, rap, pop, public culture, pure intonation, singer*

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda estrada san‘ati asosida yirik tadbirlar, bayramlarning o‘tkazilishi an‘ana tusiga kirib qoldi. Buning asosiy sababalaridan biri musiqashunos olimlar tomonidan estrada tushunchasiga bergan ta‘rifning yana bir karra to‘g‘ri ekanligidan, to‘g‘rirog‘i estrada qo‘shiqlarining zaminida xalq og‘zaki ijodi – folklor aytimlari yotganligidandir. Shu sababli bo‘lsa kerak estrada qo‘shig‘i hayotimizdagi barcha voqealar bilan chambarchas bog‘liq holda yaxlit umumiylikni o‘zida namayon etib kelmoqda.

Yosh avlodni ajdodlarimiz an‘analari, qadriyatlari va madaniyati asosida tarbiyalash, ularni ma‘naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashda, Ona-Vatan oldida o‘z burchi va vazifalariga sodiqligi, milliy an‘ana, urf-odatlar ruhida tarbiyalashda, milliy fazilatlarini shakllantirishda musiqiy meros, xususan, xalq marosim qo‘shiqlari va ulardagi milliycha kolorit usullari alohida o‘rin tutadi. [1]. O‘tmishda yashab ijod qilgan ulug‘ ajdodlarimizning ilmiy-ma‘naviy meroslaridan yoshlarni keng bahramand qilib borish, ilg‘or fikr va qarashlarni bugungi kunda ta‘lim-tarbiyaga bog‘lash natijasida yaxshi samaraga erishish mumkin. Shuningdek, musiqa



nazariy asoslari, uning tarbiyaviy quvvati xususida Sharqning buyuk shoiri, faylasufi Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, musiqa nazariyotchisi Darvesh Ali Changiylarning musiqiy meroslari musiqiy-estetik tarbiya muammolarini hal etishda noyob manbaa bo'lib xizmat qiladi.

O'zbek milliy musiqa an'analari mazmunida yoshlar tarbiyasi va shaxs kamolotini ta'minlashga muhim vosita bo'lib xizmat kiluvchi boy va o'lmas ma'naviy-ahloqiy qarashlar mujassamlashgan bo'lib, u muhim tarbiyaviy ahamiyatga egadir. [4] Yoshlarning e'tiborini faqat zamonaviy estradaga emas, shu bilan birga milliy va an'anaviy, mumtoz qo'shiqlarni kuylash va tinglashga ham qaratish lozim. Shuningdek, estrada asarlaridan imkon qadar "Ona-Vatan", millat, xalq, insoniy fazilatlarini kuyluvchi, olam, jamiyat, haqiqiy sevgi-muhabbatni kuylovchi asarlarni o'rganish va o'rgatish lozim. Buning uchun bo'lajak musiqa o'qituvchilari uchun tinglash taklif etilayotgan kuy-qo'shiqlar jamlangan disklardan, ustoz-san'atkor va bastakorlar ijodi bilan bog'liq adabiyotardan unumli foydalanishni yo'lga qo'yish zarur bo'ladi. Chunki san'atimiz tarixidan, ustozlar bisotidan bohabor bo'lmay turib san'atning chinakam mahiyatini anglab yetish qiyin. Bu tarbiya har darsda o'qituvchi tomonidan talabalar qulog'iga singdirilib borishi tavsiya etiladi.

Insonning hayoti va faoliyatida musiqa san'ati vositasida barcha hissiy, aqliy, harakatga keltiruvchi holatlari, uning ish samaradorligini oshirishda o'ta muhim va zarur faoliyat turi hisoblanadi. Talaba-yoshlarning musiqiy madaniyatini oshirish bo'yicha ta'lim berish jarayonida professor-o'qituvchi talabalarning musiqiy qobiliyatini e'tiborga olgan holda faoliyat yuritishi talab etiladi. Musiqiy darslarni olib borishda talabalarning olgan bilim, ko'nikma va malakalari juda katta ahamiyat kasb etadi. Shu sababli talabalarning psixologik xususiyatlarini birma-bir tahlil qilishni mazkur tadqiqot oldiga maqsad qilib qo'ydik. Jumladan, diqqat – ma'lum paytda faoliyatning bir narsaga qaratilishidir. [5] Diqqat asosan ikki turga bo'linadi. Ulardan biri ixtiyorsiz va ikkinchisi ixtiyoriy diqqatdir. Talabaning ixtiyoriy diqqati inson bilan doimiy hamroh bo'ladigan xarakterdir. Bu ancha tig'iz va samarali aqliy faoliyat bo'lib, barcha turdagi mehnatning yuqori samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Musiqa san'atida musiqiy faoliyatning barcha turlari insonning diqqati bilan bog'liqdir. Ayniqsa, estrada ijrochiligida uni naqadar ahamiyat kasb etishini hamda hamma birdek bu tushunchaga a'lohida e'tibor qaratiladi. Aslida diqqat psixologik tushuncha. Biroq, musiqa ilmida u juda katta ahamiyat kasb etadi. Inson musiqani



eshitib, tinglab, ta'sir oladi va u butun diqqat-e'tiborida bo'ladi. Shu o'rinda aytib o'tish joizki, zamonaviy psixologiyada diqqat tarkibida uning sifat xususiyatlari o'rganiladi. Bunga diqqat barqarorligi, ko'chishi, taqsimlanishi va hajmi kiradi. Diqqat – bu o'quv jarayonidagi eng muhim tarkibiy bo'laklardan biridir. Barcha buyuk musiqachilar favqulodda diqqat egasi bo'lgan. Masalan, Mosart ko'pchilik bo'lgan xonada hamda begona ovozlari eshitilib turganda ham xotirjamlik bilan musiqa yozgan. Polshalik pianinochi va kompozitor I. Gofman maqsadga muvofiq yagona ish uslubi haqidagi savolga: diqqatni jamlash - omad alifbosidagi birinchi harf, deb javob bergan. Rus kompozitori va pianinochisi N. Metner bo'lsa "Ish boshlashdan avval yaxshilab diqqatni jamlash hamda nima va qanday qilishni bilish zarur, shunda musiqachi kamroq toliqadi va charchaydi", – degan edi.

Oliy ta'lim tizimining pedagogika sohasi musiqa ta'limi ta'lim yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalarni musiqa sohasida malakali kadrlar qilib yetishtirishda estrada san'atining o'rni juda katta ekanligi barobarida ta'lim va tarbiyaning birligiga erishishi mumkin. Shuni alohida nazarda tutmog'imiz lozimki, bu tarbiyaning muvaffaqiyati quyidagi pedagogik shart-sharoitlarni ta'limoti orqali amalga oshirib borishi mumkin. Ular quyidagilardir:

- estrada aytimlarini o'rganish mumkin bo'lgan "Vokal va zamonaviy musiqa" darsining estetik nuqtai nazardan aniq maqsadga qaratilgan bo'lishini ta'minlash;

- dars uchun musiqiy materiallarni, o'rgatish metodlarini, uslub va vositalarni to'g'ri tanlay olish;

- professor-o'qituvchi tomonidan har bir guruh, har bir talabani o'ziga xos xususiyatlarini, musiqiy qobiliyatlarini, ijro va idrok imkoniyatlarini hisobga olish;

- talabalarda musiqiy estradaviy estetik madaniyatni shakllantirishga qaratilgan mantiqiy, maqsadga muvofiqlik uzluksizlikning ta'minlangan bo'lishi;

- musiqiy estrada tarbiya jarayonida o'qituvchi tomonidan talabalarning hissiy, ijodiy va axloqiy faoliyatlarining mutanosibligi ta'minlangan bo'lishi.

Musiqiy tarbiyada ta'lim bilan tarbiyani mustarak bo'lishligi ta'limning ilmiy ongli, ko'rgazmali, tushunarli, o'zlashtirilgan bilimlarni mustahkam bo'lishi kabi tamoyillarga jiddiy amal qilgan holda olib borilishiga erishish lozim.

Ma'lumki, 2016-2017 o'quv yilidan Respublikadagi Oliy ta'lim muassasalaridagi pedagogika sohasi musiqiy darslarida estrada xonandaligi asarlarini keng o'rganish yo'lga qo'yildi. Estrada asarlarini o'rganishda o'qituvchi o'z oldiga talabalarni musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirish, kelajakda musiqa madaniyati darslarida o'quvchilarni estetik madaniyatlarini shakllantirishda estrada



asarlaridan keng foydalanishda quyidagi asosiy ko'rsatkichlar provard natija ekanligini yodda tutmog'i lozim:

1. Talabalarda musiqa darslariga nisbatan qiziqish va havas tobora orta borishi.

2. Auditoriya va auditoriyadan tashqari musiqa mashg'ulotlari jarayonida va, qolaversa, musiqiy to'garaklarida talabalarining ijodiy faolligini va tashabbusi orta borishi.

3. Estrada qo'shiqlarini xushohang, musiqani diqqat va ishtiyoq bilan tinglash, asarlardan xushsozlik, xushovozlik va undan go'zallikni anglay olishni, unga o'z munosabatini bildirga olish malakalarini shakllantirib borishi.

4. Talabalarining musiqiy estrada asarlarini ijro etish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirgan bo'lishi.

5. Talabalarda estrada san'ati ta'sirida go'zallikka intilish, rostgo'ylik, do'stlikni qadrlash kabi axloqiy estetik tushunchalarni tarkib topa borishi. Darsda o'zini tuta bilishi, muomala, kiyinish kabi estetik madaniyatning bir qator sifatlarini shakllantirib borishi.

Xulosa qilib aytganda estrada asarlari, qolaversa, ta'lim va tarbiya haqida ketar ekan talaba yoshlarda eng avvalo sog'lom didni shakllantirib borish birinchi e'tiborda bo'lmog'i lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.M.Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Ma'kamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11.

2. Alaviya M. "O'zbek xalq marosim qo'shiqlari" Toshkent, Fan, 1974 y.-221 b.

3. Karomatov F. O'zbek xalqi muzika merosi (yigirmanchi asrda) Toshkent. 1985 y. 2-tom, b.

4. Ibrohimov O.A. "O'zbek xalq musiqa ijodi" (metodik tavsiyalar I qism), Toshkent, 1994 y. - 62 b.

5. Mirzayeva N.A. Xonandalik uslubiyoti asoslari. Ma'ruzalar matni. Toshkent. 2008. 48 b.



YUQORI SINIF O'QUVCHILARINI KASBGA YO'NALTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK SHAROITLARNI YARATISH

SH. T. ERGASHEV,

NamDML psixol.f.n. dotsent

Maqolada o'quvchilarni o'rganilayotgan kasbga qiziqishini shakllantirish jarayonida ularning e'tiborini tortadigan materiallarni tavsiflaydigan holatlar sanab o'tildi.

Kalit so'zlar: kasbga qiziqish, intellektual komponent.

В статье речь идет о том, как нужно заинтересовать учеников к определенной профессии.

Ключевые слова: заинтересовать к профессии, интеллектуальный компонент.

Hozirgi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan ta'lim sohasidagi islohotlardan biri yoshlarni tog'ri kasbga yo'ltirish va kelajakda yetuk mutaxassis qilib tayyorlashdan iborat.


Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va manaviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz [1].

Shunday ekan o'quvchilarni ongli kasbga yo'naltirishning mohiyatini ochib bermoqimiz lozim. Xo'sh buning uchun nima qilmoqimiz lozim? Avvalambor, O'quvchilarni o'rganilayotgan kasbga qiziqishini shakllantirish jarayonida ularning e'tiborini tortadigan materiallarni tavsiflaydigan holatlar quyidagicha:

1. O'quvchilarda demontaj – montaj ishlarini bajarsn, o'lchash, tahlil qilish, izlash, minimal qo'yimlarni taqozo etadigan aniq bo'g'imlarni tayyorlash orqali e'tiborlilik shakllanishini ta'minlaydigan ishlar;

2. O'quvchilarda nazorat topshiriqlari, planshetlar, hisoblash mazmunini o'rganish orqali, detallar, uzellar va mexanizmlarning sxemalari, chizmalari, jadvallari va konstrutsiyalarini o'rganish orqali belgilashni ta'minlaydigan ishlar.

O'quvchilarda o'rganilayotgan kasbga qiziqishini shakllantirishni ta'minlaydigan intellektual komponentning tarkibiy qismlarini aniqlashda quyidagilarga alohida e'tibor berish lozim.





Kasblarga qoyiladigan psixofiziologik talablarni umumiy holatini izohlash uchun:

1. Yoshlar tegishli kasbiy maqsadli goyalarini shakllantirish metodlarini ishlab chiqish;

2. Kasbiy qobiliyatlar va kasbga layoqatni shakllantirish metodlarini ishlab chiqish.

3. Turli kasblarning ijtimoiy mavqeiini tenglashtirish metodlarini va yo'llarini ishlab chiqish.

4. Mehnat resurslarini taqsimlash va ularning muhim joylashib qolishi jarayonini iqtisodiy va ma'naviy tartibga solib turish omillarini ishlab chiqish.

5. Moddiy ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarining yoshlar uchun jozibali bo'lishini oshirish tadbirlari tizimini ishlab chiqish.

6. Kasb tanlashning tegishli motivlari shakllanishiga ommaviy tarbiya vositalari ta'siri samaradorligini oshirish tadbirlari tizimini ishlab chiqish.

7. Umumiy ta'lim maktabining oila va ishlab chiqarish bilan hamkorlikda kasbga yo'naltirish va kasbiy maslaxat bo'yicha olib boradigan ishlari tizimini belgilashda "xohlayman", "uddalayman" hamda yengil sanoat sohasi tarmoqiariga xos ishlab chiqarish korxonalarini o'rganish jarayonida o'quvchilarni mazkur sohaga xos kasblarni tanlashga yo'naltirish asoslarini mukammal o'zlashtirishni ta'minlash zarur

